

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

“UMUMIY TARIX” KAFEDRASI

Tarix o'qitish metodikasi

fanini o'qitish bo'yicha

Ma'ruza matni

Taqrizchilar :

**tarix fanlari nomzodi, dotsentlar
R.N. Tolibov, S. G'iyosov**

Muallif:

katta o'qituvchi S.I. Hamroyeva

Navoiy – 2015

Ma'ruza matni pedagogika instituti Tarix fakulteti talabalari uchun "Tarix o'qitish metodikasi" fanini o'rganishda yordamchi ma'ruza matni bo'lib, unda mazkur fanning dolzarb muammolari yoritilgan. Talabalarga "Tarix o'qitish metodikasi" fanini o'rganishda amaliy yordam berib, uning konsepsiyasi, nazariya va qarashlari bilan tanishtiradi.

Mazkur ma'ruza matni "Tarix o'qitish metodikasi fani"ni hozirgi zamon talabi asosida xolisona o'rganishda yordam beradi degan umiddamiz.

Taqrizchilar :

**tarix fanlari nomzodi, dotsentlar
R.N. Tolibov, S. G'iyosov**

Muallif:

katta o'qituvchi S.I. Hamroyeva

Mavzu: Kirish. Tarix o'qitish metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari.

Reja:

- 1. Kirish.**
- 2. Tarix o'qitish metodikasining predmeti va uning vazifalari.**
- 3. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar.**
- 4. Tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.**


Tayanch iboralar

“Tarix o'qitish metodikasi” fanining fanga kiritilishi, tarixi, rivojlanishi. Fanning tarkibiy qismlari, ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi respublikamizning bugungi kuninigina emas, balki istiqbolini ham belgilab beruvchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasining istiqbol yo'li avlod-ajdodlarimizning tarixiy an'analari va ma'naviy merosiga suyangan holda tanlab olinadi. Zotan, mustaqillik yo'li O'zbekiston halqlarining tarixiy an'analari va ma'naviy boyliklarini qayta tiklovchi, yangi mazmun bilan boyituvchi yo'ldir. Bu esa tarix o'qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning mehnatsevarlik, do'stlik, mehmondo'stlik, ma'rifatparvarlik kabi an'analari, imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, Vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi oliyanob fazilatlarini chuqur o'rganishni, ularni asrab-avaylab, yoshlar qalbiga, qon-qoniga singdirish, o'zini anglashga ko'maklashishi, respublikamiz istiqbol uchun astoydil xizmat qiladigan faollarni yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish o'quvchilarning bu tarixiy an'analari va oliyanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan-avlodga o'tib, mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va farovonligi, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilib kelganligi, ularni bundan keyin ham asrab-avaylab davom ettirish, avlodlarimizning insoniy fazilatlariga sodiq bo'lish o'zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish asosida o'quvchilar bu o'lka xududida qadimdan bir necha o'nlab millat va elatlar yonma-yon yashab kelganligi, ular mahalliy va ajnabiy bosqinchilar zulmiga qarshi birgalikda kurash olib borganligi, o'zbeklar hamisha boshqa millat va xalqlarga alohida hurmat bildirganligi, xalqlar qardoshligi va do'stligini muqaddas, deb ardoqlaganligi, o'zbek xalqining bu tabarruk an'anasi umuminsoniy qadriyatlarga bebaho xissa bo'lib qo'shilganligi, millatlararo munosabatlar keskinlashib turgan hozirgi paytda bu an'ananing hayotiyligi yana bir bor sinovdan o'tayotganligini anglab oladilar. Shuningdek, mustabid hukmdorlar va bosqinchilar hokimiyati yillarida xalqimizning moddiy-ma'naviy boyliklari va go'zal an'analari oyoq-osti qilib toptalgan, shaxsga sig'inish va turg'unlik yillaridagi tanglik, paxta yakkahokimligi, kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy rivojlanishiga to'sqinlik qilganligini, ekologik muhitdagi nomutanosibliklarga, Orol fojiasiga, atrof muhit, yer-suv va havoning ifloslanishiga olib kelganligini, odamlarning sog'ligigagina emas, balki irsiyatga ham ta'sir ko'rsatayotganligini o'quvchilar tushunib olishi, ularning hozirgi ekologik muammolarni hal qilishda, jumhuriyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish o'quvchilarni avlodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizgning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan fahrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, O'zbekiston xalqlari tarixi o'qituvchilarining milliy ongini o'stirishda, o'zlikni anglashida, ular siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir. Lekin, hozirga qadar bu imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanmasdan kelindi.

Maktabda O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishning bu imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'qituvchiga, uning mazkur tarixning yangilangan mazmunini, uni o'qitish uslubiyatini mukammal bilishiga, ta'lim va tarbiya ishlarini ilmiy asosda uyushtira olishiga bog'liqdir. O'zbekiston xalqlari tarixi bo'yicha ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmaning qayta nashr qilinishi shu maqsad uchun xizmat qiladi degan umiddamiz. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlari talabalariga mo'ljallangan ushbu qo'llanma o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" fanlarining yangi dasturiga muvofiq tayyorlandi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanining asosiy maqsadi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan Vatanimiz va jahon tarixiga oid eng muhim voqealar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy va ma'naviy merosiga, ilg'or an'analarga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk merosimizning davomchilari hamda uni boyituvchilari bo'lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat. Tarix o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan tarix kursining maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Tarix o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlaridagi tarix fakultetlarining o'quv rejasiga kiritilishi va uni o'rganishdan ko'zda tutilgan kelgusida o'qituvchi bo'lib chiqadigan talabalarni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat. Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Tarix o'qitish metodikasi tadqiq etadigan, talabalarning puxta va mukammal bilim olishi va amalda suyanishi kerak bo'lgan tarix o'qitishning umumiy qonuniyatlari nimalardan iborat va lar ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'ladi?


Metodika – tarix o’qitish jarayoni, uning samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida tadqiq etuvchi pedagogika fani sohasi



Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir.

Shuningdek, o'qitishning natijalari ham o'qituvchining o'qitishdan ko'zlangan maqsadni, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishiga bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga o'zluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Prof P.V.Gora tarix o'qitish metodikasi programmasi va lektsiya kursining ilmiy asoslariga bag'ishlangan ma'ruzasida o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limi jarayonining umumiy qonuniyatlarini quyidagi sxemada ifodalab, ularning har qaysisiga izoh beradi.



Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlool ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lam, o'quv material: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tarix o'qitishni tashkil qilish deganda, tarixni o'qitish va o'quvchilarning uni o'rganishni tashkil etish, ularning o'rganish faoliyatini o'qituvchilarning boshqarishiga yordam beradigan metod va metodik usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish ularni ijodiy bilishga

yo'naltiriladigan topshiriqlar sistemasi hamda ta'limning turli xil formalari (dars, seminar mashg'ulotlari va boshqalar) tushuniladi.

O'qitishning natijalari deganda esa, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi; o'quvchilarning tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali metod va usullarni bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta o'zlashtirishlari shu asosda o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o'stirish ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limi jarayonining yuqoridagi umumiy qonuniyatlari quyidagi ob'ektiv va qat'iy takrorlanadigan aloqalarda namoyon bo'ladi: o'qitishning maqsadi uning mazmuni bilan belgilanadi, maqsad va mazmuniga mos keladigan o'qitish metodi va usullari tanlanadi, o'qitishning samarasi esa o'qitishda erishilgan qat'iy ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, ya'ni tarixiy bilimning sifati, o'quvchilarning kamol topish darajasi bilan o'lchanadi.

Ta'limni muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirmoq uchun o'qituvchi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Biroq, 5-9 sinflarda tarix o'qitish oldida turgan umumiy maqsad bilan ta'lim-tarbiya vazifalarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining o'rnini, vazifalari, o'z navbatida mazkur kursni o'qitishning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo'limi, bo'limdagi mavzular, xatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar sistemasida tutgan o'rnini bor, bu darsda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi xal etiladi.

Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi mutassil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak. Ta'limdan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanmog'i lozim. Bu maqsadlar tarix ta'limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta'limning boshqa shart-sharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikmalari va malakalari, dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta'lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta'minlaydi. Ta'limdan ko'zlangan maqsadlarni o'qituvchi naqadar chuqur anglab olgan bo'lsa, tarix o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi. Binobarin, tarix DTS asosida o'quvchilarga o'rgatiladigan tarix ta'limidan ko'zda tutilgan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy vazifalar oldindan aniq belgilanishi o'quvchilar bilimining rivojlanib, chuqurlashib borishiga, voqealarning mohiyatini puxta tushunib olishlariga yordam beradi, zarur ko'nikma va malakalarni yuzaga keltiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini o'stiradi. Tarix o'qitishning samarali bo'lishida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o'ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyatining bo'lishligi juda ko'p omillarga, avvalo, mashg'ulot mazmunining g'oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo'lishiga, o'qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarni chuqurroq o'rganib olishning muhimligini o'quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o'rganishga ishtiyoq uyg'otish bog'liqdir. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarni mashg'ulot mazmunini o'zlashtirib borishi ustidan qilingan nazorati, o'quvchilar o'rganishini boshqara bilishi, shuningdek ularning yangi bilimlarini o'zlashtirish uchun o'zlaridagi mavjud bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya'ni o'zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursi mazmunan juda boy va xilma-xildir. Tarix kursining mazmuni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida uni o'qitish va

o'quvchilarning o'rganish faoliyati orqali ularning ongiga, tarbiyasi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi, ularning kamol topishiga yordam beradi. Demak, mashg'ulotning mazmuni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning ham asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi bilish faoliyatini faollashtirishga ijobiy ta'sir etuvchi va umuman o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi metodik usul va vositalarni tanlashda ham o'rganilayotgan tarixiy materialning mazmunini nazarda tutmog'i lozim. Tarix o'qitish metodikasi jarayoning tarkibiy qismlari o'rtasidagi qat'iy takrorlanadigan o'zaro aloqa va bog'lanishlarda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni ochib beradi va tarix o'qitish jarayonini takomillashtirishda ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlarini ham ko'rsatib beradi. Demak, tarix o'qitish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari bilan qurollantiradi. Shuningdek, metodika ularni tarix o'qitish jarayonini o'rganishning tekshirish metodlari bilan ham qurollantiradi. Tarix o'qitish jarayoni ikki yo'l bilan o'rganiladi. Birinchisi, kuzatish metodidir. Bu metoddan foydalanganda turli xildagi o'quv-metodik adabiyotlar, o'quvchilarning yozma ishlari, doklidlari, ularning javoblari, o'qitishga berilgan baho va xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o'quvchilarning bilimi va malakalari o'rganiladi.

Shunday qilib, kuzatish metodidan foydalanganda, tadqiqotchi tarix o'qitishning mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqmaydi, uni tabiiy ravishda kuzatadi va o'rganadi.

Ikkinchisi eksperiment metodi. O'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi xohlaganicha uyushtiradi. Xullas, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy eksperimentga o'xshab ketadi. Biroq, o'qituvchi qilgan ijodiy izlanishlarning ilmiy eksperimentdan farqi, avvalo shundaki, o'qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xuloslari esa, o'z faoliyatining natijasi bo'ladi. Ilmiy eksperimentda ko'pchilik o'qituvchilarning ishi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni tadqiq etiladi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asosda rasmiylashtiriladi. Shuning uchun ham tarix o'qitish jarayonini tadqiq etishdagi kuzatish metodini eksperimental tadqiqotdan farq qila bilish kerak.

Tarix o'qitish metodikasi tarix fani bilan o'zviy bog'liqdir. Tarix o'qitish o'quvchilarga tarixiy voqelikni bildirishdan iboratdir. Shu jihatdan o'quvchilarning tarixiy voqelikni bilish yo'llari tarixiy tadqiqotga o'xshab ketadi. O'quvchilar tarixni o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilib ko'rilgan va tahlil qilib chiqilgan faktlar hamda ilmiy xulosalarga asoslanishi bilan birga, ba'zan faktlarni yanada aniqlash, tarixiy faktlardan umumiy xulosalar chiqarish, umumiy xulosalardan yangi faktlarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin. Biroq, o'quvchilarning tarixni o'rganishi ilmiy tekshirishdan farq qiladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar tarix fanini va uning ba'zi tadqiqot metodlaridan bilib oladilar.

Shunday qilib, tarix fani va tarix o'qitish metodikasi o'zining alohida o'rganish ob'ekti, vazifasi hamda tadqiqot metodiga ega. Tarix fani kishilik jamiyatining taraqqiyoti jarayonini o'rganadi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilish o'tmish va hozirgi zamonni yaxshiroq tushunib olishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi.

Metodika o'qituvchilarni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarni ochib berish bilan birga o'qitishning samaradorligini oshira borish maqsadida tarix o'qitish jarayonini tadqiq etish metodlari bilan ham qurollantiradi. Metodika tarix fani asoslarini ochib berish maqsadida tarixiy manbalar, faktlar va umumiy xulosalardan foydalanadi. O'qitish metodikasi tarix fanining ba'zi bir tekshirish metodlaridan foydalanar ekan, o'quvchilarning bilimlarini yaxshiroq o'zlashtirishlarini va ularni tarix fanining ba'zi tadqiqot metodlari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi. O'quvchilarning yangi faktlarni tahlil etish va ulardan zarur xulosalarni chiqarish paytida o'rgangan bilimlari juda ham mustahkam va ishonarli bo'ladi, shuningdek, o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rganadi, bu ularni tadqiqot olib borishning dastlabki usullari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, o'z predmeti, vazifalari va tadqiq etish metodlariga ega bo'lgan tarix o'qitish metodikasini tarix fanlari qatoriga kiritib bo'lmaydi.

Tarix o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman psixik faoliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib o'lmaydi. Shu sababli metodika psixologiya fani bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarix o'qitish jarayonida ustod va shogirdlar o'rtasida ma'naviy yaqinlik, sog'lom va estetik kayfiyat vujudga keltirishi o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, darsning samaradorligini oshiradi.


Psixologiya fani o'quvchilardagi psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, metodika esa o'quvchilarning psixik faoliyatini ularning tarixiy materialni o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarinigina tadqiq qiladi. Shuningdek, uning o'quvchilardagi psixik faoliyatni tadqiq etish metodlaridan ham qisman foydalanadi. Psixologiya psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, metodika esa, tarix o'qitishning mazmuni va metodik usullar bilan psixik faoliyat orqali erishiladigan natijalar o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni o'rganadi. Demak, har ikkala predmetning o'rganadigan ob'ektlari qisman o'xshash bo'lsa-da, vazifalari boshqa-boshqadir.

Shunday qilib, tarix o'qitish metodikasi o'qitishda yaxshi natijalarga erishish, o'quvchilarning tarixiy materialni puxta o'zlashtirishi bilan faoliyati o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni ham o'rganadi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda psixologiya faniga suyanadi, o'quvchilarning psixik faoliyatini o'rganishda psixologik tekshirish metodlaridan foydalanish yo'llarni ham ko'rsatib beradi. Metodika ta'lim-tarbiya haqidagi pedagogika fani, uning tarkibiy qimi bo'lgan didaktika bilan chambarchas bog'langan, uning mustaqil bir tarmog'idir. Metodika pedagogik jihatdan yaxshi natijalarga erishish maqsadida ham tarix o'qitish jarayonini ham, pedagogik jarayon o'qitishda yaxshi natijalarga erishishni ko'zda tutadi. O'qitish jarayoning o'rgatish metodlari pedagogik metodlar bo'lib, o'qitish natijalarining ko'rsatkichlari ham pedagogik ko'rsatkichlardir. Shunday qilib, tarix o'qitish metodikasi pedagogika fanining mustaqil bir tarmog'i bo'lib, u o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Metodika fanining nazariy qismini egallash tarix o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va kamol toptira borish ishini yanada takomillashtirish maqsadida foydalanishga yordam beradi.

Tarix ta'limining mazmuni va sinf o'quvchilarining umumiy saviyasiga qarab bilishning umumiy qonuniyatlari turlicha namoyon bo'ladi. Tarix o'qitish metodikasi o'rganadigan eng muhim qonuniyatlardan biri o'qitish jarayonining rivojlanish qonuniyatlaridir. Bu rivojlanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi, bilimi, ko'nikma, malakalari hamda tafakkurining o'sib borishida namoyon bo'ladi, ayni bir vaqtda o'quvchilarning har tomonlama yanada kamol topishini ta'minlaydi. Tarixning har bir kursi, uning bo'limi va har bir mavzusi o'quvchilarning bilim olishi, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi va kamol topishida muhim bir bosqich bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, o'qituvchi tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim va malakalarni egallashi, kamol topishi sohasida bosib o'tilgan bosqichlarni, bunday keyin bosib o'tiladigan bosqichlarni oldindan ko'ra bilishi lozim. Bunga faqat tarix o'qitishning ilmiy asoslarini puxta egallash va amalda unga suyangan holda ish tutish asosidagina erishish mumkin.


“Tarix o’qitish metodikasi” fani qanday fanlar bilan bog’langan?

**Tarixiy bilim
kategoriyalarini
o'rganishda**



TARIX


**Tarixiy voqelikni bilish
metodologiyasida**



FALSAFA

МЕТОДИКА

**Talim va tarbiya shaxsni
shakllantirish vazifalari
hal etishda**



PEDAGOGIKA

**Talimda shaxsning
psixologik jarayonlari
xususiyatlarini
o'rganishda**



PSIXOLOGIYA

**O'qituvchi, uning
jamiyatlardagi rolini
o'rganishda**



SOTSIOLOGIYA

Asosiy tushunchalar

Tarix o'qitish deganda - tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni - tarix dasturida belgilangan tarixiy bilimlar ko'lamini, o'quv materiali: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tarix o'qitishni tashkil qilish - tarixni o'qitish va o'quvchilarning uni o'rganishni tashkil etish, ularning o'rganish faoliyatini o'qituvchilarning boshqarishiga yordam beradigan metod va metodik usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish ularni ijodiy bilishga yo'naltiriladigan topshiriqlar sistemasi hamda ta'limning turli xil formalari (dars, seminar mashg'ulotlari va boshqalar) tushuniladi.

O'qitishning natijalari - o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvafaqqiyatli ravishda amalga oshirilishi; o'quvchilarning tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali metod va usullarni bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta o'zlashtirishlari shu asosda o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o'stirish ko'zda tutiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Tarix o'qitish metodikasini maqsadi.
2. Tarix o'qitish metodikasini predmeti.
3. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari
4. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlarining aloqalari.
5. Tarix kursining ta'limiy vazifalari.
6. Tarix o'qitish metodikasini boshqa fanlar bilan aloqalari.

Mavzu: Davlat Ta'lim Standartlari, dastur va darsliklarning tuzilishi va mazmuni

Reja:

1. Tarix bo'yicha DTS tuzilishi va mazmuni.
2. O'rta umumta'lim o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimlari uchun yaratilgan o'quv dasturlari tuzilishi, mazmuni.
3. O'rta talim tizimi va o'rta maxsus talim tizimida tarixiy bilimlar strukturasi.

Tayanch iboralar

Ta'lim sohasida Davlat ta'lim standartlari, tarix fanlari bo'yicha o'rta umumiy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimi uchun yaratilgan o'quv dasturlarining mazmuni – mohiyati, tarixiy bilimlar strukturasi.

Ta'lim taraqqiyotining barcha jabhalarida ko'zlangan bosh maqsad — Respublika ta'limini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini milliy istiqlol g'oyalari, talablari asosida tashkil etish; jamiyatimiz qadam qo'ygan XXI asr ta'limini taraqqiyot, ma'naviy-madaniy qarashlar ruhida bo'lishini, eng muhimi, jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlashdir. Shu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida bajarilgan dastlabki tashkiliy tadbirlarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Avvalambor, bu ikki Qonunni ta'lim muassasalari amaliyotiga tadbir qilish maqsadida alohida istiqbol dasturi ishlab chiqilib, Vazirlik hay'ati majlisida tasdiqlandi. Bu hujjatlarning maqsad va mohiyati barcha vositalar orqali ta'lim muassasalarida, ota-onalar, aholi o'rtasida keng tushuntirildi. Ta'limga oid me'yoriy hujjatlar: kontseptsiyalar, davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejalari va dasturlari, Nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlar yuqoridagi ikki Qonun moddalariga muvofiqlashtirildi. Respublikada uzluksiz ta'lim tizimi uzil-kesil shakllantirildi.

“Talim to’g’risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi Qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimiz salohiyatining beqiyos rivojlanishi, mustaqil Respublikamizning jahonga keng qamrov bilan chiqishi uchun ulkan omildir. Shu boisdan ham O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida hayotimizga samarali ta’sir etuvchi jabhalar qatorida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o’zgartirish vazifalari ham ustuvor soha sifatida ko’rib chiqilganligi bejiz emas.

Prezident Islom Karimov mazkur sessiyadagi nutqida bu masalaga favqulodda katta ahamiyat berib, ta’lim-tarbiya sohasidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil etar ekan, tizimda yangilikka intilish bo’lmasa, taraqqiyot ham bo’lmasligini ta’kidladi. Bugun zamon talabi, ertaga bajarilishi kerak bo’lgan dolzarb vazifalar xalq ta’limi tizimini tubdan isloh qilish zarurligini taqozo etayotganini ko’rsatdi. Ma’lumki, sohaning asosiy bo’g’ini uzluksiz ta’limdan iborat. Davlatimiz rahbari uzluksiz ta’limni tashkil etishda uning jahon talablari darajasida bo’lishi hamda u yuksak ma’naviyat zaminida qurishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta’kidlar ekan, davlat ta’lim standartlarini joriy etish va uning mexanizmini ishlab chiqish naqadar muximligiga e’tiborni qaratdi. Xo’sh, ta’limda davlat standarti nima? Ta’limni standartlashtirish insoniyatning ijtimoiy ongida ro’y bergan tub o’zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuvi maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo’layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisda aynan shu tarzda ro’y berganini anglashi va xis qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqgda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba’zan insonlar o’rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko’chaga kiritib qo’yishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy ahvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo’lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish ehtiyoji paydo bo’ddi. Bu holat ta’lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi.

Standart — ta’limda yaratilgan me’yoriy reja, dastur, darsliklarni o’zlashtirish ekvivalenti, ya’ni ta’lim mazmunini o’zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o’quvchini haddan tashqari zo’riqqirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya’ni u o’quvchi yoshiga mos, uni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo’lishi kerak. Bunda albatta, ta’lim oluvchining qiziqishi, xoxishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim. Ta’lim standartlarini o’zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o’quv jarayoniga tatbiq etishdan oldin o’ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o’tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o’quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo’yayotgan ekan, o’sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo’lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko’rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta’lim oluvchilar egallashi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka yoxud ma’naviy sifatlarining eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat —davlat ta’lim standarti hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yo o’sha ko’rsatkichlarni egallay olmagan bola, yoxud yoshlarda muayyan mikdordagi bilim, ko’nikma, malaka va ma’naviy sifatlarini shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo’lmaydi. Bundan ko’rinib turibdiki, davlat ta’lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqgda, ta’lim muassasalarida ko’zlangan ko’rsatkichlarni qo’lga kiritish uchun zarur bo’lgan sharoitni belgilash o’lchovi hamdir. Davlat ta’lim standartlarining ko’rsatkichlari amaldagi mavjud ta’lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan o’quvchiga singdirishi lozim bo’lgan sifatlarining jahon bo’yicha zarur deb hisoblangan mikdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta’lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta’kidlab ko’rsatish mumkin. Bunday standartlar umumiy o’rta o’rta ta’lim va o’rta maxsus ta’lim tizimida o’quvchilarga beriladigan ta’lim mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta’lim mazmunining majburiy minimumi o’quv dasturlari va darsliklarda to’liq o’z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko’ra o’quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning minimal miqdori belgilanadi,

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari boshlang'ich ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladi. 4-sinfni va 9-sinfni bitiruvchi har bir o'quvchi davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga erishgan bo'lishi shart.


Ta'lim standartlari joriy qilinsa, davlat buyurtmachi sifatida ta'lim muassalari oldiga vazifa qo'yadi. Mazkur muassasalar esa ana shu vazifalarni yaxshiroq uddalash uchun o'quvchilarga qaysi bosqichda qancha bilim, ko'nikma, malaka yoki ma'naviy sifatlar singdirish lozimligini aniq belgilab olgan holda ish ko'radi. Shu tariqa ta'lim-tarbiya jarayoni tavakkalchilikdan, ko'r-ko'rona faoliyat ko'rsatishdan qutuladi, ilmiy asoslangan me'yoriy talablar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga DTSni joriy etish talablari rivojlangan G'arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Ammo, shuni ham aytish kerakki, hali dunyodagi birorta jamiyatda ta'limni standartlashtirish keng ko'lamda amalga oshirilayotgani yo'q. Chunonchi, mazkur yumushga birinchi bo'lib qo'l urgan Frantsiyada bu ish hanuzgacha sinov darajasida, AQShda esa DTS yaratishga endigina kirishilmoqda. Yaponiya va Germaniya ta'lim muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejalashtirish bosqichida turibdi. O'zbekistonda ta'lim standartlari masalasiga davlat miqyosida yondashildi va uni ilmiy yo'sinda hal etishdan tashqari, ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqq izlanishlar olib borildi, tajriba-sinovlar amalga oshirildi.

Shuni aytish kerakki, davlat ta'lim standartlari atamasi XX asrning 70-yillarida tug'ilgan va endigina amalga oshirila boshlagan bo'lsada, aslida u bugun paydo bo'lgan yangilik emas. Negaki, ta'lim-tarbiya tushunchasi oddiga muayyan talablar qo'yila boshlagan zamonlardan buyon shunday me'yorlar mavjud. Faqat qadimda ular standart deb atalmagan. Lekin mohiyat e'tibori bilan har qanday jamiyat tarbiya muassasalari davlatga qarashli bo'lmagan zamonlarda ham o'z talablari tizimiga ega bo'lgan. Chunki ta'lim-tarbiya muassasasini bitiruvchisi muayyan jamiyatda yashashi, faoliyat ko'rsatishi lozim. Binobarin, u o'sha jamiyat talablari darajasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egayalashi shart hisoblangan.

Mamlakatimizda pedagogika lmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma'lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va asosan ta'lim-tarbiya muassasalarida shakllantiriladi. Shuning uchun ham, mustaqil davlatimiz va uning rahbariyati ana shu muassasalar faoliyati imkon qadar zamon talablari darajasida bo'lishiga e'tiborini qaratmoqda. DTS barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogika faoliyatidagi samaradorlikni nazorat qilish vositasidir. Hozir yaratilayotgan barcha didaktik vositalarning ana shu standartlarga muvofiq bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda.

Tarix standartlar tuzilishi va mazmuni



O'rta umumta'lim o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimlari uchun yaratilgan o'quv dasturlari tuzilishi, mazmuni.

O'rta umumta'lim o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan darsliklarimiz tili ravon, sodda, ixcham, o'quvchi hayoti, faoliyatiga yaqin matnlardan tashkil topgandagina, u bolalarning sevimli kitobi bo'ladi, o'quvchilar mustaqil holda o'rganishi mumkin bo'lgan «ikkinchi o'qituvchi» vazifasini bajaradi, to'la ma'nodagi bilim manbaiga aylanadi.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, didaktikaning semantik jihatlarini aniqlash kam o'rganilgan sohalarga kiradi. Hanuzgacha tushunish muammosi (mohiyati) olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi, didaktiklar semantik jihatdan murakkab matnlar va g'oyalarni bayon qilish usullari ustida kam bosh qotirmoqdalar. Ilmiy kontseptsiyalar murakkablashib, chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda semantik muammolar o'quv materiallarini bayon qilish, o'quvchilarni fan rivojining yangi davrini tashkil qiluvchi nazariyaga ertaroq olib kirish, ta'limda dalillar bilan nazariya munosabatlarini hal qilishga o'tish muhim ahamiyatga ega. Bu masala ham tezroq o'z yechimini topishi kerak.

Yana bir muammo ustida to'xtalishni lozim topdik. Gap shundaki, biz qo'pincha «ta'lim mazmuni» bilan «o'quv fani mazmuni» tushunchalarini bir xil deb qaraymiz. Aslida unday emas. Oldingi tushuncha kengroq, ya'ni o'quv fani mazmuni faqat shu fanga oid bilimlarni — tushuncha, hukm, xulosalarni o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmuni esa, bundan tashqari, ilmiy bilish metodlari, usullari va amallari, ya'ni o'quvchilarda mustaqil bilish malakalarini hosil qiluvchi metodologik bilimlarni (ta'rif, isbot, tahlil, sintez, induksiya, deduktsiya, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirish va boshqalarni) ham o'z ichiga oladi. Bu borada ham darsliklarimizda anchagina kamchiliklar mavjud.

O'quvchilarda bilim olishga intilish va bilim olishga ehtiyoj bo'lishi, o'qish maqsadlari ichki zaruratga aylanishi kerak. O'quvchi real hayotga kirib borishi, unda faol ishtirok etishi uchun bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga, ilmiy bilish metodlariga ega bo'lish kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim. Chunki, ochiq jamiyatning asosiy belgisi — bu dunyoni anglab yetish va unda o'zining munosib o'rnini topishi uchun erkin izlanishdir. O'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashgirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni, tafakkur va bog'lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik printsip — bu ta'limdagi faollikdir. Faollik mezonlari onglilik printsiplari bilan bevosita aloqador. Chunki faollik bor joyda onglilik bo'ladi.

Bunday tizimda o'quvchi ham, o'qituvchi ham talim-tarbiya jarayoniga birgalikda mas'uldirlar. Ular birgalikda har bir o'quvchining bilim va qobiliyatini, individual ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o'qituvchi faqat «baholovchi» emas, balki yangi bilimlar yetkazuvchi manbaga aylanadi.

Jahon pedagogik leksikoni qatoridan allaqachonlar «innovatsiya» tushunchasi keng o'rin olgan. Bu tushuncha «yangilik», «isloh» tushunchalarini anglatadi. Keng ma'noda qaraganda ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarish — bu pedagogik innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo'llanar edi, so'ngra ta'lim tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi. Pedagogik yangiliklarning texnologiya deb atalishi boisi ham shunda. Hozirgi davrga kelib pedagogik innovatika fani shakllandi. Pedagogik innovatika — pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi.

Bu ta'limot uch yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchisi, pedagogik neologiya (yunoncha «neo» — «yangi» va «logos» — «ta'lim», ya'ni yangilik haqidagi ta'limot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o'rganiladi, umumlashtiriladi.

Ta'lim vositalari o'quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o'ziga xosliklarini to'liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ammo uzoq yillar mobaynida biz ana shu haqiqatga amal qilmagan holda dastur, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishga majbur bo'ldik. Hozirda yaratilayotgan o'quv-myotodik vositalarda ayni shu jihatlar hisobga olinmoqda.

Lekin, ochiqdan olish kerakki, bu oson kechayotgani yo'q. Chunki pedagogikamiz o'nlab yillar mobaynida milliy iddizlardan juda yiroqda edi. Sho'ro zamonining o'sha eski qoliplaridan hamon to'la qutula olganimizcha yo'q. Biz bu haqida yuqorida batafsilroq to'xtalib o'tdik. Shuning uchun ham dastur va darsliklar yangicha fikrlay oladigan, milliy didaktikamiz xususiyatlarini biladigan kishilar tomonidan yaratilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Darslik yozishga talab me'yorlari ishlandi. Har qanday dastur va darslik bevosita vazirlik qoshida tashkil etilgan maxsus ekspert guruhi tomonidan ko'rib chiqilgavdan keyingana nashrga tavsiya etiladi. Har bir o'quv fanidan o'quv-metodik majmualar yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ya'ni muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim kontseptsiyasi, standarti, dasturi, darsligi, metodik qo'llanmasi to'liq yaratilishi lozim. Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o'ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to'liq xisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o'quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki, o'quvchini o'qitish kerak emas, uni o'zi o'qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o'zi izlanmas ekan, ta'limda yutuqqa erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli xarakterga ega bo'lishi, o'quvchilarni o'ylanishga, izlanishga, sinab ko'rishga da'vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.

Ko'pchilikka ma'lumki, Prezident Islom Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XIV sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» mavzusidagi ma'ruzasida ta'limda davlat standartlarini sinovdan o'tkazish va joriy etish bo'yicha mutasaddilar oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan edi:

«Yangi o'quv yili boshlangunga qadar mazkur tajriba qanday o'tayotganligini va uning dastlabki natijalarini nuqur tahlil etib, ta'lim andazalari, o'quv rejalari va dasturlari mazmuniga islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, ya'ni yosh avlodni kamol toptirishga qaratilgan tuzatishlar kiritish zarur».

Xo'sh, respublikamizda Prezidentimizning topshirig'ini bajarish bo'yicha nima ishlar qilindi, nimalarga erishildi, ta'limiy standartlashtirishni ommaviy joriy etish uchun yana nimalarga e'tibor berish kerak? Endi mana shu masalalarni bayon etishga kirishamiz.

Davlat ta'lim standartlarini qo'llash o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaganidek, uni yaratish ham tasodifiy bir hol emas.

Vazirlik, ta'limda islohotlarni amalga oshirish boshlangan dastlabki yillardanoq ta'lim dasturlarini yangi maqsadlar yo'lida qayta yaratish, ta'lim kontseptsiyalarini, standartlarini ishlab chiqish va joriy etashga, ularni tajriba-sinovdan o'tkazish, ta'lim standartlari asosida faoliyat ko'rsatadigan makgablar soni kengaytirib borish yo'lidan bordi, xorijiy davlatlarning bu sohadagi tajribalarini o'rganish, ularni xalqimizning etnik xususiyatlari, milliy shart-sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etish masalasiga alohida ahamiyat berdi. O'rta talim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning asosiy vazifasi – o'quvchilarga tarix fanidan puxta bilim berish, shu bilimlarni amaliyotda qo'llanish ko'nikmalari va mahoratni hosil qilishdan iboratdir. Tarixni o'rgatish yoshlarni miliy g'oyani singdirish va ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, hozirgi zamon taraqqiyotining asosiy tendentsiyalari va ziddiyatlari mohiyatini to'g'ri tushunishga tayyorlashning muhim vositasidir.

Tarix kursining ta'limiy vazifalari:

O'quvchilar tarixiy jarayonni va tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlaridagi ijtimoiy hayotning turli tomonlarini xarakterlab beruvchi muhim tarixiy faktlarni puxta o'zlashtirib olgan bo'lishlari zarur.

Tarixiy faktlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilar tarixdagi asosiy voqealarni, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hamda ularning rivojlanib borishini aks ettiruvchi aniq tarixiy tasavvurlar sistemasini hosil qilishlari lozim.

O'quvchilar tarix kursidagi muhim tarixiy tushunchalarni puxta o'zlashtirishi, jamiyatning ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini mukammal tushunib yetishi, tarixni o'z yoshiga qarab ilmiy asosda tushunishi lozim.


O'quvchilar tarix kursidan olgan bilim va malakalarini yangi tarixiy materiallarni o'rganishda, o'tmish va hozirgi zamon voqealarini tushunishda, kundalik ijtimoiy ishlarda, hayotda qo'llana bilishlari lozim.

O'quvchilar tarixiy material bilan, har xil matnlar (darslik, tarixiy hujjatlar, ilmiy-ommabop adabiyot, siyosiy risolalar, gazeta va jurnallar), xarita va illyustratsiyalar bilan ishlay bilishi, reja tuza bilishi, ma'ruzani yoza bilishi, tarixiy materialni sistemali va asosli ravishda bayon qila bilishi ayrim tarixiy mavzularda axborot bera olishi, dokladlar qila olishi lozim.

Tarixiy faktlarni o'zlashtirish ta'lim-tarbiya jihatidan har qancha muhim bo'lsa ham, faktlarni bilishning o'zi o'quvchilarning tarixni bilish jarayonidagi birinchi bosqichdir.

Tarixni o'rganib, bilib olishning ancha yuqoriroq bosqichi tarixiy faktlar o'rtasidagi muhim bog'lanish va munosabatlarni bilib olish, ularni amalda tadbiq eta olishdan iboratdir.

Tarix fanlarining davriy bo'linishi



Asosiy tushunchalar:

Davlat ta'lim standarti - uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

Tarix bo'yicha standartlar strukturasi va mazmuni - kirish, majburiy minimum, tayanch komponent, tayyorgarlikka talablar

«Innovatsiya» - «yangilik», «isloh» ya'ni ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarish

Pedagogik innovatika - pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Ta'lim davlat standarti nima, uning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. O'rta ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalari.
3. O'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalari.
4. O'rta talim tizimi va o'rta maxsus talim tizimi strukturasi.
5. Tarix o'qitish jarayonini o'rganish yo'llarini aniqlang.

Mavzu: Tarix darslarida tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish.**REJA:**

1. O'quvchilarda tarixiy tassavurni hosil qilishning asosiy usullari.
2. Tarix o'qitish jarayonidagi tarixiy tushunchalar.
3. Tarixiy tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari.
4. O'quvchilar ongiga tarixiy qonuniyatlarni singdirish.

Tayanch tushunchalar:

Voqea – hodisa, tasavvur, tushunchalar, qonuniyatlar, ijtimoiy xayot, bahs, munozara, tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy rivojlanish tushunchalarini hosil qilish.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XX1asrga intilmoqda T. O'zbekiston 1999 yil.
2. I.A.Karimov Hushyorlikka da'vat. O'zAA muxbirining savollariga berilgan javoblar «Ma'rifat gazetasi», 1999 yil, 24 iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari. 1 – 5 tomlar
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisida so'zlagan nutqlari.
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi T 1999y. 2-maxsus son
6. "Ma'rifat" gazetasi, 1995 yil 11 oktabr.
7. Eng yangi tarix. "O'qituvchi"1990 y 10 sinf uchun.

Tarix o'qitish tarixiy dalillar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan, o'quvchilarda hodisalar, tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil bo'ladi. Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko'pchilik hollarda bir – biriga o'xshab ketadi.

Tarix o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxshi manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan har bir tarixiy dalil, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo'lishi lozim. Obrazlilik o'quvchilarni tarixdan oladigan bilimlarini

ilmiy puxta bo'lishini zarur sharoitlaridan biri tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish tarixga qiziqish uygotish hamda tarixiy dalillarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir. Tarixiy dalillarni tahlil qilishga bir namuna keltiramiz:

Maktablarda tarix kurslarida o'quvchilar ko'z oldida eng qadimgi zamonlardan tortib to hozirgi kunlarga bo'lgan jamiyat taraqqiyoti izchillik bilan ochib beriladi.

O'quvchilar aniq tarixiy dalil va hodisalarni tekshirish va umumlashtirish asosida rivojlanishning qaror topishi to'g'ri sidagi ilmiy tushuncha bilan qurollanadilar.

«Jahon tarixi»ning qadimgi davrlarini va «O'zbekiston tarixi»ning qadimgi davrlarini o'qitish jarayonida ibtidoiy odamlar mehnatining takomillashib borishi, mehnat ular hayotini qanday o'zgarishlarga olib kelganligini o'quvchilar ongiga singdirib boriladi.

Taraqqiyotning tarixiy jarayoni tushuntirilar ekan, ular tasavvurida ibtidoiy odamlar hayoti to'g'risida ko'rsatmali quolsiz tushuncha hosil bo'lmaydi. Insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy davrini faqat ushbu davr yodgorliklarini ko'rsatish yoki rangli rasmlardan foydalanish orqali tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada O'zbekiston tarixi muzeyi yoki boshqa shahar va tuman o'lkashunoslik muzeylariga ekskursiya uyushtirish, o'quvchilarning haqiqatni aniq va to'liq to'g'ri fikrlashlarini ta'minlaydi. Ekskursivod Teshiktosh g'oridan, Oqtosh, Xo'jakent, Quyi Bo'zsuv manzilgohlaridan topilgan qadimgi tosh davriga oid tosh qurollari bilan tanishtiradi. Bu vaqtda yashagan odamlar ovchilik, meva yig'ish, yemishbob ildizlar topish bilan xayot kechirganlarini so'zlab «ov», «termachilik» rasmlarini ko'rsatadi. Shundan so'ng o'quvchilar diqqati Teshiktosh va Oqtosh g'orlarining kesma suratlariga jalb qilinadi, so'ngra eramizdan avvalgi XII – VII ming yillarga oid o'rta asr materiallariga e'tibor qaratiladi. Bu paytda odam o'q – yoy yasashni bilib, birinchi uy hayvoni – itlarni o'ziga orgatadi.

Muzeyda akademik Ya.G'.G'ulomov rahbarligida Buxoro viloyati hududida qazish ishlari olib borilishi natijasida Darbozakir tolit manzilgohida topilgan ko'p miqdordagi mehnat qurollari qo'yilgan. Qamish va yog'ochdan qurilgan bu manzilgoh 30 – 35 kishiga panoh bo'lgan. Shuningdek akademiklar: S.T.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov ekspeditsiyalari qazish ishlari olib borilgan Jonbosqal'a manzilgohining chayla maketi berilgan. Arxeologlarning ma'lumotiga ko'ra bu chaylada 120 – 150 kishidan iborat jamoa yashagan. O'quvchilarga chaylaning maketi ko'rsatilib, uning o'rtasida muqaddas hisoblangan gulxan yonib to'rganini atrofida ovqat pishiriladigan o'choqlar joylashganini so'zlab qazishmadan chiqqan parranda, baliq, hayvon suyaklari qoldiqlari, loydan yasalgan idish parchalari ko'rsatiladi.

Keyingi yangi davr – Bronza asri. Insoniyat tarixida yangi davr ochilganligining, ya'ni patriarxat (otalik urug'i) davri hamda xo'jalikda, oilada, ijtimoiy munosabatlarda erkaklar hukmronligining o'rnatilganini ko'rsatuvchi materiallar, odamlarning mehnat qurollari, tosh boltalari, o'g'ir dastalari, bronza chaqmoqlari bilan tanishtiradilar.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'quvchilar tarix muzeyida o'z ko'zlari bilan ko'rgan qadimgi odamlar hayoti va ularning ish qurollarini bir umrga eslarida saqlab qoladilar. Muzeydan qaytgach o'qituvchi, o'quvchilarga «mehnat qurollarining takomillashuvida inson hayotining o'zgarib borishi» yoki «Mehnat insonni yaratadi», «Kishilar o'rtasida tengsizlik qanday vujudga keldi?», «Odamlar hayotining takomillashuvida tabiatning o'rni» kabi mavzularda referat yozib kelishlarini topshiradi.

Tarixiy tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini o'quvchilar faol suratda idrok etishga qaratilgan usullardan foydalaniladi. O'qituvchi hikoyasining mazmunan ko'rgazmali va obrazli bo'lishi darslik matnidagi tarixiy hujjatlardagi voqea va tasviriy rasmlar, badiiy adabiyot asarlari o'quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi materialni bayon qilayotganda tarixiy hujjatlardan, ilmiy – ommabop va badiiy adabiyotlardan olingan yorqin tafsilotlarga hamda o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarga suyangan holda ish tutadi. O'quvchilarning tarixga qiziqishining ortishi o'quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi

bayonining jonli va emosional bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi, O'qituvchi o'quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim.

O'qituvchi ko'rgazmali qurolni shunday ko'rsatib, uning mazmunini tushuntirib, hujjatlarni o'qib qo'ya qolmay, balki hikoyadagi eng muhim joylarini alohida ohang bilan ta'kidlashi, ko'rgazmali qurollarni, matnlarni o'quvchilarning faol ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi, o'rganilgan hujjatlardagi, u yoki bu hujjatlarga ular diqqatini jalb qilishi lozim.

Tarix bo'yicha har bir sinf dasturi oxirida asosiy tushunchalar mazmuni belgilab beriladi. Bu tushunchalar kursning ilmiy mazmunini, g'oyaviy – nazariy asoslarini aniqlash va tarixiy materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ish usullarini belgilab olishga yordam beradi. Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda, o'quvchilarning tarixiy dalillarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilardan ajrata bilish, guruhlariga bo'la olishni, tarixiy voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni chuqur anglab tushunib olish ko'zda tutadi. Ana shu taxlitda shakllangan mukammal tarixiy tushunchalar ilmiy bilimlar tizimining vujudga kelishida bamisoli zanjir vazifasini o'taydi,

O'quvchilarning tarixiy tushunchalarini shakllanib borishi ustidan rahbarligini samarali bo'lishi uchun tushunchalarni tasniflashni yaxshi bilish kerak. Darsda o'rgatiladigan materialning mazmuniga qarab tushunchalar bir-biridan farq qiladi va ular quyidagi turlarga bo'linadi:

Iqtisodiy tushunchalar: Turli davrlardagi mehnat qurollari va xo'jalik hayoti, iqtisodiy jarayonlar.

Ijtimoiy – siyosiy tushunchalar: Davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va siyosiy tuzumi (imperiya, respublika, burjua davlati va uning sinfiy xarakteri, burjua demokratiyasi va boshqalarga doir. Jamiyatdagi sinfiy kurashning ahvoli va uning rivojlanib borishini ifodalovchi tushunchalar (dehqonlar, urushlar, xalq harakatlari, qo'zg'olonlar, ish tashlashlari va h.k.)

Tarixiy – madaniy tushunchalar: Uyg'onish davrining insonparvar madaniyati, moddiy va ma'naviy madaniyati va boshqalar. G'oyaviy (din, utopik sotsializm, fashizm, burjua g'oyasi) tushunchalari.

Metodik adabiyotlar umumlashganlik darajasiga qarab quyidagi uch guruhga: xususiy, tarixiy, umumtarixiy va sotsiologik tushunchalarga ham bo'linadi.

Tarix o'qitish jarayonida tarixiy tasavvurlar bilan tushunchalarni shakllantirish uzviy bog'langan bo'lib, bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tarixiy tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini rag'batlantirish va unga rahbarlik qilish muhim o'rin tutadi.

Tarix bu nafaqat o'tmish, balki bugungi kun hamdir. O'tmishni yaxshi bilganimizdagina, biz hozirni yaxshi tushunamiz, anglaymiz, kelajakni yaxshi tasavvur etamiz.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan har qanday voqea va hodisalar maktab tarix xonasini, o'quvchilarni chetlab o'tolmaydi. Masalan, tarixchilar tomonidan o'tkaziladigan tarixiy anjumanlar, yirik davlat arboblarning uchrashuvlari, yangi arxeologik qazilmalar, ularning natijalari va hokazolar. Shu tariqa o'quvchilar muammodan chetda qolmaydilar. Bunday tarixiy hayotiy muloqot bolalarda dunyodagi barcha yangiliklardan ogoh bo'lish istagini yuzaga chiqaradi.

Zamonaviy xayot kattalar va bolalarda ko'plab murakkab savollarni keltirib chiqarmokda. Odatda o'qituvchi hamma narsani biladi. O'quvchi esa aksincha deb hisoblanadi, Bu axir to'g'ri emas. Agar bola o'qituvchining safdoshi bo'lmasa tarbiyachining butun urinishlari behuda ketadi. Mana shuning uchun ta'limni o'quvchilarga savol berishga o'rgatishdan boshlagan ma'qul.

Savollar haqiqatdan ham murakkab bo'lishi mumkin, lekin ularning zamirida haqiqatni bilish yotadi. Bunga esa bahssiz, munozarasiz erishib bo'lmaydi. Munozarasiz hayot harakatsiz jismdir, haqiqiy bahs – pedagogik jarayonning oliy ko'rsatgichi, ammo bahslashishni bilish lozim. Bahs madaniyatini egallash lozim, buni davr taqozo etmoqda.

Albatta buni tushuntirish uchun o'quvchilarga nasihat qilib turishga to'g'ri keladi. Mana ulardan ayrimlari: Bahsda sizning fikringiz olqishlar bilan emas, balki qarama-qarshi fikrlar bilan kutib olinishiga tayyor bo'ling. Bunday munosabatni axmoqlik, sizga bo'lgan dushmanlik – kayfiyati deb tushunmang. Fikringizni isbotlash uchun dalillar tayyorlang. Bahslashishdan huzurlanish uchun bahslashmang.

Agar sizni bahsda yengishgan bo'lsa, ammo siz uning fikri haqida o'ylashni davom ettiraversangiz bu mag'lubiyatdan so'ng tantana qilishingizdan dalolatdir.

O'zingizda nutq so'zlash madaniyatini tarkib toptiring. Yumshoq uslubda gapirgan, tutganini kesmaydigan, tajovuzkorlikdan uzoqda yuruvchi kishi g'alaba qozonadi. Yuzaki qaraganda o'qituvchi hamma narsaga chidashi kerakka o'xshaydi. Lekin bu chidam befarqlikdan uzoq bo'lishi lozim. O'qituvchi bahsni yuritar ekan, o'quvchidan to'g'ri javob olishga ko'maklashadi. Uning vazifasi o'quvchilar bahsiga mo'tadillik baxsh etish, turli fikrdagi o'quvchilarni birlashtirishdan iborat.

O'qituvchi rahbarligida o'quvchilar hodisani fikran bir necha qismga bo'lib, uning muhim belgilarini ajratib olib, muhim bo'lgan belgilardan ayiradilar hamda bir turdagi hodisalarning eng muhim belgilarini umumlashtiradilar. O'quvchilarda tarixiy tushunchalar hosil bo'lishiga olib keladigan bu mantiqiy faoliyat, ko'pincha tarixni o'qitish davomida tarixiy tasavvurlar hosil qilish uchun xizmat qiladigan yangi materialni idrok etish bilan qo'shilib ketadi. O'qituvchi rasmni yoki darslikdagi suratlarni tahlil etib, ularning mazmunini tahlil qilganda o'quvchilarda o'rganiladigan hodisalarning muhim belgilarini aks ettiruvchi yorqinlik, tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan ish olib borish bilan birga, hodisalarning o'sha belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ishlarni ham olib boradi. Lekin tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ish o'quvchilar tomonidan hatto ilgariroq o'zlashtirilib olingan material asosida olib borilayotgan taqdirda ham bu ish o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarni oydinlashtirish va boyitishga imkon beradi, o'sha tasavvurlarni dolzarblashtirib, hodisalar bilan birinchi bor tanishgan paytda ularning payqalmay qolgan yoki ajratib olinmagan belgilarini ko'ra bilishga va ajratib olishga yordam beradi.

Hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlar qanchalik ko'proq har tomonlama ochib berilib, ularning ma'nosi qanchalik chuqurroq tushunib yetilgan sari, umuman tarix bilimlari shunchalik yuqoriroq darajada tizimlashib har bir hodisaning tarixiy jarayondagi o'рни va roli shunchalik aniqroq anglab olina boradi.

Tarix o'qitishda tushunchalarning usul va vositalari xilma-xil bo'lib, avvalo u tushunchalarning mazmuni murakkabligiga bog'liq, masalan: *moddiy buyumlar (omoch, kema)* to'g'risidagi tushunchalar hosil qilish uchun bir yoki bir necha soat dars kifoya qilsa, *ijtimoiy tushunchalar (ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari, sinfiy kurash g'oyalari va boshqalar)* o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda barcha tarix kurslarini o'rganish davomida o'zlashtirilgan. O'quvchilardagi u tushunchalarning chuqur va mustahkam bo'lishi, asosan o'qituvchining o'quvchilar fikrlash qobiliyatini, qanchalik uyg'ota olishi va unga qay darajada rahbarlik qila olishiga bog'liq.

Tarixiy tushunchalar hosil qilishda o'quvchilarning voqea va hodisalarni, analiz, sintez qila olish qobiliyatini o'z ichiga olgan fikrlash faoliyatida ta'limning faol metodlari, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish, o'quvchilarning ko'rsatmali qurollari, ta'limning texnika vositalari, tarixiy hujjatlar bilan ishlashlarini uyushtirish, ularga tarixni chuqur o'rganish bilan bog'liq bo'lgan turli amaliy xarakterdagi ishlarni tanishtirish alohida ahamiyatga ega. Bir turdagi voqea va hodisalar, tarixiy jarayonlar hamda sabab, oqibat bog'lanishlar mazmunini taqqoslab o'rganish, jamiyat taraqqiyotining ayrim ba'zi bir umumiy qonuniyatlarini tushunib olish imkonini beradi. O'qituvchi voqea va hodisalarning sabab va oqibatlari o'rtasidagi aloqa hamda bog'lanishlarni, ko'pincha dastlab bir mamlakat tarixini o'rganish vaqtida ochib beradi. Boshqa mamlakat tarixini o'rganish paytida ilgari o'rganilgan hodisalarga duch kelgan paytda o'qituvchi o'quvchilarga bir – biri bilan o'xshash sabab natijali bog'lanishlar to'g'risidagi bilim va malakalarni o'rganilayotgan hodisalarni izohlab berishga, deduktiv suratda, tadbiiq etishlarga, umumiyliklarni anglab olishlariga yordam beradi. Turli mamlakatlar

tarixiy taraqqiyotidagi bir xil sabab va natijalarni muntazam suratda taqqoslab berish o'quvchilarni hodisalar o'rtasidagi ushbu bog'lanishlar tasodifiy bo'lmay barqaror va zaruriy qonuniyat ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keladi.

Tarixiy rivojlanishning qonuniyatlarini chuqur o'rganishda taqqoslashining ahamiyati kattadir. Masalan: O'qituvchi 6 – sinfda “Jahon tarixi”ning oxirgi bo'limlarida «Qadimgi Hindiston» yoki «Qadimgi Xitoy» mavzularini o'tayotganda, o'quvchilarga Qadimgi Hindiston yoki Qadimgi Xitoy davlatining paydo bo'lishining xuddi shu haqidagi bilimlar bilan, ya'ni boshqa qadimgi davlatlar(Qadimgi Misr, Qadimgi Bobil, Qadimgi Rim va h.k.)ning paydo bo'lishi tarixi bilan taqqoslab o'rganishni tavsiya qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish uzoq muddatli jarayon bo'lib, u o'quvchilarda umumiy va zaruriy bilimlar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ishlarini muhim tarkibiy qismidir.

Mavzu: Tarix o'qitishning tashkiliy shakllari. Dars, uning turlari va tuzilishi

- 1. Dars o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli.**
- 2. Zamonaviy tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar.**
- 3. Tarix darslari mavzularining uzviyligi va didaktik jihozlanishi.**
- 4. Dars turlari.**

Tayanch iboralar.

Tarix fani va uning oldiga qo'yiladigan ta'lim – tarbiyaviy talablar, zamonaviy tarix darslari, zamonaviy talablar.

Tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining tutgan o'rni, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari, har bir bo'lim va bo'limdagi mavzular, hatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan aniq belgilab olingandan keyingina tarix o'qitishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchining har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini oldindan aniq va to'g'ri belgilab ola bilishiga bog'liqdir. Bu ham, o'z navbatida, o'qituvchining darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri belgilash metodi va usullari haqidagi nazariy bilim va malakalarining darajasiga bog'liqdir.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini, shuningdek, uning boshqa darslar sistemasida to'tgan o'rnini aniq belgilash va shu vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Lekin har qanday tarbiyaviy vazifani ham, bir yoki bir necha darsda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ayrim tadbirlar vositasida batamom mukammal hal qilib bo'lmaydi.

Har bir tarix darsida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan g'oyaviy va tarbiyaviy vazifalarning qandaydir bir elementi amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'qituvchi har bir tarix darsiga tayyorlanishda bu dars oldin o'tilgan darslarning davomi, bu darsda hal qilinishi kerak bo'lgan ta'lim-tarbiya vazifalari esa oldingi yoki kelgusi darslarda bajariladigan ta'lim va tarbiya vazifalarining ajralmas bir tarkibiy qismi ekanligini unutmasligi kerak.

Ilmiy dunyoqarashniig asosini tashkil etuvchi muhim tushunchalarni o'quvchilar asta-sekinlik bilan, bir qancha darslar davomida o'zlashtirib boradi, yangi tushunchalar keyingi dars

materiallari asosida konkretlashib, yangi mazmun bilan boyiydi. Keyingi dars o'quvchilarning avvalgi darslarda olgan bilimi, orttirgan malakalarini kengaytiradi, ularda yangi tushunchalar hosil qiladi. O'quvchilar tarixiy protsesslarni keng va chuqurroq tushunadigan bo'lib boradi.

O'qituvchi har bir navbatdagi darsni rejalashtirar ekan, butun tarix kursining bir qismi bo'lgan bu darsda ta'lim va tarbiya vazifalarining qaysi bo'lagi yoki elementi qay darajada, qanday materiallar asosida va qaysi tomonini hal qilishi, o'quvchilarni qanday umumiy xulosalarga olib kelishi, qanday tarixiy tushunchalarni aniqlashi yoki kengaytirishi, qanday yangi g'oyalar tushuntirilishi, ularni qay tarzda tanishtirishi kerakligini puxta o'ylab olishi zarur.

O'qituvchi butun tarix kursining ta'lim-tarbiya vazifalarini ayrim temalarning ta'lim-tarbiya vazifalari bilan bog'lab rejalashtirmog'i kerak. Temalar bo'yicha rejalashtirish temalarni o'qitishning metodik sistemasini ishlab chiqishga yordam beradi. Temalar bo'yicha rejalashtirganda har bir temaning butun tarix kursida tutgan o'rni va roli aniqlab olinadi.

Har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalari o'z-o'zidan emas, balki o'qituvchining ongli va planli ishi asosidagina muvaffaqiyatli amalga oshiriluvchi mumkin. Uqituvchi darsga tayyorlanayotganda o'quv programmasining hajmi va mazmunini hisobga olib material tanlaydi, programma va darslik asosida dars planini to'zadi, materialni joylashtiradi va uni bayon qilishda hujjat va boshqa ko'rsatmali qurollardan foydalanish metodlarini belgilaydi.

Ammo, bu ishlar o'qituvchi darsning asosiy g'oyasini, undan ko'zlanayotgan ta'lim-tarbiya vazifalarini, darsda nimaga erishish, o'quvchilarda qanday tasavvur va tushuncha xosil qilish kerakligini aniq va to'g'ri hal qilgan taqdirdagina o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin. Darsning bosh g'oyasi va uning tarbiyaviy vazifalari to'g'ri va aniq belgilanmay o'tkazil-gan dars programmada ko'rsatilgan faktlarni tasodifan, shunchaki sanab o'tishdan iborat bo'lib qoladi.

Material tanlash va uni izchillik bilan joylashtirish, darsda qo'llaniladigan butun didaktik usullar va metodik vosita-larning hammasi darsning bosh g'oyasiga, uning ta'lim va tarbiya vazifalarini hal etish maqsadiga bo'ysundirilishi kerak. Shuning uchun ham har bir darsning bosh g'oyasi va uning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniqlash o'qituvchining darsga tayyorlanishida eng muxim bosqichni tashkil qiladi.

Tarix darsiga tayyorlanishning bu muhim bosqichi eng mas'u-liyatli bo'lishi bilan birga, ishning eng qiyin tomoni hamdir.

Tarix darslarining bosh g'oyasini, uning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilash, ayniqsa, yosh, tajribasiz o'qituvchilar uchun qiyin ko'chadi. Ular ko'pincha darsning ta'limiy vazifalari bilan tarbiyaviy vazifalarini aniq ajrata olmay, ularning birini ikkinchisi bilan aralashtirib yuboradilar yoki konkret dars materialini, uning mazmunini xisobga olmay, tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda belgilash bilan cheklanib qo'ya qoladilar. Bunday o'qituvchilardan ko'pincha, - shu darsingizda qanday muhim tarbiyaviy vazifalarni hal qilishingiz kerak edi, - degan savolga,- o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashni ko'zda tutdim,— degan mazmundagi umumiy javob olinadi.

VI—VIII sinflarda turli mamlakatlarda davlatlarning tashkil topishiga doir temalar o'tiladi. Jamiyatning ob'ektiv rivojlanishi asosida davlatning tashkil topishidagi bu umumiy qonuniyatlar hamma xalqlarga ham xosdir. Ammo davlatning tashkil topishidagi umumiy qonuniyatlar bilan birga, har bir xalqning o'z sharoitlaridan kelib chiqadi-gan alstsida o'ziga xos xususiyatlari ham bo'ladi. Shuning uchun ham qator mamlakatlarda davlatning tashkil topishi bilan bog'liq mavzularni o'tayotganda, davlatning tashkil topishidagi umumiy qonuniyatlarnigina emas, balki har bir xalq tarixidagi o'ziga xos xususiyatlarni ham ko'rsatib berish talab etiladi.

Tekshirib ko'rilganda, mavzularning g'oyaviy mazmuni va ta'lim-tarbiya vazifalarini ochib berishga o'zlashtirilgan bu talabalarning ko'pchiligi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarixdan dars beruvchi o'qituvchilar ekanligi aniqlandi. Ayni vaqtda ularga tarix o'qitish metodikasining nazariy qismi ham o'tilgan edi.

Ko'p yillik pedagogik amaliyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar uchun darslarning maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilash eng muhim, mas'u-liyatli ish bo'lish bilan birga, chuqur bilim, malaka va mahoratni talab qiladigan juda murakkab ishdir. Binobarin, yuqori

malakali tarix o'qituvchilarini tayyorlashda bu muhim masalaga alohida e'tibor berish talab qilinadi.

Endi mazkur uchala mavzuni o'qitishdan kuzatilgan maqsadlar va ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni, ular mazmunidagi umumiyliklar bilan o'ziga xosliklarni tekshirib ko'raylik.

«Misrda davlatning tashkil topishi»,— mavzuning tarbiyaviy vazifalari quyidagilarni tahlil qilish va umumlashtirish asosidagina to'g'ri va aniq belgilanishi mumkin:

1) qullar, dehqonlar va hunarmandlarning manfaatlari quldorlar manfaatlari bilan qarama-qarshi bo'lib, ular bir-biri bilan chiqisha olmaydi;

2) majbur qiluvchi tashkilotlar — qurolli jangchilar, sud, zindon va shu kabilardan iborat davlat bo'lmasa, ozchilikni tashkil qilgan quldorlar ko'pchilikni tashkil etuvchi qullar, dehqonlar va hunarmandlarni o'z qo'l ostida tutib turolmaydi;

3) eramizdan avvalgi 4000-yillarda Qadimgi Misr jamiyati bir-biriga qarama-qarshi sinflarga, ya'ni qullar va quldorlarga bo'linishi bilan avvalo bir qancha davlatlar tashkil topganini, shundan ming yil o'tgach, eramizdan avvalgi 3000-yillarda esa, poytaxti Memfis shahri bo'lgan bitta yagona quldorlik davlati barpo bo'lganini, o'z qo'shini, qo'riqchilari, sud va zindonlariga ega bo'lgan mana shu davlat qullar va dehqonlar qarshiligini bostirib, quldorlar manfaatiga xizmat qilganini, bu quldorlik davlati forma jihatidan despotik monarxiyadan iborat bo'lganini ko'rsatib berish bu darsning maqsadini tashkil qiladi.

«Sparta davlatining tashkil topishi» degan mavzuning maqsadini belgilashda quyidagi hollar nazarda tutiladi:

1) eramizdan avvalgi birinchi asrning birinchi yarmida Peloponesning janubi-sharqidagi Lakonikada Sparta davlati tashkil topadi;

2) eramizdan avvalgi birinchi asrning oxirlarida Lakonikani shimoliy yarim oroldan kelgan spartaliklar bosib oldi, keyin Lakonikaning mahalliy aholisi — ilotlar qullarga aylantiriladi, spartaliklarning o'zlari esa quldorlarga aylanadi;

3) quldorlar (spartalilar) qullar (ilotlar) ustidan hukmronligini saqlash uchun davlat barpo qiladi, qo'shin, sud, turma va shu kabi boshqa majbur etuvchi tashkilotlarni to'zadi.

Shunday qilib, bu mavzuning asosiy maqsadi Shimoliy yarim oroldan kelgan Doriy qabilalari Lakonikani bosib olib, mahalliy axolini qullarga aylantirish asosida tashkil topgan Sparta davlati — quldorlik davlati ekanini, shu davlat vositasida quldorlar (spartaliklar) qullar (ilotlar) ustidan hukmronligini ta'minlab turganini ko'rsatib berishdir.

Tarix darslarining g'oyaviy mazmunini, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini belgilashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Avvalo shuni aytish kerakki, tarix darslarining g'oyaviy mazmuni, ta'lim-tarbiya vazifalari tarix programmasida berilgan material mazmuniga qarab belgilanadi.

O'qituvchi darsda tarixiy voqealar va ayrim faktlarni bayon qilar ekan o'quvchilar uchun ularni bilishning qanday ahamiyati borligini jiddiy o'ylab ko'rishi, eng muxim va xarakterli tarixiy faktlarni ayniqsa kengroq qilib gapirib va tahlil; qilib berishi, voqealarning mohiyati, uning qonuniyatlari va tarixiy ahamiyatini ochib ko'rsatishi lozim.

Tarix darslarining asosiy mazmunini tashkil etuvchi tarixiy voqeaning mohiyatini, uni keltirib chiqargan sabablarini, uning qonuniyatlari, ahamiyati va natijalarini chuqur o'rganish asosidagina darsning g'oyaviy mazmunini, ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri va aniq belgilash mumkin.

O'qituvchi tarix darsining mazmuni, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini belgilashda tarixiy asarlari va davlat hujjatlariga asoslanib ish ko'rishi kerak. Davlatining hujjatlari tarix o'qitishning nazariy va metodologik asosini tashkil etadi.

Asarlar yuqoridagi namunalarda keltirilganidek, ba'zi mavzularnigina emas, balki butun tarix kursining mazmuni, ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashda o'qituvchi uchun asosiy metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, darsda ulardan foydalanish o'qitishning g'oyaviy, ilmiy-nazariy saviyasini oshirishga yordam beradi. Mavzuni zamonaga bog'lab o'rganish uning mazmunini chuqurroq anglab olishga yordam beradi, mavzuni o'rganishga ko'proq qiziqtiradi, uni aktuallashtiradi, darsning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Tarixni hozirgi zamon bilan bog'lash uchun avvalo, butun kishilik jamiyati tarixini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va almashinib turishi muqarrar ekanligi haqidagi bayon qilib. Tarix darslarining g'oyaviy mazmuni ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashda tarix o'quv dasturining uqtirish xati ham katta ahamiyatga egadir. Bu xatda tarix kursining ta'lim-tarbiyadagi roli, vazifalari va mazmuni aniq ko'rsatib berilgan. Shuning uchun ham har bir darsga tayyorlanishda DTS va o'quv dasturining uqtirish xatidagi ko'rsatmalar nazarda tutiladi.

Tarixdan metodik qo'llanmalar hamda maxsus metodik adabiyotlar ham katta rol o'ynaydi. O'qituvchi tarix darslarining ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashda albatta ulardan foydalanishi kerak.

To'g'ri, tarixning hamma bo'limlari bo'yicha ham darslarning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishga yordam beruvchi ko'rsatmani topish qiyin. Shuning uchun bu sohada har bir o'qituvchi shaxsan o'z tajribasi, ijodiga tayanishi kerak bo'ladi.

Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish, uning ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri va aniq belgilab uyg'unlashtirib olib borishning o'zi kifoya qilmaydi. Muhitning metodik vosita darsda ta'lim-tarbiyani uyg'unlashtirib borishga yordam beradigan metod va vositalardan to'g'ri, o'rinli foydalana bilishdir.

Tarix o'qitishda ta'lim bilan tarbiyani uyg'unlashtirib borishga yordam beradigan metod va vositalar nimalardan iborat?

Tarix bilimlarining tarbiyaviy ta'siri shu bilimlarning qay daraja tarixiy faktlarga asoslanganligi va ularni darsda ishonchli hamda emotsional tarzda ochib berilishiga bog'liqdir. O'quvchilar tarixiy faktlarning to'g'riligini tushunib borishlari va faktlar asosida chiqarilgan xulosalar ular uchun ishonchli bo'lmog'i lozim. Shuningdek, o'quvchilar bayon etilgan faktlarning shu jihatdan to'g'riligiga komil ishonch hosil qilishlari ham zarur.

Tarix o'qitishning muhim vazifasi — tarixiy hodisalarga berilgan ilmiy baholarni va o'rganilayotgan material yuzasidan chiqarilgan boshqa xulosalarni o'quvchilarga ishonarli qilib tushuntirib berishdan iboratdir. Ma'nosini yaxshi tushunmasdan yodlab olingan xulosalar o'quvchilar uchun ishonarli bo'lmaydi, tafaqur bilan, emotsional kechinmalari natijasida, tushunib, bi-lib olingan xulosalar ishonarli bo'ladi.

Tarix ilmi o'quvchilarning tarixiy faktlarga, xalqlarning faoliyatiga, ijtimoiy sinflarning namoyandalariga, ijtimoiy ideologiya va shu kabilarga emotsional munosabatini uyg'otadi. Tarixiy bilimlarni o'zlashtirishning emotsionalligi bilimlarning puxta egallanishida, tarixga qiziqishni oshirishda, tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirishda, bu bilimni o'rganishda, umuman o'quvchilarning faolligini kuchaytirishda muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi tarix fanining bugungi kun talablari va o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarixi kursining maqsad, vazifalariga javob beradigan eng muhim tarixiy faktlarni tanlay bilishi, ularni o'quvchilar ongiga jonli va obrazli qilib yetkaza bilishi lozim. O'quvchilar ko'z o'ngida o'tmish va hozirgi zamon voqealari to'g'risida jonli va yorqin tasavvur hosil qila bilish, ularda emotsiya uyg'o-tish, ijtimoiy hayotning yaxlit manzarasini gavdalantirish, bi-limlarni ongli va puxta o'zlashtirishning muhim shartlaridan-dir. Shunga erishish keraqi, har bir ayrim va hatto qisqacha bayon qilingan tarixiy fakt, har bir geografik nom va shaxslar-ning faoliyati ham konkret obrazlar yordamida o'rganiladigan bo'lsin. Obrazli tasvir, obrazli bayon o'quvchilar bilimining il-miy va puxta bo'lish shartlaridan biridir.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalari va mazmunini bilish tashkiliy formasi uchun tarix o'qitishning ilmiy asoslarini egallab olishning o'zi kifoya qilmaydi. Tarix kursini o'qitish, uni o'quvchilarning o'rganishi ham darsda va

darsdan tashqaridagi mashg'ulotlarda ham davom etadi. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida va ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy formasi darsdir. Zotan, tarix darslari tizimida har bir darsning tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri belgilash, darsning ilmiyligi va g'oyaviyligini ta'minlash, bilish qonuniyatlari va maqsadga muvofik, o'quv formalari hamda o'quvchilarning o'quv ishini turi

tashkil etishga yordam beradigan, unga mos pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish aloxida ahamiyatga egadir. Tarix darslarini turlarga bo'lish problemi tarix o'qitish metodikasi taraqqiyotining bosqichlarida metodistlar tomonidan turlicha hal etib kelindi.

Darslarni turlarga bo'lish masalasida ikki asosiy yo'nalish mavjud edi: birinchi yo'nalish tarafdorlari o'qitish jarayonining qonuniyatlariga asoslanib, darslarni turlarga ajratadilar. Ularning fikricha, darslarni turlarga bo'lishda, ularga xarakteristika berishda ko'proq o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursi mazmunini o'zlashtirish jarayonining u yoki bu zvenosiga asoslaniladi. Darslarni turlarga bo'lishning bu printsiptini S.V.Ivanov birmuncha to'la ishlab chiqqan edi.

Ikkinchi yo'nalishning vakillaridan biri I.N.Kazantsevdur. Ular dars turlari klassifikatsiyasiga asosan darsni o'tkazish usullarini asos qilib oladilar. Tarix o'qitish metodikasi sohasida prof. V.N.Bernadskiy ham tarix darslari klassifikatsiyasiga metodik usullarni asos qilib oladi va tarix darslarini quyidagi turlarga bo'ladi: o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida lektsiyasi, hikoya qilib berish darsi, tarixiy hujjatlarni tahlil qilish, badiiy adabiyotlardan foydalanish darsi, o'quvchilarning dokladlariga asoslangan dars, prezident asarlarini o'qish va tahlil qilish darsi, kino darsi, ekskursiya materiallari asosida o'tkaziladigan darslar va hokazo. Shuningdek, V.N.Bernadskiy turli usullar yordamida o'tkaziladigan umumlashtiruvchi takrorlash darslarini ham alohida gruppalariga bo'ladi. Biroq, A.A.Vagin o'sha asarida asosli ravishda ta'kidlaganidek, dars turlari klassifikatsiyasiga, dars o'tkazishning metodik usullarini asos qilib olib bo'lmaydi. Chunki dars o'tkazish metodi ham, dars turlari ham uning mazmuni va ta'lim qonuniyatlari bilan belgilanadi, tanlangan o'qitish metodi va dars tipi o'z navbatida uning g'oyaviy mazmuni, ta'lim-tarbiya vazifalarini ado qilishga xizmat etadi. Shunga qaramay V.N.Bernadskiy tomonidan tavsiya qilingan dars turlari, o'sha davr uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, negaki, tarix darslarini xilma-xil strukturada o'tkazish mumkinligini ko'rsatib berdi.

Ammo 40—50- yillarning boshlarida yaratilgan o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix darsliklarining faktik materiallar bilan haddan tashqari to'ldirib yuborilganligi hamda ularda metodik ko'rsatmalar yo'qligi darsda o'quvchilarning bilish faolligini va mustaqilligini oshirishga, ularda zarur ko'nikma va malakalar hosil qilishga katta to'sqinlik qilar edi. Darsliklarda to'lib-toshib turgan faktik materiallardan o'qituvchi dars davomida arang foydalanib ulgurar edi. Dars vaqti o'tgan mavzuni so'rash, yangi temani bayon etish, mustahkamlash va uyga vazifa berishga yetardi, xolos. Xullas, ta'limning hamma protsesslari shoshma - shosharlik bilan o'tardn. O'quvchilarning materialni puxta o'zlash-tirishni va malaka hosil qilishning muhim manbai va vositasi bo'lgan hujjatlar va ko'rsatmali qurollar ustida olib boriladigan mustaqil ishlarni qilishga vaqt yetishmas edi. Ayni vaqtda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun zarur qo'llanmalar va tarixiy hujjatlardan iborat to'plamlarning yetarli emasligi, darsliklarning metodik ko'rsatmalarida savol va topshiriqlar berilmasligi ham darsda o'quvchilarning aqliy faoliyatini aktivlashtirish, mustaqilligini o'stirish ishini qiyinlashtirar edi. Buning ustiga 40- yildan to 50- yillarning boshlarigacha, tarix darslari turlari problemi ustida maxsus tadqiqot ishlari olib borilmadi. Hattoki, tarix o'qitish metodikasidan nashr etilgan qo'llanmalarda ham dars turlari masalasi maxsus muammo qilib qo'yilmadi.

Ammo shunday sharoitda ham, fanlarni o'qitish, jumladan tarix o'qitish sohasida qo'lga kiritilgan progressiv metod va usullardan, xilma-xil dars turlaridan ilg'or o'qituvchilar muvaffaqiyatli ravishda foydalanib keldi. Ular shablonga aylanib qolgan «aralash» dars turidan shunchaki foydalanmay unga ijodiy yondashdilar. Ilg'or o'qituvchilar va metodist olimlar o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida da tarix o'qitishdagi nuqsonlarni bartaraf qilish yo'llarini izlay boshladilar.

O'zligini anglashga intilgan har bir xalq o'tmishini bilishi zarur. Tarixni o'rganish umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini anglab yetish uchun, barcha xalqlarning umumjahon tarixiy jarayonida qatnashib, jahon madaniyati hazinasiga qay darajada hissa qo'shganligini bilish uchun ham muhimdir.

Yoshlarni tarixdan oladigan bilimlarini takomillashtirishning usullari turlichadir. Jumladan tarix o'qitish samaradorligini oshiradigan vositalardan biri darsda arxiv materiallaridan foydalanishdir. Dars o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida yoshlarga fan asoslarini o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Metodist P.S.Leybengrub ta'limning asosiy tashkiliy formasi bo'lgan dars tuzilishi jihatidan tor sxemaga, qat'iy bir qolipga tushib qolganligi tarix o'qitish oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni qiyinlashtirayotganini, ayni vaqtda bu hol o'qitishda har xil metod va usullardan foydalanishga to'sqinlik qilayotganini, o'quvchilarning darsga qiziqishini ham pasaytirayotganini to'g'ri ta'kidladi. Tarix darsining quyidagi 4 ta tipini tavsnya etdi:

Ta'lim jarayonining barcha elementlarini o'z ichiga olgan, 1) aralash dars; 2) to'liq yoki qisman yangi mavzuni o'rganishga bag'ishlangan dars; 3) umumlashtiruvchi — takrorlash darsi; 4) bilimlarni tekshirish va hisobga olish darsi.

Shuni aytish kerakki, P.S.Leybengrub shu masalaga bag'ishlangan asarlarida ham o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida i tajribasida ilg'or o'qituvchilar qo'llanib kelayotgan dars turlarining hammasini ko'rsatmagan bo'lsada bu masalani o'rta qo'yib, matbuot sahifasida munozara boshlab berishi g'oyat foydali ish bo'ldi. Shundan so'ng, 1957 yilda A.Vaginning tarix darslari turlariga bag'ishlangan risolasi e'lon qilinadi. Avtor bu risolasida V.G.Kartsev va P.S.Leybengrublar ko'rsatganidek, tarix darslarining turlari to'rtta emas, balki ko'pligini, ularni turli formalarda olib borish zarurligini pedagogik jihatdan isbotlab berishga harakat qiladi.

Darslar mohiyatiga qarab turlarga ajratiladi. Tarix darslarining mohiyatini ta'lim jarayoni tashkil qiladi. Demak, ta'lim jarayonining ob'ektiv qonuniyatlariga asoslanib, tarix darslarini turlarga bo'linishi masalasini to'g'ri hal qilish mumkin. Darsning har xil turlariga xarakteristika berishda o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok qilishga tayyorlash, materialni tahlil qilishga, asosiy tarixiy faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni anglab olishga, umumlashtirishga, olgan bilimlaridan zarur paytda foydalanishga o'rgatish kabi ta'lim jarayonlari e'tiborga olinadi. Tarix darslarini turlarga bo'lishda uning bir turini boshqa turlaridan ajratib qarash yaramaydi. Chunonchi, o'quvchilarning yangi temani puxta o'zlashtirishi uchun dastlab temaning kirish darsi o'tkaziladi; o'rganilgan tema yoki bo'limni yakunlash uchun — yakunlovchi dars turidan foydalaniladi. Masalan, Qadimgi dunyo tarixining «Ibtidoiy odamlar turmushi» degan birinchi bo'limi oxirida bo'ladigan bir soatlik yakunlovchi darsda to'rt soat davomida o'rganilgan materialni tahlil qilib, o'quvchilar ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy bel-gilarini tushunib, bilib oladi. Shuningdek, «Qadimgi Sharq» degan ikkinchi bo'lim oxirida bo'ladigan darsda o'quvchilar Sharqdagi eng qadimgi davlatlarda sinfiy jamiyatning vujudga kelishini, uning mohiyati, eng qadimgi Sharq xalqlarining jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini, «Qadimgi Gretsiya» nomli uchinchi bo'lim oxiridagi darsda quldorlik tuzumining eng yuqori bosqichini, quldorlik tuzumining ibtidoiy jamoa tuzumiga nisbatan taraqqiy etganini, qadimgi greklarning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini «Qadimgi Rim» degan to'rtinchi bo'lim oxiridagi darsda ham, quldorlik tuzumi taraqqiyotining yuqori bosqichini, uning yemirilishi va halokatining qonuniyatlarini bilib oladi.

O'qituvchi o'quv materialini bayon qilish jarayonida uni tahlil qilib boradi va umumlashtiradi. Biroq, ba'zi murakkab mavzular va bo'limlar yuzasidan maxsus tahlil qilish darslari, tarix kursining g'oyaviy mazmuni, ta'lim qonuniyatlari bilan bog'lab maxsus umumlashtiruvchi - takrorlash darslari o'tkaziladi. Har bir darsda, o'quvchilarda xarita, har xil kartinalar, illyustratsiyalar ustida ishlash, jadvallar, reja va konspekt tuzish ko'nikma va malakalari hosil qilish yuzasidan ish olib boriladi. Demak, o'qitishning ilmiy asosda tashkil qilinishi o'qituvchining darsda har xil vazifalarni muvaffaqiyatli bajara bilishiga bog'liq. Tarix o'qitish tarixiy voqealarni bayon qilib berish va uni navbatdagi darsda so'rashdan iborat emas. O'qituvchi o'quvchilarni tarixiy voqealar ustida mustaqil fikrlashga, o'rganilgan tarixiy materiallardan tegishli xulosalar chiqarib olishga, uni umumlashtirishga, mavzular va umuman kursning asosiy masalalarini puxta o'zlashtirib olishga, turli matnlar, xaritalar bilan mustaqil

ishlay bilishga, reja, konspekt, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzishga, ma'ruza va referatlar tayyorlashga, diagrammalar mazmunini tushunishga o'rgatishi lozim.

Xo'sh, tarix darslarini turlarga bo'lishda nimalarni ko'zda tutish kerak?

O'quv materialining g'oyaviy mazmuni, uning "darsining tur" o'ziga xos xususiyati, sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligi hamda darsdan kuzatilgan didaktik maqsadlar dars turini, uning strukturasi va metodlarini tanlashda asos bo'lib xizmat qiladi, tanlab olingan dars turi va metodi esa uning g'oyaviy mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Dars turlari masalasini hal etishda formalizmga va standartga yo'l qo'ymaslik kerak, o'qituvchi navbatdagi temani planlashtirganda, uning mazmuni, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini izchillik bilan, mantiqan bog'lab o'rganishga yordam beradigan dars turlarini oldindan aniq belgilab olishi kerak.

Shunday qilib, tarix V—IX sinflarda va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladi. O'quvchilar sinfdan sinfga o'tgan sari tarixiy materialning ko'lamini ortib, mazmuni murakkablashib, o'quvchilarning tarixiy bilimlari ham chuqurlashib, ko'nikma va malakalari o'sib boradi. Shu bilan birga, darslar struktura jihatidan va mazmunan murakkablashib, darslarning xilma-xil turlaridan foydalanish zaruriyati tug'iladi. Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, V—IX sinflar uchun 7 xil, o'rta maxsus ta'lim tizimi uchun esa 10 xil dars turi tavsiya etilmoqda.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limining yangi mazmuni va o'quvchilarning bilish faoliyatini yanada faollashtirish vazifalari tarix o'qitishning shakli va metodlarini takomillashtirish uchun imkoniyatlar ochib beradi. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish mazmunan boyidi, o'qitishning mavjud shakli va metodlari takomillashdi, yangi shakl va metodlar yuzaga keldi. Keyingi yillarda seminar va boshqa amaliy mashg'ulotlar yuqori sinflarda tarix o'qitishning o'ziga xos shakliga aylanib qoldi.

Dars turlariga xarakteristika berishda ta'lim jarayonining qonuniyatlari, uning asosiy bosqichlari (o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga tayyorlash, material bilan tanishtirish, uni tahlil qilish, umumlashtirish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalar hosil qilish, olgan bilimni ishga solishga o'rgatish va tekshirish) asos qilib olinadi. Tarixni o'rganishning har bir bosqichi materialning mazmuniga qarab, o'ziga muvofiq shakl oladi. Tarix darsining turi o'rganilayotgan temaning g'oyaviy mazmuniga va o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy vazifalariga qarab belgilanadi. Binobarin, ta'lim qonuniyatlarini amalga oshirish va temani o'rganishda foydalaniladigan dars turlarini unga muvofiqlashtirib borishning aniq usullari tarix dasturi materialining mazmuniga qarab belgilanadi.

Demak, tarix darslarini klassifikatsiya qilish, uning xilma-xil turlaridan foydalanish o'qituvchining shaxsiy xohishiga emas, balki o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish zaruriyatidan kelib chiqadigan tarix ta'limining asosiy qonuniyatlari bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchi dars turlarini tanlashda o'rganiladigan mavzuning mazmuni, xarakterini hamda uni o'quvchilarning ongli va puxta o'zlashtirishini, ya'ni ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlarini asos qilib olishi lozim. Dars turini bu yo'sinda tanlash esa o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda o'qitish metodlari va usullari haqidagi masalani ijodiy hal qilishga yordam beradi.

Maktabda tarix o'qitishning maqsadi, ta'lim – tarbiyaviy vazifalari va mazmunini bilish uchun tarix o'qitishning ilmiy asoslarini egallab olishning o'zi kifoya qilmaydi. Tarix fanini o'qitish uchun, uni o'quvchilarning o'rganishi ham darsda, ham darsdan tashqari mashg'ulotlarda davom etadi. Maktabda ta'lim - tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli darsdir. Binobarin, tarix darsining o'quvchilarga bilim berish, ularni vatanparvar ruhda tarbiyalash va komil inson bo'lib yetishishidagi orni beqiyosdir.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi tarix darsiga bo'lgan umumiy psdagogik va didaktik talablar asosida zamonaviy dars variantlarini eksperimental tajribalar asosida ishlab chiqish shu kunga qadar biron tadqiqotchi olim yoki amaliyotchi o'qituvchining ilmiy izlanish ob'yekti bo'lmagan.

O'tmish tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Turkiston Xalq Maorifi Komissarliginiig 1918 yil 12 seityabrda chiqargan farmonida, boshlang'ich maktabda tarix o'rganish quyidagi tartibda amalga oshirilishi qayd etilgan:

Ijtimoiy va madaniy taraqqiyot jarayoni bo'lgan umumiy tarixni o'rganish, Rossiya va Turkistoi xalqlari tarixini birmuncha aniqliklar kiritilgan holda o'rganish, o'rta maktabda G'arbiy Yevropa xalqlari tarixi – qadimgi, o'rta asrlar va ayniqsa yangi tarixni, shuningdek rus tarixini o'rganish tavsiya etilgan edi.

O'zbekiston maktablarida tarix fanini o'qitish tarixini sinchiklab o'rganar ekanmiz, 20 – yillarga kelganda Turkistonda tarix o'qitish metodikasini pedagogik fan sifatida shakllanishida dastlabki dadil qadamlar qo'yila boshlanganligini guvohi bo'lamiz. Masalai, 1927 yilga kelganda Turkistoi o'lkasida pedagogika fanini taraqqiy etdirishda katta hissa qo'shgan pedagog olim N. P. Arxangelskiy¹ tomoidan O'zbekiston umumga'lim maktablarida tarix o'qitish samaradorligini oshirishga bag'ishlangai qator ilmiy – metodik maqola va o'sha sharoit uchun nodir metodik qo'llanmalar yaratildi.

Ona tariximizga nazar tashlar ekanmiz, o'zbek xalqining fashizmni tor – mor keltirishda o'zining ulkan hissasini qo'shganligini ko'rsatadigan dalillarni guvohi bo'lamiz. Dalillarga murojaat qilaylik:

Masalan, O'zbekiston urush yillarida davlatga 3 mln. 806 tonna paxta, 54067 tonna pilla, 1 mln. 282 ming tonna don, 48000 tonna meva qoqi, 159 ming tonna go'sht, 22300 tonna jun va boshqa mahsulotlar yetkazib berdi.

O'zbekistondan 1 mln. ga yaqin kishi jangga safarbar etildi, urush yillarida O'zbekistonga sobiq Sovet Ittifoqining frontga yaqin va front zonalaridan 1 mln.ga yaqin kishi, jumladan 200.000 ming bola evakuatsiya qilindi, 1941 yiliig iyul oyidan noyabr oyiga qadar O'zbekistonga Moskva shahri va viloyati, Ukraina, Belorussiya, Volga bo'yi hududlaridan yuzdan ko'proq korxonalar ko'chirib keltirildi, evakuatsiya qilingan korxonalar o'zbek ishchisi va xizmatchilarniig kahramonona g'ayrati tufayli qisqa muddat ichida joylashtirildi va ishga tushirildi. Mazkur korxonalarning ko'pchiligi oldingi vaqtiga qaraganda ko'proq mahsulot chiqaradigan bo'ldi. Urush davomida O'zbekistoiilik jangchilardan 120 ming kishi orden va medallar bilan mukofotlandilar.

Agar «Urush yillarida O'zbekiston maktablarida tarix o'qitish» masalasining o'zini alohida olib qaraydigan bo'lsak, bu davrda O'zbekistonda umumta'lim maktablarida tarix o'qitish xususida va umuman O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish borasida tahsinga molik ko'pgina ilmiy – uslubiy asarlar yaratilgailigini bilamiz.

Tarix o'qitish metodikasiga doir uslubiy va didaktik adabiyotlarda tarix o'qitishga bo'lgan zamonaviy talablar ham alohida qayd etiladi. Jumladan, Akademik Mirza Mahmudovning «Sovremenniy urok» (M. «Prosveheniye», 1989), P.S. Leybeshrubning «Didakticheskiye trebovaniya k uroku istorii» (M. Izd ~ vo APN RSFSR, 1960). N.G.Dayrning «Sovremenno'e trebovaniya k uroku istorii» (M. 1979) va boshqalar. Bu asarlar garchi bevosita tarix o'qitish masalasiga bag'ishlanmagan bo'lsada, aslida 60 – 70 – 80 – yillar sharoitida yozilgan. Lekin metodist olimlarning sho'ro jamiyatining 70 yildan ziyod davr ichida yaratgan ilmiy – uslubiy va didaktik asarlari o'sha davr xususiyatidan kelib chiqqan ba'zi kamchiliklarga qaramasdan bugungi o'z istiqboliga erishgan O'zbekiston Respublikasi maktablarida ham foydalanilib kelinmoqda. Endilikda Respublikamiz tarixchi metodist – olimlari vazifalari ana shu ulkan merosdan O'zbekiston xalqlari tarixining bugungi davri talabi asosidan ilmiy – uslubiy va didaktik yo'llarini yuqori saviyada ishlab chiqishdan iboratdir.

¹Arxangelskiy N.P. svedeniya s sostoyanii izdaniy uchebnoy literaturo' v Turkestanskoy ASSR dlya shkol uzbekskix, kazaxskix, turkmenskix, uygurskix, tadjikskix. T. 1992g.

Arxangelskiy N.P. "Uchebnaya literatura" o'zbekskom yazike. Nauka i prosveheniye. 1922.

Arxangelskiy N.P. O prepodavaniye istorii v Sredne - ubekskom shkole, T. 1922 god

Arxangelskiy N.P. Sredne-Aziatskiye vopros' geograficheskoy terminologii i trnskripsii. T, 1935g.

Prezidentimiz alohida kayd etib o'tganidek, «Yangi demokratik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika hududida boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim va tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur». Ilmiy - uslubiy va didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan tarix ta'limi dars jarayonida Samara beradigan turli - tuman shakl va usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Tarix o'qitish deganda faqatgina o'qituvchini voqealar to'g'risidagi hikoyasini tinglash - u, kelgusi darsda uni o'quvchilardan so'rashgina emas, balki, tarix o'qitish jarayonida biz o'quvchilarimizni fikrlash va tarixiy voqealarini tahlil etish, o'rganilayotgan tarixiy material asosida xulosalar chiqarish va ularni umumlashtirish, tafakkur etish, o'rganilayotgan hamma mavzular va kursning yetakchi g'oyalari ongli ravishda mustahkam o'zlashtirib olish, ularni tarixiy hujjatlar va ayniqsa O'zbskiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, nutqlari matni ustida mustahkam ishlab, rejalar va konspekt, xronologik va sinxronologik jadvallar tuzishga, ularni tahlil etishga, qisqacha ma'ruzalar tayyorlashga, tarixiy xaritalar bilan ishlash va to'g'ri tarixiy mo'ljal olishga qunt bilan o'rgatish jarayoniga aytiladi.

Tarix darsining o'quv materialini navbvtidagi bir bo'lagi deb hisoblab, uni o'quvchilarga zudlik bilan bayon etib, keyingi bo'lagiga o'tishdangina iborat deb o'ylagan o'qituvchi, albatta xato qilgan bo'lar edi.

Dars - tarix dasturining bir oddiy bo'lagigina emas. Dars - birinchi galda o'quv mashg'ulotidir.

Zamonaviy tarix darsiga bo'lgan talab nima bilan belgilanadi?

Birinchidan: fikrimizcha, Prezident I.A.Karimovning «Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz - insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir. Bu narsa, ayniqsa yosh avlodga tegishli. Kelajagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo'lajak fuqarolarining madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur.

Men barcha vatandoshlarimizga murojaat qilib aytaman: Bugun hayot qanchalik og'ir bo'lmasin, ma'naviyatimiz va madaniyatimizni unutmaylik!» degan ko'rsatmalari, shuningdek «yangi demokratik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim va tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi lozim»" degan konsepsiyasi pedagoglarimizni tarix ta'limini davr talabi darajasiga ko'tarish yo'lidagi muhim vazifalarialari bo'lmog'i kerak.

Ikkinchidan: tarix ta'limi davomida o'quvchi yoshlarni tarixiy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirib, ularni o'tmishda va bugungi kunimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarini to'g'ri baholash va xulosalar ilmy - uslubiy va didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan tarix ta'limi dars jarayonida samara beradigan turli - tuman shakl va usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Tarix o'qitish deganda faqatgina o'qituvchini voqealar to'g'risidagi hikoyasini tinglash - u, kelgusi darsda uni o'quvchilardan so'rashgina emas, balki, tarix o'qitish jarayonida biz o'quvchilarimizni fikrlash va tarixiy voqealarini tahlil etish, o'rganilayotgan tarixiy material asosida xulosalar chiqarish va ularni umumlashtirish, tafakkur etish, o'rganilayotgan hamma mavzular va kursning yetakchi g'oyalarini ongli ravishda mustahkam o'zlashtirib olish, ularni tarixiy hujjatlar va ayniqsa O'zbskiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, nutqlari matni ustida mustahkam ishlab, rejalar va konspekt, xronologik va sinxronologik jadvallar tuzishga, ularni tahlil etishga, qisqacha ma'ruzalar tayyorlashga, tarixiy xaritalar bilan ishlash va to'g'ri tarixiy mo'ljal olishga qunt bilan o'rgatish jarayoniga aytiladi.

Uchinchidan: Balandparvoz iboralar yig'indisidan tashkil topgan «vataniarvarlik» partiya hujjatlarida nazariy jihatdan asoslanib, «sovet jamiyatining o'tgan davr ichida qo'lga kiritilgan asosiy yutug'i bu yagona sovet xalqlarining shakllantirishdir!» deb, xalq maorifi xodimlari oldiga, jumladin tarix o'qituvchilariga yosh avlodni alohida olingan ma'lum bir xalq, millatning milliy va ma'naviy an'analari ruhida emas, xayolan «shakllaigan» sovet xalqi

vatanpavarligi ruhida tarbiyalashni singdriishga undar edi. Shunday ekan, bugungi kun tarix fani o'qituvchisi tarix ta'limini targ'ib etishda ayrim tarixiy shior va chaqiriqlarning ma'lum tarixiy davr, tarixiy sharoit va uning manfaatidan kelib chiqqan bo'lishi sabab va mohiyatlarini ham tarix o'qitish metodikasidagi eng asosiy talab va tushuncha yo'nalishidan kelib chiqib unga mutlaq rioya etish lozim.

Masalan, o'qituvchi «1941 - 45 - yillarda O'zbekiston» mavzusini o'tar ekap, fanlararo aloqa metodidan foydalanib, o'quvchilar e'tiborini G'.G'.ulomning urush yillarida umumxalq shioriga aylangan «buyuk Vatanning buyuk farzandi, bilib qo'yki seni Vatan kutadi» degan chaqirig'iga jalb etadi. Bu shior so'zsiz o'z davrining jangovar chaqirig'i yozuvchining fuqarolik burchini vijdonan ado etishdagi oliy mezon edi. Boshqacha qilib aytganda, sovet yozuvchisi ustqurmaning faol elementi sifatida o'z basisiga sodiq xizmat qilishi kerak edi. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi. Lekin o'sha suronli 40 – yillarda «Buyuk Vatan» tushunchasiga ega o'zini azaliy orzusi o'z mustaqilligiga erishgan xalq – o'zbeklarga bugungi kunda qanday munosabatda bo'lishimiz kerak? Shu chaqiriq o'sha davrdagi «Vatan» tushunchasi bugungi kunda ham o'z mohiyatini saqlab turibdimi? Buning uchun dars jarayonida 4) faqatgina darslik material bilan kifoyalanib qolmasdan, mavzuga dior qo'shimcha adabiyotlar, turli metodik vositalardan, jumladan ekran qo'llanmalari, magnitofon yozuvlari, teledarslar, mavzuning mazmuniga qarab muzey darslari yoki seminar darslaridan maqsadga muvofiq foydalanmog'i kerak.

Bugungi kunda mamlakatimizning bozor iqtisodiga o'tishi munosabati bilan o'quvchilarni o'qishga qiziqishlari borasida turlicha yondashish, qiziqishlarini bir xil emasliklari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ularni o'rab turgan ijtimoiy muhit o'quvchi yoshlarimiz dunyoqarashlarida o'z tamg'alarini qoldirmoqda. Bunday sharoitda tarix o'qituvchisining vazifasi sinfda mavjud bo'lgan barcha o'quvchilar diqqat – e'tiborlarini ularga nisbatan diferentsiatsiya usulini qo'llab, bir vaqtda ularning hammalari uchun maqbul bo'lgan tarixiy materilni bayon qilish bilan, ikkinchi tomondan har bir o'quvchining qiziqishlarini hisobga olgan holda unga individual yondashmoqqa harakat qilmog'i kerak.

Dars jaryonida o'quvchilar faoliyatiga differensial yondashuv qanday nazorat etilsa, ularning uy vazifalarini bajarishlarini nazorat etish ham shunday amalga oshirib borilmog'i kerak.

Shuni aloxida takidlab o'tish lozimki, tarix darsining mazmuni mustaqil O'zbekiston Respublikasining yoshlar orasida olib boriladigan mafkuraviy ishlar vaznfalariga mos kelishi, tarix o'rganishning turmush bilan aloqasini bog'langanligida, O'zbekiston kelajagi buyuk davlat bo'lishini nazariy va amaliy ishlar bilan bog'lab olib borishga yo'naltirilgan bo'lmog'i kerak.

Tarix darslar o'quvchi yoshlarda shunday qat'iy tushunchani mustahkam shakllantirmog'i kerakki, Prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XV sessiyasida alohida qayd etib o'tganidek, «Kelajak o'z — o'zidan kelmaydi. U bugungi mashaqqatli mehnat bilan yaratiladi. Bugun yaratgan ishlarimiz kelajakka ham o'tadi. Agar bugun shoshilib nimanidir unutsak, kelajak avlodlar o'sha narsadan mahrum bo'ladilar. Jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy – axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Ularni pisand qilmagan jamiyat pirovardi – oqibatda tanazzulga yuz tutadi» degan konsepsiya bilan yo'g'rilgan bo'lmog'i kerak.

Tarix darslari samaradorligini oshirib borish uchun o'qituvchi tarix fanining rivojlanib borishini doimiy ravishda kuzatib bormog'i lozim. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarini tarixdan chop etilayotgan yangi asarlar mazmuni bilan tanishtirib borishlari o'quvchi yoshlarda tarixni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada o'sishiga olib keladi.

Asosiy tushunchalar

Dars - o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli.

Tarix kursining ta'lim-tarbiya vazifalari - mavzularning ta'lim-tarbiya vazifalari bilan bog'lab rejalashtirish.

Ta'lim turlari - suqrotcha suhbat metodi, an'anaviy ta'lim, izoxdi-namunali (illyustrativ) ta'lim, bilimlarni mustaqil egallash, programmashtirilgan ta'lim, ta'limni algoritmlash jarayoni, tabaqalashtirilgan, yakkama-yakka ta'lim va boshqalar.

Tarbiya - 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Takrorlash uchun savollar

1. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini ayting.
2. Tarix o'qitishda ta'lim bilan tarbiyani uyg'unlashtirib borishga yordam beradigan metod va vositalar nimalardan iborat?
3. Tarix darslarini turlarini ayting?
4. Tarix darslarining klassifikatsiyasini keltiring
5. Metodist P.S.Leybengrub ta'limning asosiy tashkiliy formasi bo'lgan dars tuzilishi va tarix o'qitish oldiga qo'ygan vazifalarini ayting.

Mavzu: Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi

Reja:

1. Tarix o'qitish metodlari va usullari.
2. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi.
3. Ko'rgazmali metodlar.

Tayanch iboralar

Ta'lim tizimida qo'llaniladigan metodlar, tarix o'qitish metodlarining metodistlar tomonidan klassifikatsiyalanishi, ko'rgazmali metodlardan foydalanishning ahamiyati.

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida ko'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ta'lim mazmunini takomillashtirish, uning tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytirish bilan birga, o'qitish metodlarini ham aktivlashtirish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Endilikda, ta'lim mazmuni insoniyat to'plagan tayyor bilimlar, ko'nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o'sishini ta'minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o'zida birlashtirmog'i lozim. Ta'limning rivojlanish printsiplariga ko'ra, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilishga o'rgatish va ularda zarur ko'nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta'lim mazmuni bilan birga o'qitish metodlari ham muhim rol o'ynaydi.

O'qitish metodlari murakkab muammo bo'lib, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida oldiga qo'yilgan mas'uliyatli vazifalarning hal etilishi ko'p jihatdan uning to'g'ri hal qilinishiga bog'liqdir. Biroq, hozircha o'qitish metodikasining bu muhim problemi, xususan tarix o'qitish metodlari sistemasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Metodik adabiyotda metodistlar tomonidan «Metod», «Metodik usullar» tushunchasi turlicha talqin etiladi va klassifikatsiya qilinadi.

O'qitish metodikasida tarix ta'limi metodlari tizimining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va bu sohada yagona fikr bo'lmaganligi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish amaliyotida jiddiy kamchiliklarga olib keldi. Ko'p hollarda o'qituvchilar o'qitish metodlari va usullarini tanlashda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga

faqat tayyor bilim berish, ya'ni ularni o'qitish (ta'limning bir tomonini)ni ko'zda tutib, o'quvchilarning o'rganishi (ta'limning ikkinchi muhim tomonini)ni uyushtirish, unga rahbarlik qilish, bilish, malaka va qobiliyatlarini sistemali ravishda o'stirib borish kabi muhim momentlarni e'tibordan chetda qoldiradilar. Shuningdek, o'qitishning metod va usullarini tanlashda o'quv materialining mazmunidagi o'ziga xosliklarni, uning ta'lim-tarbiya vazifalarini, o'quvchilarning bilimi va malakalarini e'tiborga ola bilmaslik hollari ham shunday jiddiy kamchiliklar jumlasidan edi. Bu hol ma'lum darajada o'quvchilarning tarix predmetiga qiziqishlari pasayishiga, umumiy ta'lim-tarbiya ishlarining natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida amaliyotida, ayniqsa keyingi yillarda o'quvchilarni tarix predmeti vositasida tarbiyalashda, uni o'qitishni ilmiy asosda olib borish, ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish sohasida ko'pgina ilg'or tajribalar to'plandi va umumlashtirildi.

Belgilab bergan muhim vazifa — tarixiy bilimlarning samaradorligi va sifatini oshirishning muhim sharti va vositalaridan biri bo'lgan bu ishlar tarix o'qitish metodlari sistemasini va metodik usullarini ham ilmiy asosda ishlab chiqish va amalda ulardan muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatini beradi.

O'qitish metodlarini ilmiy asosda klassifikatsiyalash masalasi pedagogika fanida o'qitishning turli bosqichlarida turlicha hal qilib kelindi. O'qitish metodlari klassifikatsiyasiga ba'zan analiz va sintez, deduktsiya va induktsiya kabi mantiqiy operatsiyalar asos qilib olinib, o'qitish metodlari induktiv, analitik va boshqa mantiqiy usullar sifatida xarakterlanadi. O'qitish metodiga bu xil qarash, A.Vagin ta'kidlaganidek, tarix o'qitish metodikasida tan olinmadi. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish tajribasi shuni isbotladiki, yuqoridagi mantiqiy operatsiyalar o'qitish va o'rganishning barcha bosqichlarida turli xarakterdagi xilma-xil didaktik va metodik vazifalarni hal qilishda ishtirok etsada, mustaqil o'qitish metodlari bo'lib xizmat qila olmaydi. Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: «Tarix o'qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy operatsiyalardan tashkil topadi».

O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi.

Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir.

60- yillarda tarix o'qitish metodlari va ularni klassifikatsiyalash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev «Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi»— deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi:

- 1) tarixiy faktlarni o'rganish metodlari;
- 2) xronologiyani o'rganish metodlari;
- 3) mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari;
- 4) asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- 5) sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari;
- 6) tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

Ma'lumki, tarix o'qitish — o'qitish va o'rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. Metodist A.Strajevning klassifikatsiyasidan ham ko'rinib turibdiki, u faqat o'qituvchining o'quvchilarni o'qitishini ko'zda tutadi, o'quvchilarning o'rganishini tashkil etish va ularning o'rganishiga o'qituvchining rahbarlik qilishini e'tiborga olmaydi.

Ko'zga ko'ringan metodist V.G.Kartsev bu masalada boshqacha yo'l tutadi. U metodlar sistemasiga o'quv harakteriga ega bo'lgan belgilar («Bayon qilish metodi», «so'rash metodi») va umumiy didaktiv vazifalar («materialni o'rganish metodi», «mustahkamlash metodi», «bilimni tekshirish metodi» va boshqalar) ni emas, balki o'quvchilarning tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi. Metodlar haqidagi nazariyaning metodologii asosini, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish tashkil etadi. Binobarin,— deb

hisoblaydi V.G.Kartsev,— o'quvchilarda tarixiy tasavvur va tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari haqidagi masala metodikaning markaziy masalasi bo'lishi keraq Shu asosda u, o'quvchilarda tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning 4 guruhi borligini aytadi:

1) tarixiy tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirish metodlari; 2) umumiy tushunchalarni shakllantirish metodlari; 3) vaqt va fazoda tarixiy rivojlanish dialektikasini ochib berish metodlari; 4) tarixni zamonaviy voqealar bilan borlash metodlari; 5) tarixiy bilimlarning hayot va praktikada qo'llanilishi.

60-yillar pedagogikasida o'rganilayotgan fanni bilish manbalari (o'qituvchining jonli so'zi, ko'rsatmalilik va tekstlar) ni o'qitish metodlariga asos qilib olishga katta o'rin berildi. O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha klassifikatsiyalash masalasi Leningrad olimlarining 1966 yilda nashr qilingan asarlarida aniq ta'riflab berildi.

50-yillarning oxirlariga kelib tarix o'qitish metodikasida ham o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga o'quvchilarning bilish manbalari asos o'qilib olina boshladi. Metodist P.S.Leybengrub ta'lim manbalari, ya'ni bilish manbalari asosida o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida da tarix o'qitishning quyidagi metodlarini ko'rsatadi.

- 1) hikoya metodi va o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida lektsiyasi;
- 2) suhbat metodi;
- 3) ko'rsatmali metod;
- 4) darslik bilan ishlash metodi;
- 5) tarixiy hujjatlar bilan ishlash metodi;
- 6) badiiy adabiyotlardan foydalanish metodi.

P.S.Leybengrub nimagadir, og'zaki bayon qilish metodlarining hammasini hikoya va lektsiyadan iborat qilib qo'yadi. A.Vagin o'zining tarix o'qitish metodikasiga bag'ishlangan kitobida ana shu kamchilikni to'ldiradi. A.Vagin tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga bilim olish manbalari bilan birga, bilim olish usulini ham asos qilib olgan. U o'qitish metodlarini quyidagi uch gruppaga bo'ladi:

- 1) jonli so'z: hikoya, tavsiflash, harakteristika, problemali bayon;
- 2) ko'rsatmali metodlar: rasmlar va boshqa ko'rsatmali qurollar, doskaga chiziladigan grafik yozuvlar, texnika vositalari va boshqalar;
- 3) tekstlar bilan ishlash metodlari.

A.Vagin o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga bilim manbalari va bilish usullarini asos qilib olish bilan birga, bilish manbalari didaktik vazifalarga muvofiq o'qitish protsessining asosiy bosqichlarida qay tarifa konkret amalga oshirilishini jadval shaklida beradi. Bu jadval har bir darsda o'tiladigan materialning mazmuniga qarab o'qitishning turli xil metod va usullaridan foydalanish zarurligini aniq ko'rsatadi. Keyingi yillardagi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida da tarix o'qitish tajribasi A. Vagin tavsiya etgan o'qitish metodlarining juda real ekanligini ko'rsatdi.

Prof. P.V.Gora o'zining «Ta'lim metodlari va metodik usullari sistemasiga doir masala» nomli maqolasida pedagogikasi nazariyasi va praktikasida erishilgan yutuqlarga suyanib, o'qituvchining o'qitishi va o'quvchilarning o'rganishi (bilish faoliyati) bilan o'zaro organik bog'langan metod va metodik usullarni tavsiya qiladi. O'qitish metodlarining shu taxlilda klassifikatsiya qilinishi o'qitishuvchilarni puxta bilim va zarur malakalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi. Shuningdeq o'qituvchini o'quv materialining mazmuni, o'quvchilarning bilimi, malakalari va qobiliyatlarini ham hisobga olish va rahbarlik qilishiga yordam beradi.

P.V.Gora o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida da tarix o'qitish tajribasiga asoslanib, tarix o'qitish metodlarini klassifikatsiya qilishda masalaga faqat didaktik nuqtai nazardan qaramasdan, tarixiy-metodik nazardan ham yondashish, o'quv tarixiy materialning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini hamda uning mazmunidagi o'ziga xos xususiyatlarni ham yetarli ravishda e'tiborga olish zarur ekanligini ko'rsatadi. P.V.Gora xuddi shu printsipga asoslanadi, unda o'qitishning metod va usullarini tanlashda o'quv materialining mazmunini, uni o'rganishning maqsadini asos qilib olish, masalaga tarixiy-metodik mezon bilan yondoshish va hal etish zarurligi ko'rsatiladi.

O'qitishning metod va usullarini tanlashda shuni nazarda tutmoq kerakki, o'quvchilar esda saqlab qolishi zarur bo'lgan bilimlarni shunchaki bayon qilib qo'ya qolish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'qitish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, o'rgatish ham lozim. Ularda mustaqil ijodiy izlanish, yangilikka intilishni kuchaytirish, hali jamiyatga ma'lum bo'lmagan bilish usullarini qidirib topish va amaliy faoliyatga joriy eta bilish qobiliyatini ham rivojlantirish kerak.

I.Ya.Lerner o'qitish metodlarini 5 guruhga bo'ladi.

1. Bayon — illyustratsiya metodi,
2. Reproduktiv metod,
3. Ilmiy-tadqiqot metodi,
4. Qisman izlanish yoki evristik metod,
5. Muammoli ta'lim yoki muammoli o'qitish.

O'qitishning birinchi va ikkinchi usulida o'quvchilar o'rganiladigan materialni puxta esda saqlab qolishlari va uni qayta so'zlab berishlari mumkin. O'qituvchi tushuntirib beradigan tayyor bilimlarni tushunib olish qiyin emas, ularni faqat esda saqlab qola bilish kerak xolos. Bu usulni muhim tomoni shundaki, u nisbatan qisqa vaqt ichida katta ko'lamdagi tarixiy bilimlarni o'rganish va o'quvchilar dikdatining rivojlanishiga yordam beradi. Ammo bu usul o'quvchilarda, ayniqsa yuqori sinf o'quvchilarida tarixni o'rganishga qiziqish uyg'ota olmaydi, ularning tafakkuri, bilish, malaka va qobiliyatlari rivojlanishini ta'minlay olmaydi.

Muammoli ta'lim yoki muammoli o'qitish usuli birinchi usuldan ko'ra samaralirokdir. O'qituvchi o'quv materialini bayon qila turib, o'quvchilar oldiga muammoli savollar qo'yadi, o'quvchilar bilan birga uni hal qilish yo'llarini topadi, boshqacha qilib aytganda, o'qituvchi o'quvchilarga tarixiy bilimlarni tushuntirish bilan birga, ularni shu bilimlar ustida o'ylashga majbur etadi, ularning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, qiziqishlari ortadi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida muammoli va mantiqiy vazifalarni bajarish jarayonida mustaqil mulohaza qilish va mustaqil fikrlashga o'rganadi. Bularning hammasi o'quvchilarning tarixiy fikrlashiga, tadqiqot ishlarining dastlabki oddiy malakalarini egallab olishlariga yordam beradi.

O'quv-tekshirish ishlari ham turli usullar yordamida amalga oshiriladi.

O'qitish metodlariga ta'rif berganda birinchi navbatda u o'qituvchining o'qitishi va o'quvchilarning o'rganishi yoki bilish faoliyati usullaridan iborat ekanligini nazarda tutishi kerak. Haqiqatan ham, o'qituvchi ko'rsatmali vositalar yordamida so'zlab berish yoki qandaydir amaliy harakatlarni ko'rsatish, ularni tushuntirib borish jarayonida o'zi faol fikrlash bilan birga, o'quvchilarning ham fikrlash faoliyatini qo'zg'atadi va o'quv materialining o'zlashtirilishiga rahbarlik qiladi, ularning bilim va malakalarni o'zlashtirib olishlariga yordam ko'rsatadi. Binobarin, o'qitish metodlariga o'qitish va o'rganish usullari va unga bog'lab o'qituvchi va o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyati asos qilib olinadigan bo'lsa, uni quyidagicha ta'riflash mumkin.

O'qitish metodlari — o'qituvchilarning aktiv fikrlash asosida o'quvchilarni o'qitishga, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning ilmiy bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llana bilishlariga, dunyoqarash va e'tiqod hosil qilishlariga, aqliy va jismoniy mehnat, ko'nikma va malakalarini egallashlariga, bilish va ijodiy qobiliyatlari o'sishiga yordam berishni ta'minlovchi usullaridan iboratdir.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'limi metodlari sistemasidan turli foydalanilgan taqdiridagina ta'lim-tarbiya ishlari sohasida yaxshi natijalarga erishish mumkin. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'limi metodlari sistemasi deb eng muhim umumiy belgilari bilan o'zaro bog'langan, bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan metodlar gruppasiga aytiladi. Bu metodlarning umumiy muhim belgilari o'qitish va o'rganish usullari hamda o'qituvchi va o'quvchilarning tafakkur faoliyatidan iboratdir.

Bir-biri bilan bog'langan o'qitish metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: 1) og'zaki o'qitish metodi, bu metod o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

- a) og'zaki ta'lim metodi;
 - b) bosma tekstlar yordamida o'qitish metodi;
- 2) ko'rsatmali ta'lim metodi;

3) ta'limning amaliy metodi.

O'qitish usullari va o'quvchilar tafakkur faoliyatining turli formalari o'rtasidagi o'zaro aloqa va ularning bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri asosida bir tizimdagi metodlarning o'zaro bog'liqligi yuzaga keladi. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimi tajribasida ko'rsatmali o'qitish deyarli hech qachon o'qituvchining bayonisiz qo'llanilmaydi, o'qituvchining bayoni ham doim ko'rsatmali vositalarga suyanadi. O'quvchilarning texnika vositalari, tekstlar va boshqalar ustidagi amaliy faoliyati ta'limning ko'rsatmali va og'zaki usullari bilan chambarchas borliq bo'ladi.

Mazkur metodlar tizimi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi barcha o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin. Ammo ularning har qaysisi har bir o'quv predmeti, xususan tarix predmetining mazmunidagi o'ziga xos xususiyatlar, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalariga mos ravishda turli metodik usullarda foydalaniladi.

O'qitish usullari va o'quvchilarning o'rganish (bilish faoliyati) usullari turli ko'rinishlarda bir-biri bilan qo'shib o'qituvchi va o'quvchilar faol ishtirok etadigan o'quv-tarbiyaviy jarayonning yagona metodikani tashkil qiladi. Bu usullar guruhidan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, aks holda ta'lim-tarbiya jarayonida, o'qitish metodlarini belgilashda yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

O'qitish va o'rganish usullari ta'lim metodlarining tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga, o'qituvchi va o'quvchilarning faol tafakkur qilish faoliyati va xarakteriga mos bo'lgan xuddi shunday usullarni ham o'z ichiga oladi.

Ammo o'qitish usullari umumiy belgilar hamda muhim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan holda ta'lim metodlari bilan bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan o'qitish usullari barcha o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan didaktik metodlardan farq qiladi. Metodik usullar o'qitish predmeti tarix kursining mazmuni bilan bog'liq va unga faol ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, o'qituvchi darsga tayyorlanishida o'quv materialining mazmuniga muvofiq va bu materialning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan metodik usullarni (o'qitish va o'rganish usullarini) to'g'ri tanlab olishi kerak.

Ma'lumki, har bir darsga va darsdan tashqari mashg'ulotga tayyorlanish dars va mashg'ulot maqsadini, ularning ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashdan boshlanadi. O'quv materialining mazmuniga muvofiq uning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga yordam beradigan metodik usullarni to'g'ri va ilmiy asosda tanlab olish o'qituvchining bu boradagi nazariy bilim darajasi va metodik usullar sistemasini qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liqdir.

Ma'lumki, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursining mazmunini ayrim aniq va tipik voqealardan iborat faktlar tashkil etadi. Bu faktlar o'quvchilarga ijtimoiy hayotning barcha tomonlari, bu tomonlarning rivojlanishini va ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida bilim beradi, ularning aqli, o'yi, hayoli, sezgi va irodasiga ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy faktlarning xarakterli xususiyati shundaki, ularni bevosita hissiy tasavvurlar asosida o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun o'tmishga doir eng muhim faktlarni obrazli tasavvur etishning ahamiyati g'oyat kattadir. Obrazli tasavvurlar o'quvchilarning tarixiy voqealar haqidagi faktlarni jonli idrok etishlariga yordam beradi.

Shunday qilib, o'tmishning hayotiy voqealari haqidagi obrazli tasavvurlar o'quvchilar olgan tarixiy bilimlarining birinchi eng muhim tafakkur komponenti bo'lib xizmat qiladi. Ana shu asosda o'quvchilarda obrazli-tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning metodik usullarini guruhlariga ajratish mumkin: o'qituvchining voqeani suratlab tavsiflashi, syujetli hikoya, badiiy-tarixiy matnlarni o'qib berishi va o'qitishning boshqa usullaridan foydalanishi, shuningdek uning obrazli bayoni va suratlar asosida o'quvchilarning ham hikoya qilib berishi, insho yozishi kabi o'rganish usullari bir guruhni hosil qiladi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursida ta'lim-tarbiyaviy jihatdan juda muhim bo'lgan, keng va obrazli qilib yoritilgan faktlardan tashqari, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradigan boshqa faktlar, voqeaning sodir bo'lgan yili, joyining nomi va statistik ma'lumotlar ham beriladi. Ular juda qisqa, ba'zan ma'lumotnoma

shaklida bo'lsada, tarixiy jarayonni bir butun yaxlit tasavvur etish, tushunchalar tizimini va ijtimoiy rivojlanishning qonuniyatlarini to'liq o'zlashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, o'quvchilar xotirasida saqlab qolinishi kerak bo'lgan tarixiy materiallar tarixiy bilimning ikkinchi muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Tarix o'qitish amaliyotida tarixiy materiallarni puxta va mustahkam o'zlashtirishga yordam beradigan ko'pgina samarali usullar bor. Materialni bayon qilib borishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv materialini yuzasidan og'zaki va yozma reja, voqealar taqvimini va xronologik jadvallar tuzishlari, raqamlarni yozish, grafika yozuvlarini olib borishlari, diagrammalar chizish va aplikatsiyalardan foydalanishlari, yozuvsiz xarita va daftarda yozuv-chizuv ishlarini olib borishlari shular jumlasidandir.

O'quv materialini o'quvchilarning xotirasida mustahkam o'rnatishiga yordam beradigan bu va shunga o'xshash boshqa usullarni birinchi gruppaga kirgan usullar bilan o'zviy bog'langan ikkinchi gruppaga kiritish mumkin.

Shuni aytish kerakki, obrazli-tarixiy tasavvurlarni shakllantirish, tarixiy faktlar, xronologiya va boshqalarni xotirada mustahkam saqlab qolish tarixni o'rganishning birinchi bosqichini tashkil etadi, xolos. Uning eng muhim ikkinchi bosqichi — tarixiy tushunchalarni shakllantirishdir.

Tushuncha o'quvchilarga konkret tarixiy faktlar va qonuniyatlarni, ularning muhim belgilari va xususiyatlarini umumlashtirib tushuntirish va ularni o'quvchilarning puxta tushunib olishi bilan yuzaga keladi.

Tushunchani shakllantirish juda murakkab va serqirra jarayondir. O'qituvchi va o'quvchilar o'quv materialini ustida chuqur va faol fikr yuritib, uni tahlil qilishlari va umumlashtirishlari lozim. Tarixiy tushuncha o'quvchilardagi tarixiy bilimlarining uchinchi eng muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Tarixiy tushunchalarni o'zlashtirish juda katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tushunchalar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi, ularning tafakkur faoliyatini, bilish malakalari va qobiliyatlarini o'stiradi.

Keyingi yillarda, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida amaliyotida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, tarixiy tushunchalarni, jumladan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tushunchalarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydigan o'qitish va o'rganishning samarali usullari ishlab chiqildi.

Tafakkur qilishning psixik jarayoniga suyanadigan bu usullar har kaysi tarix o'qitish metodiga metodik usullarni uchinchi guruhi bo'lib kirishi mumkin, ular birinchi navbatda o'qituvchining tushuntirib berishi, muammoli bayoni, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning tarixiy hujjatlarni tahlil qilishi, mantiqiy vazifalarni yechishi va evristik suhbatdan iboratdir.

Shunday qilib, mazmunning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim-tarbiya vazifalari, o'quv materialining mantiqiy tuzilishiga muvofiq ruhiy jarayonlarning, idrok qilish, xotirada saqlashning, tafakkur va tasavvur qilishning bir-biriga ta'sir ko'rsatishini e'tiborga olib, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limining bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi metodik usullar tizimini belgilash mumkin:

1. O'quvchilarda tarixiy faktlar haqida obrazli tasavvurlarni shakllantirish usullari.
2. O'quvchilar xotirasida tarixiy faktlar, xronologiya, mahalliy va statistik ma'lumotlarni mustahkamlash usullari.
3. Tarixiy materialni o'zlashtirish va o'quvchilarda tarixiy tushunchalarni shakllantirish usullari.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bu usullarning barchasi va bilimlarning barcha tarkibiy qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan holda ishtirok etadi. Metodik usullarni tanlash o'quv materialining xarakteri bilan bog'liqligini, u yoki bu tarixiy materialni o'rganishga qanday usullardan foydalanish kerakligini bilish bilan birga ularni o'quvchilarning bilimi va bilish malakalariga muvofiq tarzda qo'llash mahoratini ham egallash kerak.

Hozirgi kunda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimlari amaliyotida qo'llanib kelinayotgan, amaldagi o'qish metodlarini asosan uch guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin: 1. Og'zaki bayon qilish metodi. 2. Ko'rgazmalilik metodi. 3. Amaliy metod.

Asosiy tushunchalar.

O'qitish metodlari — o'qituvchilarning aktiv fikrlash asosida o'quvchilarni o'qitishga, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning ilmiy bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llana bilishlariga, dunyoqarash va e'tiqod hosil qilishlariga, aqliy va jismoniy mehnat, ko'nikma va malakalarini egallashlariga, bilish va ijodiy qobiliyatlari o'sishiga yordam berishni ta'minlovchi usullar.

Takrorlash uchun savollar

1. A.I.Strajev qaysi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi.
2. Hozirgi kunda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimlari amaliyotida qo'llanib kelinayotgan, amaldagi o'qitish metodlarini ayting.
3. I.Ya.Lernerning o'qitish metodlarini guruhlashrshiga munosabatingiz.
4. O'qitish metodlariga ta'rif bering.

Mavzu. Tarix darsining didaktik asoslari

Reja:

- 1. Ta'lim vositalari – tarix bilimlari manbai.**
- 2. O'quv metodik komplekslar mazmuni.**
- 3. Ta'limning didaktik vositalari.**
- 4. Darslik matni ustida ishlash.**

Tayanch iboralar


Ta'lim vositalari ularning tarix o'qitishdagi ahamiyati, o'quv metodik komplekslarning tuzilishi, texnik vositalar.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishda qo'llaniladigan matnlarga — darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlari, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar va boshqalar kiradi. Bosma matnlar o'quvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo'lgani kabi o'qituvchining bilim manbaini, bayonining asosini tashkil etadi. Tabiiydirki, o'qituvchi shu manbalardan to'g'ri va unumli foydalangan taqdirdagina, uning bayoni didaktika talablariga, umuman o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limining yuksak talablariga javob berishi, o'qituvchi bayonining o'quvchilarga tushunarli, mazmundor, maroqli, g'oyaviy va ilmiy jihatdan ishonarli, obrazli va ta'sirli bo'lishi mumkin. Shuningdek matnlar ustida ishlash o'quvchilar bilimini kengaytiradi, tarixiy fakt va hodisalarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini chuqurroq tushunib olishlariga yordam beradi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tarixiy fikrlash hosil bo'ladi, ular tarixiy voqealarga nuqtai nazardan baho berishga o'rganadilar. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quvchilari har xil matnlar ustida ishlab mustaqil ish olib borish malakasini hosil qiladilar va tarixiy tadqiqot ishlarining dastlabki metodlari bilan amaliy ravishda tanishadilar.

O'qituvchi o'zining bayonini boshqa matnlar asosida yanada aniqlashtiradi va boyitadi. Darslik matni o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari tarixni o'rganish, o'zlashtirish va uni esda saqlab qolishining, bilish faoliyatining, ijodiy izlanish ishlarini olib borishning muhim manbaidir. Matn va ulardagi savollar, topshiriqlar tarix kursining mazmunini ijodiy o'zlashtirishga va olingan bilimlarni hayotda qo'llashga o'rgatadi.

Darslik matni ustidagi ishlar o'quv materialini o'zlashtirish va uni esda saqlab qolish o'quv matnini tahlil qilish va undan tarixiy voqea, hodisalarning muhim belgilarini topish, faktik materiallarni va tarixiy faktlarning muhim belgilarini bir-biriga taqqoslash, aniqlashtirish va umumlashtirish kabi turli xil maqsadlarda olib boriladi. Shuningdeq tekst ustida ishlashda xronologiyani tayyor tarixiy tushunchalar ta'rifini o'zlashtirish va ularni mustaqil aniqlash, darslikda bayon qilingan voqea va hodisalarning rivojlanishini kuzatib borish, aniq tarixiy faktlar va statistik ma'lumotlar asosida ijtimoiy rivojlanish an'alarini bilib olish, mahalliy, vaqtli, sabab-natijali va tarixiy aloqalarning qonuniyatlarini o'zlashtirish va aniqlashtirish, lug'at ishlarini mazmunli va suratli rejalar, jadvallar tuzish va boshqa shu kabi uncha murakkab bo'lmagan yozuv va grafika ishlarini olib borish, matn ustida programmalashgan ta'lim elementlarini amalga oshirish kabi vazifalar ham ko'zda tutiladi.

2.O'quv metodik komplekslar mazmuni.



O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tajribasida darslik matni ustida ishlashning quyidagi usullari mavjud:

1. Tushuntirib va izohlab o'qish. 5-sinfda "Tarixdan hikoyalar"ni o'rganishda va 6-sinfda "Qadimgi dunyo tarixi"ni o'qitishning dastlabki oylarida o'qituvchi butun mavzu yoki uning biror bo'limini goh bayon qiladi va goh darslik matnini o'qib, tushuntirib beradi. O'qituvchi matnni murakkab joylariga kelganda hikoyasini to'xtatib, matnni ovoz chiqarib ohista o'qib beradi, o'quvchilar esa matnga qarab kuzatib borishadi, tushunish oson joylarni o'quvchilarning o'zlariga ham o'qitish mumkin. Tekstni o'qish jarayonidayoq uning mazmunini o'quvchilarning tushunish darajasi tekshiriladi. Qani Rustam aytib bergin-chi, mana bu abzatsdagi «eng qadimgi odamlar kollektivi odamlar to'dasi»— degan jumlaning qanday tushunasan? Eng qadimgi odamlarning hozirgi odamlardan farqinichi? O'qituvchi ana shu tariqa savollar berib o'zining bayoni davomida darslik tekstiga tez-tez murojaat qilib, undagi yangi iboralar, terminlarni, qiyin jumlar mazmunini tushuntirib beradi. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarni darslik tekstini e'tibor berib, tushunib o'qishga o'rgatadi, ularning darslik matnini puxta o'rganib olishning ahamiyatini anglab olishlariga yordam beradi, uyda darslik ustida mustaqil ishlashlariga tayyorlaydi. O'quvchilar tarixiy materialni tushunib, matnni o'qishda ma'lum darajada malaka hosil qilganlaridan keyin matnning eng muhim va qiyin joylarini izohlab o'qishga o'tiladi. Izohli o'qish ham o'qituvchining bayoni bilan birga olib boriladi. O'qituvchining o'z bayoni davomida darslik matnini, xususan matndagi ayrim murakkab joylarni izohli o'qish usuli hamma sinflarda, hatto o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida ham qo'llaniladi.

2. O'qituvchining o'z bayonida o'quvchilar diqqatini darslik matnidagi ayrim jumlar va iboralarga jalb etadi. Masalan, o'qituvchi 6-sinf "Qadimgi dunyo tarixi"dagi «Chorvachilik va dehqonchilikning boshlanishi»—degan mavzuni hikoya qilib berayotganda, darslikning 23-betidagi "Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi ibtidoiy odamlar hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi», yoki «Qadimgi Misrning tabiati va aholisining mashg'ulotlari»—degan mavzuni hikoya qilishdan oldin, darslikning 40-betidagi «Odamlarning zo'r berib qilgan mehnati tufayli, Nil vodiysining qiyofasi o'zgarib borganligi, Misr odam yashashi uchun deyarli yaroqsiz bo'lgan bir joydan aholisi gavjum bo'lgan dehqonchilik mamlakatiga aylanganligi» haqidagi jummalarga o'quvchilarning diqqati jalb qilinib, so'ngra ularning ma'nosi tushuntirib beriladi.

3. Darslik matni mazmunini o'zlashtirishda uning har bir paragrafini tahlil qilish va ular ustida o'quvchilarning mulohazalarini uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Masalan, O'qituvchi o'quvchilarga darsda o'tilayotgan paragraf matnida qo'yilgan muammolarni va uning tematik tuzilishiini ajratib berishni topshiradi yoki o'quvchilar oldiga: «mana bu abzatsda nima haqda gapirilgan?» «unga qanday sarlavha qo'ysa bo'ladi?» degan savol qo'yiladi. Bu yo'l bilan o'quvchilar matnni e'tibor bilan o'qib, undagi bosh masalalarni ikkinchi darajadagi masalalardan ajratib olishga, ular asosida reja tuzishga o'rganadi.

4. O'quvchilar bob, paragraf va undagi punktlarni bir-biridan ajrata bilishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishdan oldin o'quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik sarlavhalarni o'qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasi bilan tanishtiradi, ularning mazmuni va ifodalanishidagi tafovutlarning sabablarini izohlab beradi. O'qituvchi o'zining bayoni davomida kichik sarlavhalar ichidagi mavzularga takror-takror qaytishi mumkin. Ayniqsa yangi tushunchalarga duch kelingan-da shunday bo'ladi.

5. Darslik matni mazmunini bevosita o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlar. Bu darslik matni ustida olib boriladigan ishning markaziy masalasidir. Bu ishlar matnni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy faktlarga baho berish, ular o'rtasidagi sabab va boshqa aloqalarni ochib ko'rsatish va ularni taqqoslashdan iboratdir. Bu ishlar quyidagi metodik usullar bilan:

a) har bir paragraf yoki mavzu mazmunining eng muhim masalalari yuzasidan test tuzdirish yo'li bilan;

b) o'qituvchi bergan savollarga o'quvchilarning darslik matnidan javob topish yo'li bilan);

v) darslik matnidan o'qituvchining xulosasini tasdiqlovchi faktlarni toptirish yo'li bilan;

g) darslik matnida bayon etilgan voqealarning bir-biriga o'xshashligini, farqlarini aniqlash yo'li bilan;

d) tasdiqlab berishni talab qiladigan vazifalar bilan amalga oshiriladi.

6. Darslik matni ustida ishlashning muhim elementlaridan biri — o'quvchilarni uyda ishlash uchun beriladigan vazifasini bajarishga o'rgatishdir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun topshirilgan vazifaning mazmunini va uni bajarish yo'lini yaxshi anglab olishlari shart. Binobarin, o'qituvchi uy vazifasini topshirishda, uning xarakterini belgilashda o'quvchilarning bilim va malakalarini e'tiborga olishi, har gal beriladigan vazifa oldingidan ko'ra murakkab bo'lishi va shu bilan ularning bilimlari va malakalari oshib borishiga xizmat qilishi lozim. Reja tuzish, shunga muvofiq hikoya qilishga o'rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish, jadval, sxema, diagrammalar tuzdirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish uy vazifasini ijodiy va mustaqil bajarish namunalaridir.

7. O'quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o'rgatish ham ta'limning muhim elementidir.

8. O'quvchilarning faol aqliy faoliyatining muhim metodlaridan biri, ularning o'qituvchi bayon qilgan yangi materialni o'zlashtirishda mavjud bilimlarni ishga sola bilishidir. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana bilishga o'rgatish lozim. O'quvchilar olgan bilimlarini esdan chiqarib yubormasliklari uchun vaqti-vaqti bilan ularning e'tibori darslik matniga qaratiladi.

9. Uyda ishlab kelish uchun berilgan topshiriqlarni o'quvchilar qanday bajarganliklarini tekshirishda ma'lum bo'lgan, og'zaki yoki yozma javoblaridagi xatolarni, aniqsizliklarni to'g'rilash uchun ham darslik matniga murojaat qilinadi.

Shunday qilib, darslik matni ustidagi ishlar turli xil metodik usullar yordamida, o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida — materialni o'zlashtirish, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini tekshirish paytlarida olib boriladi va hokazo.

Tarixiy hujjat avvalo, o'qituvchining bayonini konkretlashtirish, chuqurlatish va unga aniqlik kiritish uchun xizmat kiladi, bayonning ishonchli va emotsional bo'lishini ta'minlaydi, o'tmishning yorqin obrazlarini, tarixiy voqealarning yaxlit manzarasini gavdalandirishga, o'rganilayotgan davr xususiyatlarini anglab olishga yordam beradi. Hujjat ustida ishlash o'quvchilarni faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda aniqlashga, ularni puxta anglab olib, xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Shu bilan birga hujjat ma'lum vaziyatni aniqlashga, uni ahamiyatini bilib olishga, ularning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, o'quv ishlari faoliyatining yangi usullari bilan qurollantiradi, xujjatni tushunib olish malakasini hosil qiladi.

Tarixiy hujjatlar bilan ishlashning yana bir muhim tomoni shundaki, bu ish o'quvchilarni tarixiy tadqiqot metodining elementlari bilan tanishtiradi hamda ularni tarixiy hujjatlarga tanqidiy qarashga o'rgatadi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'limning yangi mazmuni amalga oshishi munosabati bilan tarix o'qitishda tarixiy hujjatlarning roli yanada oshdi. Yangi dastur asosida yozilgan darsliklar mazmunining asosiy qismini tarixiy hujjatlar tashkil etadi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham tarixiy hujjatlar bilan ishlash zaruriy bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu ish o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tajribasida ommaviy tus oldi.

Darsliklardagi tarixiy hujjatlar har bir sinfdagi o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi, o'sha sinfda o'rganiladigan tarix kursining xususiyatlariga qarab kiritilgan. Shu sababdan darsliklardagi tarixiy hujjatlar o'zlarining harakteri, ko'lami va mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiladi.

6-sinf o'quvchilarining yoshi, bilimi va ularning tarixiy hujjatlar bilan deyarli birinchi marta tanishishlarini e'tiborga olib, darslikka asosan hikoya va tavsiflab berish xarakteridagi hujjatlar kiritilgan. "Qadimgi dunyo tarixi" darsligiga kiritilgan hujjatli manbalarni asosan uch guruhga bo'lish mumkin: 1) moddiy madaniyat buyumlari, 2) tasviriy san'at asarlari, 3) yozma manbalar.

1) Moddiy madaniyat buyumlariga — bizgacha saqlanib kelayotgan yoki ilmiy asosda qayta tiklangan burungi mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari, uy-ro'zror anjomlari, turar joylar, qo'rg'onlar, maqbaralar, qadimgi shahar xarobalari va boshqalar kiradi. O'quvchilar mehnat qurollari va boshqalarga qarab, odamlarning mashg'ulotlarini, hashamatli imoratlar va pastqam kulbalar mavjudligini, diniy marosimlarga va kishilarning dafn qilinishidagi rasm-rusumlarga doir topilmalar asosida o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarini bilib oladilar.

2) Tasviriy san'at asarlariga — moddiy voqelikni, odamlar va ularning bir-biriga munosabatini hamda ularning tevarak-atrofidagi narsalarni — har xil buyumlarni, geografik muhitni bevosita tasvirlab beruvchi asarlar, odamlarning har xil xudolar, ruh-arvoqlar, jinlar, alvastilar, afsonaviy qahramonlar, devlar va hokazolar haqidagi xayoliy tasavvurlarini aks ettiruvchi asarlar kiradi.

3) Yozma manbalarga — qonunlar, buyruqlar, xo'jalik ishlariga doir yozuvlar, shartnomalar, xizmat vazifasiga oid yozishmalar, sud hukmlari, yilnomalar, xronikalar, memuarlar, shahar va mamlakatlar tasvirlab yozilgan asarlar, xatlar va yozuvlar kiradi. Qadimgi dunyo tarixida berilgan bu hujjatli materiallar o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning har bir yangi bosqichida darsliklardagi hujjatli materiallarning harakteri o'zgarib, ko'lami ortib va murakkablashib boradi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish tajribasida tarixiy hujjatlar bilan ishlashning quyidagi ikki usuli, ya'ni tarixiy hujjatlardan o'qituvchining bayonida foydalanish usuli bilan o'quvchilarning matni ustida ishlash usuli qo'llaniladi.

O'qituvchi o'zining bayonini aniqlashtirish va uning emotsionalligini oshirish maqsadida hujjatlardan olingan parcha, jumla, ifodalardan, yorqin obrazlar va harakteristikalardan

foydalanadi. Foydalanilgan hujjatlarning hammasining ham manbalarini aytish shart emas, «solnomachilar», «zamondoshlarning» ma'lumotlariga qaraganda degan umumiy iboralar bilan chegaralanilsa kifoya.

8-9-sinf o'quvchilarini ko'proq memuar xarakterdagi materiallar, tarixiy voqealarning zamondoshlari va qatnashuvchilari bergan ma'lumotlar qiziqtiradi. Foydalanilgan tarixiy hujjatning ko'rsatmasi bo'lishi kerak, bu ko'rsatma o'qituvchi bayonining ko'rsatmali va ifodali bo'lishini ta'minlaydi.

Tarixiy hujjat o'qituvchi bayonini, bayondagi xarakteristika va chiqarilgan xulosalarni tasdiqlaydi.

O'qituvchi darslik yoki xrestomatiyadan olingan hujjatning mazmuni va o'quvchilarning tayyorgarligiga qarab uni tahlil qilishi, sinf o'quvchilariga hujjat yuzasidan savollar berishi yoki umumlashtiruvchi analitik suhbat yordamida tahlil qilishi mumkin. Tarixiy hujjatlar ustida ishlashda o'quvchilar ularni nima uchun xizmat qilishini, tanishilayotgan hujjatlar qachon va kimlar tomonidan yaratilganini, ulardan nimalarni bilib olish mumkinligini tushunib olishlari lozim. Agar hujjatlarda tushunish qiyin bo'lgan terminlar uchrab qolsa, ular doskaga yozib tushuntiriladi, o'quvchilar lug'at daftarchasiga yozib oladi.

5-7-sinf o'quvchilarini ham hujjatlar bilan ishlashga qiziqtirib borish kerak. Masalan, 6-sinfda o'qituvchi o'quvchilar, hozir men sizlarga greklarning Marafon jangida ko'rsatgan qahramonligi to'g'risida mashhur grek shoiri Esxilning «Forslar» nomli asaridan qiziq bir parchani o'qib beraman, eshiting deydi.

Tarixiy hujjatlar ustida ishlashning turli usullari bor.

1. O'qituvchi tarixiy hujjatni o'zi tahlil qilib berishi mumkin.
2. Tarixiy hujjatlarni o'qituvchining bevosita rahbarligida o'quvchilar darsda tahlil qilishi mumkin.
3. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum hujjatlarni uyda mustaqil tahlil qilib kelishni topshirishi mumkin.
4. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhda hujjatlar bilan mustaqil ishlashni tashkil etish.

Tushunish qiyin bo'lgan murakkab tarixiy hujjatlarni o'qituvchining o'zi o'qiydi, tahlil qilib izohlab beradi. O'quvchilar matnni kuzatib borishadi va o'qituvchining tushuntirishlarini diqqat bilan tinglaydi. Yuqori sinflarda hujjat izoh berib o'qiladi. O'qituvchi hujjat yuzasidan o'quvchilarga savollar berib, muammolar qo'ysa, o'quvchilarning bilish va fikrlash faoliyati faollashadi. VI—VII sinflarda o'qituvchi hujjatni o'zi tahlil qilib beradi, ammo shu bilan birga o'quvchilarni hujjatlar bilan ishlashga ham o'rgatadi.

O'qituvchi hujjatlar bilan ishlashning yana bir usulini, ya'ni hujjatlarni o'quvchilar bilan birga tahlil qilish usulini qo'llaydi. Har bir tekstda ham oson va murakkab joylar bo'ladi. Tekstdagi murakkab joylarni o'qituvchining o'zi yoki suhbat yordamida savol-javob yo'li bilan tushuntiradi. Oson joylarini o'quvchilarga mustaqil o'qib o'rganishni vazifa qilib topshirish mumkin.

O'quvchilarga ularning bilim va malakalariga yarasha tushunarli hujjatlar tanlab berilgan va hujjatlar ustida mustaqil ishlashni ilgari ham mashq qilib ko'rgan bo'lsalar o'qituvchi vazifalar qilib bergan hujjatlarni mustaqil o'qib, puxta tushunib olishlari mumkin. Lekin bunda ham o'qituvchi bu ishga rahbarlik qiladi, qiyin joylarini o'qituvchi rahbarligida, oson joylarini o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganadilar. Xo'jalik, yuridik va shu kabi boshqa qiyinroq xarakterdagi hujjatlar o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi.

8-sinfdan boshlab ba'zi darslar soatining bir qismi yoki butun dars hujjatlar ustida ishlashga bag'ishlanadi. O'quvchilarning darsda va uydagi mustaqil ishlariga talab ortib boradi. Tarixiy hujjatlar asosida qisqacha axborot va referatlar tayyorlash, hikoya qilishga tayyorlanish, sxematik plan va boshqa grafika ishlarini bajarish, insho yozish va h. q o'quvchilarning hujjatlar ustidagi mustaqil ijodiy ishlari qatoriga kiradi. O'quvchilarni hujjatlarni o'rganishga qiziqtirish, bunga ularda ishtiyiq uyg'otish kerak. Buning uchun ularga hujjatlar ma'lum davrning moddiy yodgorligi va yangi bilimlarni egallashning muhim manbalaridan biri ekanligini alohida uqtirish

lozim. Hujjatni o'rganishda uning kim tomondan, qachon yoki qanday nuqtai nazaridan yaratilganini, usha vaqtdagi mamlakatning ichki va tashqi ahvolini tushuntirib berish zarur.

O'quvchilar "Qadimgi dunyo tarixi"ning kirish qismida yozma manbalar haqida ma'lum tushuncha hosil qiladilar. Keyinchalik bu tushunchalar har xil yozma yodgorliklarni o'rganib borish, turli muzey va arxivlardagi yozma yodgorliklar bilan tanishish jarayonida aniqlashib, boyib kengayib boradi.

Shunday qilib, tarixiy hujjatlar o'qituvchi bayonini aniqlashtiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, unga aniqlik kiritadi, ishonarli va emotsional bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, bilimlari puxta va mustahkam bo'lishiga yordam beradi, bilim olishning yangi usullari, ilmiy tadqiqotning elementar shakllari bilan tanishtiradi.

Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o'qituvchi bayonining ko'rsatmaliligini ta'minlaydi, uni aniqlashtiradi, o'quvchilar o'tmish haqida jonli tasavvur hosil qiladi. Badiiy adabiyotning roli bu bilan tugamaydi.

Ma'lum davrning ijtimoiy hodisalarini real aks ettiruvchi haqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o'sha ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalaydi.

O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan namunalar bayonning emotsional bo'lishini ham ta'minlaydi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayrixoxlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki hayrat tuyg'ularini tug'diradi.

Tarix o'qitishda foydalaniladigan badiiy adabiyotlarni: 1-o'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklari va 2-tarixiy belletristik asarlaridan iborat ikki guruhga bo'lish mumkin.

Adabiy yodgorliklariga tarixiy hodisa va voqealarni o'z zamondoshlari yozib qoldirgan asarlar kiradi. Bu guruhga kirgan asarlar tarix fani uchun o'tmishning o'ziga xos manbai bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyot yodgorliklari yozib olingan og'zaki ijodiyot asarlarini: afsonalar, dostonlar, qo'shiqlar, masallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlarning juda ko'pida voqelik qayta-qayta ishlangan, xalq fantaziyasi bilan boyitilgan va bezatilgan bo'ladi. Voqelikni ob'ektiv suratda tasvir qilgan asarlar, yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan taqdirda o'zoq o'tmishni, masalan qadimgi Gretsiya tarixini yoritib berishda ana shunday asarlardan ham tanqid g'alviridan o'tkazib foydalaniladi. Gomer davridagi jamiyat tarixi Gomer dostonlaridan va qisman Grek afsonalaridan olingan epizodlarni tahlil qilish asosida ta'riflab beriladi, Badiiy yodgorliklarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o'z zamonidagi jamiyatning g'oyasini aks ettiradi va buni o'quvchilarning tushunib olishlariga tarixiy hodisalar va arboblarning yorqin badiiy obrazlarini ravshan tasavvur qilishlariga yordam beradi. Shu bilan birga o'quvchilar badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi roli bilan ham aniq misollarda tanishadilar. Masalan, «Roland haqida qo'shiq» nomli asarda Karlning o'zi va uning jangchilari ideallashtirilib u olib borgan urushlar tarixi buzib ko'rsatiladi. Shu bilan birga, bu asar ritsarlarning mardligi, o'z sen'origa sodiqligi, fidokorligi bilan, shuningdek o'rta asrlar adabiyotining ana shu turi bilan tanishtiradi. «Roland haqida qo'shiq» shu adabiyot turining eng yaqqol namunasidir. Roland uydirma obraz bo'lsada undagi ajoyib fazilatlar o'quvchilarga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. O'rta asrlarda yaratilgan «Tulki haqida roman» dan shaharliklarning feodallarga munosabatini, ular o'rtasida keskinlashib borayotgan kurashini hamda uni yoritishda hajviyadan qanday foydalanilganligini o'quvchilar tushunib oladi.

Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda yaratilgan afsonalardan, qahramonlik dostonlari va boshqa adabiy asarlardan tarix darslarida foydalanganda, o'quvchilarni bu asarlarga tanqidiy ko'z bilan qarashga o'rgatib borish kerak. Shuningdek, ularga bu asarlar o'tmishdan qolgan badiiy yodgorliklar ekanligini, ulardan o'sha davrlarda bo'lib o'tgan voqealarga oid ba'zi ma'lumotlardan foydalanish va qay tariqa foydalanish mumkinligini, bu asarlarning qaysi joyi uydirma va qaysi joylarida real voqelik aks etganini tushuntirish lozim.

Belletristik asarlarga — tarixiy romanlar, tarixiy temalarda yozilgan povestlar, o'rganiladigan davr haqidagi badiiy asarlar, hikoyalar kiradi. Bu asarlar tarixiy manbalar, memuarlar va hujjatlar, ilmiy tekshirish ishlari va monografiyalarni o'rganish asosida yozilgan bo'lib, ularda o'tmish voqealari badiiy tasvirlar va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi.

Belletristika tarix fani uchun hujjatli manba bo'la olmasada, o'quvchilarga o'tmishni aniq tushuntirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy roman va povestlarni o'qish natijasida o'quvchilarda tarixga qiziqish uyg'onadi.

O'rganilayotgan davrga doir adabiy yodgorliklar tarix darslarida ko'pincha dars materialini xulosalash va umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Belletristika bayon qilinayotgan o'quv materialini aniqlashtirishga va bayonni maroqli qilishga yordam beradi.

O'qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'lim-tarbiya jihatidan qimmat tarixiy hodisalarning naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga oladi.

O'qituvchi tarix darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotdan:

a) o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida dasturida ko'zda tutilgan tarixiy voqealarning tasviriga;

b) tarixiy arboblarning va xalq ommasi vakillarining obrazlarini, xalq ommasining rolini ko'rsatishga;

v) muhim tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylarni va u yerlarning aniq sharoitini tasvirlashga va sh. k. larga bag'ishlangan asarlarni tanlaydi.

O'qituvchi o'z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari badiiy asarlarni o'qishlari ustidan olib boradigan ishlariga doim nazorat qilib boradi.

Umuman tarix darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish darsning samorodirligini oshiradi. Texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga o'quvchilarning o'quv materialini qiziqib o'rganishga va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi.

O'qitishning texnik vositalari (T.S.O) ekran qo'llanmalar ya'ni diafilmlar diapditivlar kodopditivlar, kinofilmlar, radio-teleeshittirishlar kiradi. Texnika vositalarining o'qituvchi quyidagi o'ziga xos o'quv qo'llanmasi ekanligi haqida uslubchi N.M.Shaxmaev "O'rta maktablarda o'qitishning texnik vositalarini qo'llanma didaktik talablar" asarida keng aytiladi. Ammo texnik vositalar o'qitish jarayonida o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi. Amaliyotda quyidagicha xolat yuz berishi mumkin, ya'ni bitta mavzudagi dars bo'yicha darslikda illyustratsiyalar, devoriy (tablitsa) jadvallar, doskaga sxematik suratlar ishlanishi mumkin, yana bundan boshqa diafilm, kinofilm va boshqa xillari ham bo'lishi mumkin. Masalan: Uyg'onish davri madaniyati haqidagi darsda darslikdagi (rangli) illyustratsiyalar, davriy tablitsalar (Nikiforov D.I.Kartino` po istorii srednix vekov. M., 1970) "O'rta asr madaniyati tarixi bo'yicha albom"dan (Nikiforov D.N.M., 1969) betlar, diafilmlar (XV asrning oxiri-XVII asrning boshidagi "G'arbiy Yevropa madaniyati", "Leonardo da Vinchi", "Muzeylardagi jahon san'ati shidevrlari-9 bo'lim, Italyan o'yg'onish san'ati"), kinofilm ("Uyg'onish davrining buyuk mohirlari". q-bo'lim. M., 1957, 1965) va boshqa radio, teleko'rsatuvlardan ham foydalanish mumkin. "Stalingrad jangi" diapozitivlarda (Vatan urushi, 4- bo'lim 20 kadr, "Volgogradni mudofaa qilish" g'0-kadr), "Volgadagi jang" filmida, 2 bo'lim. M.,1964 jang qatnashchilarining fonozapislarida (tarix bo'yicha fonoxrestomatiya. 999 "Ulug' vatan urusha") tasvirlangan. Albatta, hech bir darsda bularning hammasini foydalanish imkoniyati yo'q. Demak, nimani tanlash kerak, ular bilan ishlashni qanday tashkil qilish mumkin. Bu savollarga o'qituvchi o'qitish sharoitini va sinfning xususiyatlarini hisobga olib javob beradi. Dastavval bu qo'llanmalarning mazmunligi, qo'layliliga e'tibor berish kerak. Masalan, italyan uyg'onish davrining san'ati bo'yicha darsda ko'proq rangli diapozitivlardan yoki diafilmlardan parchalar deyarli jivopis asarning yaxshi qabul qilish imkoniyatini bera oladi. (O'quv diafilmlari, oq-qora tasvirdagi kinofilmlarda tasviriy materiallar ko'p berilgan bo'ladi, va ularni bu mavzu bilan birinchi bor tanishtirishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin). Agarda rangli ekran qo'llanmalari bo'lmasa, D.N.Nikiforov albomdagi tablitsalardan foydalaniladi. Mavzuni uyda mustaxkamlash va takrorlash uchun darslik illyustratsiyalari beriladi. Kinofilmlar esa kelgusi darslarda parchalarda bo'lsa ham qo'llanilishi mumkin. Unda o'quvchilar ulardan yangi bo'lgan tomonlarini anglay olishlari kerak. Ekran ko'rsatmaliligining o'qituvchi uchun eng qo'laylisi bu diafilm va dipozitivlardir. Tarixiy vaqealarni qamrab olish, syujetlarning har xilligi bo'yicha, tasviriy materiallarga boyligi bilan boshqalaridan ustun turadi. Diapozitivlarni ko'rsatish

izchilligini o'qituvchining o'zi aniqlab beradi. Kadrlarga tayanib o'qituvchi hikoya qilish, tushuntirish va suhbat o'tkazish mumkin. Agar texnik imkoniyatlar bo'lsa ekranda ikkita kadrni ko'rsatish mumkin. Bunda masalan taqqoslash uchun, o'zgarishlarni aniqlash uchun kerak bo'ladi, aytaylik shaharlarning ko'rinishida, mehnat kurslaridagi har xil tarixiy davrlardagi o'zgarishlar va hokozolarni ko'rsatish mumkin bo'ladi. Maktab amaliyotida kodoskoplardan foydalaniladi. U ekranda yoki sinf doskasida matnlarni, sxematik rasm, chizilma, diagrammani ko'rsatishda qo'llaniladi. Shuningdek, kodoskop bilan ishlashda xonani qorong'ilotmoq talab qilinmaydi. Bu o'quvchilarning materialni nafaqat ko'rishlarini balki matnlardan kerakli joylarini daftarlariga yozib olishlariga ham imkon beradi. O'qituvchi ham o'quvchilar bilan kontakti yo'qotmaydi. Teleeshitirishlar, kinofilmlar qisqa vaqt ichida keng ma'lumot bera oladi. Ular orqali tarixiy voqealar qatnashchilarining (akterlar ijrosida) jonli ovozi eshita oladi. Telekursatuvlar filmlarga nisbatan (aktual) dolzarblikka ega. Ular orqali ayniqsa o'quvchilar yaqin vaqtlardagi voqealar bilan tanishib boradi. Bularga nisbatan filmlarni ishlashning o'ziga ancha vaqt ketadi. Kinofilmni o'quvchilarga ko'rsatishdan oldin, o'qituvchining o'zi uni sinchiklab ko'rib chiqishi va o'rganishi lozim. Tarix o'qitish tajribasida o'quv filmlaridan foydalanishning bir qancha usullari bor:

a) o'qituvchi o'z bayonini o'quv filmining eng muhim va yorqin sahifalarini ko'rsatish bilan bog'lab olib boradi;

b) 10-15 minutda qisqa o'quv filmlariga bag'ishlab dars o'tkaziladi;

v) maxsus kino darslari tashkil etiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston xalqlari tarixi va boshqa fanlarni o'qitishda teleeshitirishlarning ikki xilidan foydalanilmoqda:

1) sinfda qabul qilish uchun beriladigan ertalabki teleko'rsatuvlar

2) o'qishdan tashqari vaqtdagi teleko'rsatuvlar

O'quv teleko'rsatuvlarini qabul qilish uchun maxsus tarix xonasi bo'lishi kerak. Tarix darsida o'quv teleko'rsatuvlarining ikki xil turi qabul qilinadi:

a) 15 minutlik teleko'rsatuv

b) 30-40 minut davom etadigan yangi materialni bayon qilishga bag'ishlangan tematik teledars yoki takrorlash darsi²

O'qituvchi darsda kino parcha yoki teleko'rsatuvni ko'rsatganda, ularning bilim berish jarayonidagi funktsiyasini aniq bilish kerak bo'ladi. Murakkab va ma'suliyatli, bu kinofilm, teleko'rsatuvlarni mavzu bo'yicha asosiy bilim manbai sifatida qabul qilish ya'ni amalda buni tele ya'ni kinodars deb atashadi. Bunga o'qituvchi ham o'quvchilar ham e'tiborsiz qaramasligi kerak va u katta tayyorgarlikni talab qiladi. Dars oldidan o'quvchilarni ekrandan qanday ma'lumot olishlari kerakligini aytib, tushuntirilib, tayyorlanish ham yaxshi usul. Unda film (ko'rsatuv) ko'rish paytida bajarishlari lozim bo'lgan topshiriqlar berish mumkin. Bunga film bo'yicha savollar, reja tuzish (ular doskaga yozib qo'yiladi) kiradi. O'quvchilar javob izlashi kerak. Ko'rish paytida bunday topshiriqlar ko'pincha yuqori sinf o'quvchilariga beriladi. Ko'rish paytida o'qituvchi muhim kadrlar paytida o'quvchilarning e'tiborini jalb qilib, tanish bo'lmagan terminlarga, geografik atamalarga aniqlik beradi, ismlar, sanalar doskaga yozib qo'yladi. Shuningdek, teleekran tarix o'qitishda ko'rsatmalilikning samorodorigini yanada oshiradi. Tarix o'qitish tajribasi tele dars g'oyaviy-tarbiyaviy va didaktik jihatdan boshqa ko'rsatmali vositalardan ko'ra ancha qulay va afzal ekanligini isbotladi.

Asosiy tushunchalar

Metod — 1) tabiiy va. ijtimoiy hayot hodisalarini tatbiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika - biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar to'plami.

Moddiy madaniyat buyumlariga — bizgacha saqlanib kelayotgan yoki ilmiy asosda qayta tiklangan burungi mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari, uy-ro'zror anjomlari,

² Sa'diev A. Maktabda tarix o'qitish metodikasi.T., 1999, 192-bet.

turar joylar, qo'rg'onlar, maqbaralar, qadimgi shahar xarobalari va boshqalar kiradi. O'quvchilar mehnat qurollari va boshqalarga qarab, odamlarning mashg'ulotlarini, hashamatli imoratlar va pastqam kulbalar mavjudligini, diniy marosimlarga va kishilarning dafn qilinishidagi rasm-rusumlarga doir topilmalar asosida o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarini bilib oladilar.

Tasviriy san'at asarlariga — moddiy voqelikni, odamlar va ularning bir-biriga munosabatini hamda ularning tevarak-atrofidagi narsalarni — har xil buyumlarni, geografik muhitni bevosita tasvirlab beruvchi asarlar, odamlarning har xil xudolar, ruh-arvohlar, jinlar, alvastilar, afsonaviy qahramonlar, devlar va hokazolar haqidagi xayoliy tasavvurlarini aks ettiruvchi asarlar kiradi.

Yozma manbalarga — qonunlar, buyruqlar, xo'jalik ishlariga doir yozuvlar, shartnomalar, xizmat vazifasiga oid yozishmalar, sud hukmlari, yilnomalar, xronikalar, memuarlar, shahar va mamlakatlar tasvirlab yozilgan asarlar, xatlar va yozuvlar.

Takrorlash uchun savollar

1. O'quv metodik komplekslarga nimalar kiradi?
2. O'qitishning texnik vositalaridan foydalanishning ahamiyatini tushuntiring.
3. Zamonaviy texnik vositalardan foydalanish usullari haqida gapiring.
4. Darslik matni bilan ishlashning qanday usullaridan foydalaniladi?
5. Darslik matni bilan ishlashning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?

Mavzu: Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning rivojlanishi va kamol topishi.

REJA:

1. Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini hosil qilish.
2. Ko'nikma va malakalarini hosil qilishda kurslararo predmentlarning roli.
3. Maktabda tarix o'qitishning tarbiyaviy xarakteri.
4. O'quvchilarning kamol topishida tarix fanining ahamiyati.

Tayanch iboralalar

Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning rivojlanishi va kamol topishida ko'nikma va malakalarni hosil qilish yullari, bunda tarix fanining ahamiyati.

Tarix kursini o'qitishda o'quvchilarning fikrlashga asoslangan malaka va ko'nikmalarini hosil qila borish vaziflari – bu tarixiy bilimlarni mustaqil sur'atda topib, bir tizimga solib, ularni amalda tadbiq eta bilishga o'rgatish, pirovardida esa o'quvchilarni o'tmishdagi hamda hozirgi zamondagi ijtimoiy hodisalarga nisbatan ilmiy materialistik nuqtai nazardan yondashishga o'rganish demakdir. Nutqni o'stira borish ham o'quvchilarning va ularda aqliy mehnat malakalari hamda ko'nikmalarini hosil qila borish bilan bog'langandir. Biz maktabda o'qitiladigan tarixning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarix kursini o'qitish davomida hosil qilina boradigan malakalar guruhlarini shartli ravishda ajratib ko'satamiz.

1. Tarixiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish hamda tarixiy voqealar va hodisalardagi eng asosiy va muhim narsani, ularning muhim belgilari va bog'lanishlarini ajratib chiqish, tarixiy tushunchalarga ta'riflar berish malakalari.

2. Tarixiy bilim beruvchi manba mazmunini mantiqiy jihatdan bir necha qismga ajratish, umumiy mantiqiy sxemasni bir turdagi tarixiy hodisalar hamda voqealarni tahlil qilishda deduktiv suratda tadbiq etish malakalari.

3. Tarixiy dalillar va jarayonlarni o'z doirasida qarab chiqish hamda vaqt jihatdan ular o'rtasidagi nisbatni aniqlash xronologik va sinxronistik jadvallar tuzish malakalari.

4. Tarixiy hodisalarning joyini aniqlash, tarixiy xaritani "tilga kirgizish", undagi izohlar va shartli belgilardan xatosiz foydalanish, yozuvsiz xaritani tarixiy mazmunda to'ldirish malakalari.

5. Tarixiy voqealar, hodisalarni taqqoslash, ularning umumiy xususiyatlarini topish malakalari ;

6. Tarixiy dalillarni tahlil qilish va taqqoslash asosida indektiv va deduktiv xulosalar chiqarish usulidan foydalangan holda yakunlar yasash, yakunlarni berilgan baholarini asoslab berish, taxiriy dalillar umumiy xulosalarga tayangan holda to'g'ri isbotlay olish malakalari;

7. Tarixiy materiallarni og'zaki yoki yozma tarzda bayon eta bilish, izchil tarzda obrazli qilib bayon etishning turlaridan hikoya qilish, tasvirlash, usullaridan foydalana bilish, savollarga qisqa atroflicha javob berish, hamda o'z o'rtoqlariga savollar berish, ularning javoblarni tanqidiy nuqtai nazardan baho berish malakalari;

8. Axborotlar, dokladlar, referatlar, siyosiy axborotlar tayyorlash, hamda ularni o'tkazish, kichikroq hajmdagi ilmiy – ommabop materiallari tayyorlash malakalari;

9. Tarixiy matn mazmunini yoki o'qituvchi hikoyasini rejalarini, tarixiy voqea yoki hodisani tahlil qilish rejasini, taqqoslash rejasini tuzish, reja, ishlanma, tezislar tuzish, o'qituvchi tushuntirib bergan asosiy qoidalarini qisqacha yozib borish, kitoblardan ayrim joylarini yozib olish, ma'lumotlar beruvchi tarixiy adabiyotlardan foydalana bilish malakalari.

O'quvchilar tafakkuri va nutqining o'sa borishi, malaka va ko'nikmalarning hosil bo'la borishi, bilimlarni egallash va ularni tadbiiq etish, ular bilan ish olib borish jarayonida yuz beradi. Bilimlar bilan malakalar o'rtasida o'zaro bog'lanish va bir – biriga bog'liqlik bor. Kishi aqliy faoliyatning onglik xarakteri unda hosil bo'lgan bilimlar tizimi bilan belgilanadi. Bilim hamma vaqt tegishli malaka va ko'nikmalar tizimiga tayanadi. O'z navbatida yangi malaka va ko'nikmalar vujudga kelishi uchun zamin hisoblanadi. O'qitish jarayonining har qaysi bosqichida bilimlar, malaka va ko'nikmalar o'rtasidagi o'zaro nisbat o'quvchining aqliy jihatdan yetuklik darajasini ham belgilaydi. O'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini hosil qila borishga qaratilgan ishning muvaffaqiyatli chiqishi ko'pgina shart – sharoitlarga bog'liq. Tarix o'qituvchisi birinchi navbatda u yoki bu sinfda bundan ilgari hosil qilingan bilim va malakalarning qanday doiraga tayana olish mumkinligini, ayrim o'quvchilarda qanday malaka yaxshi hosil bo'lmaganligi yoki yo'qligini aniqlab olishi zarur. Ana shu asosda o'quvchilarni turli guruhlarga hamda ayrim o'quvchilarga nisbatan bundan keyin differensial yo'sinda yondashishga o'tiladi. O'qituvchi ish jarayonida o'quvchilarning bilim va malakalar hosil qilishda qanday darajada ekanliklarini doim tekshirib va hisobga olib boradi. Hosil qilingan malaka o'qituvchilarning o'zlariga tanish turdagi yangi sharoitlar, yangi o'quv materiali asosida mustaqil suratda bajarish olish, ya'ni o'quv vazifasini bajarishda tashabbus ko'rsatib yangi sharoitlarda tadbiiq eta olish vazifalarini hal etishning yangi usullarini topa bilish qobiliyati demakdir. Aqliy faoliyatning muayyan usullarini egallab olish malakalar hosil qilishning asosini tashkil etadi. Malaka egallab tadbiiq etishda qanchalik mustaqil ish tutishi hamda usulda tadbiiq etiladigan hodisalar doirasining qanchalik kengligi bilan belgilanadi.

Aqliy faoliyatning muayyan usullarini egallab olish malakalar hosil qilishning asosini tashkil etadi.

O'quvchilar bironta malakani, masalan, tarixiy hodisalarni taqqoslash, isbotlash berish malakasini hosil qilmoq uchun o'qituvchiga o'sha mantiqiy vazifaning maqsad va mohiyatini, hamda uni bajarish usullarini tushuntirib, ularni aniq tarixiy materialga tadbiiq etgan holda ko'rsatib beradi. Ko'rsatib berish paytida mazmuni uncha murakkab bo'lmagan material: taqqoslash uchun – moddiy madaniyatga doir ikki narsa, xulosa chiqarish uchun – darslikning bir necha rejasidan iborat matni va shu singari tanlangani ma'qul.

Shundan keyin o'qituvchilar qanday ishlash usullarini ko'rsatib berilgan materialga o'xshash tarixiy materiallar va mantiqiy materiallar bilan ish olib borishni o'qituvchi rahbarligida endi o'zlari bajaradilar. O'qituvchilar bu usullarni qadam – ba qadam o'zlari bajaradigan bo'ladilar. Dastlab bu ishni yaxshi o'quvchiga topshirish yoki shu ishni izchil suratda pog'onama – pog'ona bajarishga butun sinfni jalb etib, uni evristik usulda o'tkazish mumkin.

Keyinchalik o'qituvchi o'quvchilarni bunday usullarni shunga o'xshash materilga tadbiiq etgan holda, ularni yagona sharoitlarda qo'llay olishga ham o'rgatadi.

Usullarni yangi sharoitlarda qo'llash o'qituvchilar tomonidan avvalgi o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib ishlash jarayonida, masalan evristik usuldagi suhbat davomida amalga oshiriladi. O'quvchilar usulni egallay borgan sari, ular mantiyaiy vazifani tobora mustaqil va aniq bajara oladilar. Ular o'qituvchining harakatini endi shunchaki takrorlamaydilar, balki mantiyaiy vazifaniig maqsadi va ularning oldiga o'quv vazifasining shartlariga qarab, o'zlashtirilgan usullarga tayanganholda ish olib boradilar. Foydalanadigan usullar soni asta – sekin ko'paya boradi, shu bilan birga tobora ko'proq to'planib borgan bilimlardan foydalaniladi.

Malakani egallab olish darajasi aqliy faoliyat usullarini boshqa sharoitlarga tadbiiq etishda qanchalik mustaqil ish tutilishi hamda shu usullarni tadbiiq etiladigan hodisalar doirasining qanchalik kengligi bilan belgilamadi.

Tarixni o'qitish davomida o'quvchilar tafakkurini o'stira borish yuzasidan olib boriladigan ish har bir pedagogning umumiy vazifalaridan biridir, hamda fan va o'quv predmeti bo'lgan tarixning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan o'zining spetsifik maqsadlari hamda xususiyatlariga egadir. Tarix o'qituvchisi o'quvchilarni ijtimoiy – materialistik nuqtai – nazardan har bir ijtimoiy hodisani uning vujudga kelishi va rivojlanishida boshqa hodisalar bilan bog'lanishi hamda munosabatlaridan olib qarashda, hodisalarning sinfiy mohiyatiga ko'ra bo'lishga, tarixiy jarayonning umumiy ob'yektiv qonunlarini tushunishga o'rgatadi. Bu vazifalar V – VI sinflarda tarix kursini o'qitishda ham o'quvchilar uchun og'irlik qilmaydigan darajada qo'yiladi. O'quvchilarning bilimlari tobora chuqurlasha borishi va ko'paya borishi bilan ularning tafakkurini o'stira borishga qaratilgan vazifalar ham murakkablasha boradi. Tarix kursini o'qitishda o'quvchilarning fikrlashga asoslangan malaka va ko'nikmalarni hosil qila borish vazifalari bu tarixiy bilimlarni mustaqil sur'atda topib bir tizimga solib ularni amalda tadbiiq eta bilishga o'rgatish, pirovardida esa o'quvchilarni o'tmishdagi hamda hozirgi zamondagi ijtimoiy hodisalariga nisbatan ilmiy – materialistik nuqtai nazardan qarash demakdir.

Nutqni o'rganish, o'stira borish hamda o'quvchilarning tafakkurini o'stira borish va ularda aqliy mehnat malakalari, hamda ko'nikmalarini hosil qila borish bilan bog'langandir. Nutq – odamlarning bir – birlarini tushunish vositasigina bo'lib qolmay balki, fikrni yuzaga chiqarish hamda o'stirishdir. Tarix kursini o'qitishda nutq bilimlar orttirishning eng asosiy vositalaridan bir sifatida maydonga chiqadi. O'quvchilar tarixiy dalillarni, ular o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni, ularning umumiy va bir – biridan farq qiluvchi xususiyatlarini, tarixiy hodisalarni, tarixiy hodisalar va tarixiy shaxslarning xususiyatlarini ko'rsatmali o'quv qurollari bilan birgalikda so'z orqali bilib oladilar. O'quvchining nutqi, darslik matni, tarixiy hujjatlar, ilmiy ommabop va badiiy adabiyot asarlari o'quvchilarga bilim beradigan, so'z bilan ifodalangan eng muhim manbaalar bo'lish bilan birga ularning nutqini o'stirish vositalari ham hisoblanadi.

O'quvchilar tafakkuri va nutqini o'sa borishi, malaka va ko'nikmalarining hosil bo'la borishi, bilimlarni egallash va ularni tadbiiq etish, ular bilan ish olib borish jarayonida yuz beradi. Bu – bitta o'qitish jarayonining ikki tomonidir. Bilimlar bilan malakalar o'rtasida o'zaro bog'lanish va bir – biriga bog'liqlik bor. Kishi aqliy faoliyatning onglilik xarakteri, unda hosil bo'lgan bilimlar tizimi bilan belgilanadi. Bilim hamma vaqt tegishli malaka va ko'nikmalar tizimiga tayanadi va o'z navbatida yangi malaka va ko'nikmalar vujudga kelishi uchun zamin hisoblanadi. O'qitish jarayonining har qaysi bosqichidagi bilimlar, malaka va ko'nikmalar o'rtasidagi o'zaro nisbat o'quvchining aqliy jihatdan yetuklik darajasini belgilaydi. O'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini hosil qila borishga qaratilgan ishning muvaffaqiyatli chiqishi ko'pgina sharoitlarga bog'liq. Tarix o'qituvchisi, birinchi navbatda u yoki bu sinfda bundam ilgari hosil qilingan bilim va malakalarning qanday doirasiga tayana olish mumkinligi, ayrim o'quvchilarda qanday malakalar hosil bo'lmaganligi yoki yo'qligini aniqlab bilishi lozim. Ana shu asosda o'quvchilarni turli guruhlariga hamda ayrim o'quvchilarga nisbatan bundan keyin differensial yo'sinda yondashishga o'tiladi. O'qituvchi ish jarayonida o'quvchilarning bilim va malakalar hosil qilishda qanday darajada ekanliklarini doim tekshirib va hisobga olib boradi. U bolalarga bu yo'lda nimalarga erishganliklarini va bundan keyin nimalar ustida ishlashi

kerakligini bildirib boradi. Ish jarayonining har qaysi bosqichida ular oldiga maqsadlar qo'yib boradilar. Shuni esda tutish kerakki, bir yoshdagi va bir xil sinfdagi o'quvchilarda malakalarning o'sa borishi turlicha bo'ladi. Bu narsa o'quvchilarning aqliy jihatdan va umuman qanchalik o'sganligiga, shuning uchun ularning muayyan yo'nalishda oldindan qanday tayyorgarlik ko'rganligiga va uni mashq qilib borganligiga bog'liq bo'ladi.

Hosil bo'lgan malaka o'quvchilarning o'zlariga tanish turdagi vazifani yangi sharoitlarida, yangi o'quv materialini asosida mustaqil sur'atda bajara olish, ya'ni o'quv vazifasini bajarishda tashabbus ko'rsatib, yangi sharoitlarda malakani tadbiq eta olish vazifalarini hal etishning yangi usullarini topa bilish qobiliyati demakdir.

Tarix o'qitish metodikasi tarix fani bilan qisman bog'langandir. Tarixiy materiallar tarix fani va o'quv predmeti bo'lgan tarix kursining metodologik asosini tashkil etadi.

Tarix o'qish o'quvchilarga tarixiy voqelikni bilish yo'llari, tarixiy tadqiqotga o'xshab ketadi. O'quvchilar tarixni o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirib ko'rilgan va tahlil qilingan dalillar hamda ilmiy xulosalardan yangi dalillarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin. Biroq, o'quvchilarning tarixni o'rganishi ilmiy tekshirishdan farq qiladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar tarix fanini va uni ba'zi tadqiqot metodlarini bilib oladilar. Shunday qilib, tarix fani va tarix o'qitish metodikasi o'zining alohida o'rganish ob'yekti, vazifasi hamda tadqiqot metodiga ega, tarix fani kishilik jamiyatining taraqqiyoti jarayonini o'rganadi, kishilik jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilish, o'tmish va hozirgi zamonni yaxshi tushunib olishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi. Shu tariqa o'z predmeti, vazifalari va tadqiqot etish metodlariga ega bo'lgan tarix o'qitish metodikasini tarix fanlari qatoriga qo'shib bulmaydi. Tarix o'qitishda o'quvchilarning ishi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman ruhiy faoliyatini e'tiborga olmasdan turib ularning o'z faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu sababli metodika psixologiya fani bilan chambarchas bog'langandir. Tarix o'qitish jarayonida ustoz bilan shogirdlar o'rtasidagi yaqinlik, sog'lom va tetik kayfiyat vujudga keltirilishi o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish darsning samaradorligini oshiradi. Tarix o'qitish metodikasi ham tarix o'qitish jarayonida psixologiya faniga suyanadi. Psixologiya fani o'quvchilardagi ruhiy faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, metodika esa o'quvchilarning ruhiy faoliyatini ularning tarixiy materiallarni qanday o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarinigina tadqiq qiladi. Shuning uchun o'quvchilardagi ruhiy faoliyatning tadqiq etish metodlaridan ham qisman foydalanadi. Psixologiya ruhiy faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, metodika esa tarix o'qitishning mazmuni va metodik usullari bilan ruhiy faoliyat orqali erishiladigan natijalar o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni o'rganadi. Shuningdek, metodika ta'lim-tarbiya haqidagi fanning tarkibiy qismi bo'lgan didaktika bilan chambarchas bog'langandir. Uning mustaqil bir tarmog'idir. Metodika pedagogika jihatidan yaxshi natijalarga erishish maqsadida ham o'qitish jarayonini o'rganadi. Tarix o'qitish metodikasi pedagogika fanining bir tarmogi bo'lib, u o'zining mustaqil tekshirishlar predmetiga ega. Metodikaning nazariy qismini egallash tarix o'qitish jarayonini umumiy qonuniyatlarini bilib olishga va qonuniyatlardan yosh avlodga ta'lim berish borish ishini yanada takomillashtirish maqsadida foydalanishga yordam beradi. Tarix ta'limining mazmuni va sinf o'quvchilarining umumiy saviyasiga qarab bilishning umumiy qonuniyatlari turlicha namoyon bo'ladi. Tarix o'qitish metodikasi o'rganadigan eng muhim qonuniyatlardan biri o'qitish jarayonining rivojlanish qonuniyatidir. Bu rivojlanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi, bilim, ko'nikma va malakalarining hamda tafakkurning o'sib borishida namoyon bo'ladi. Tarixning har bir kursi, uning bo'limi va har bir mavzusi o'quvchilarning bilim olish, ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi bu kamol topishida muhim bir bosqich bo'lib xizmat qiladi. Quyi va yuqori sinflarda tarix o'qitishda tarixiy voqeyilikni bilishning umumiy qonuniyatlariga amal qiladi, bu qonuniyatlar ta'lim mazmuni metodlari, usullari va o'quv qo'llanmalari metodik tuzilishining rivojlanish qonuniyatidir. Bu rivojlanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari, bilimlari, malakalari va mantiqiy tafakkuri o'sib borishni aks ettiradi, ayni bir payta u o'sishni ra'batlantiradi va ta'minlaydi. Maktabda tarix o'qitishni o'quvchi pog'onama – pog'ona ko'tarila boradigan pillapoyaga o'xshatish mumkin, lekin o'quvchini yetaklab boruvchi

kishi butun pillapoyani, bosib o'tilgan pog'onalarni ham, bundan keyin chiqiladigan pog'onalarni ham ko'ra olish zarur, Har bir kurs mavzusi o'quvchilar saviyasi o'sishi, ularning bilim va malakalari rivojlanib borishi yo'lidagi pog'onadir. Metodikaning vazifasi tarixning ayrim kurslari ilmiy asoslari va umuman maktabda tarix o'qitishning asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Maktab tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirishda eng muhim shartlardan har bir darsning ta'lim – tarbiyaviy vazifalarini, shuningdek, uni bosh fanlar tizimida tutgan o'rnini aniq belgilash va shu asosda vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Har bir tarix darsiga va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarix o'qitish oldiga qo'ygan g'oyaviy – siyosiy va tarbiyaviy vazifalarni qandaydir bir belgisi amalga oshiriladi. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsda hal qilinishi kerak bo'lgan ta'lim – tarbiya vazifalari esa oldingi yoki kelgusi darslarda bajariladigan ta'lim – tarbiya vazifalarini ajralmas bir tarbiyaviy qismi ekanligini unutmasligi kerak. Boshqa xalqlarga do'stona munosabat, hurmat va izzat ruhini singirish uchun ularning tarixi, an'analari, madaniyati bilan, ezgu istaklari bilan tanishtirish lozim. Mehnatga, mehnatkashlarga izzat va hurmat hissini moddiy ishlab chiqarish tarixini o'rganish, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati, moddiy va ma'naviy boyliklarini ishlab chiqarishning negizini tashkil etuvchi mehnatkashlarning mehnati yo'lini ochib berishi lozim. Dinning kelib chiqishi, mohiyati, ilm – fanga va uning arboblari qarshi olib borgan ayovsiz kurashi dalillar bayonida, vazifalari, madaniyat tarixiga doir materiallar ta'rifi asosida esa estetik tarbiya vazifalari amalga oshiriladi. Tarixiy dalillar o'zining mazmuniga ko'ra o'quvchilarga qarab turlicha tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ezgu niyatlar ilhomlantiradi, zavq bag'ishlaydi, olijanob maqsadlarga undaydi, o'z xulq va maqsadlarini belgilab olishga yordam berishda, mardlik, vatanparvarlik, g'oyalarini singdiradi, sinfiy jamiyatning adolatsizligiga, ezuvchilarga qahr – g'azab, nafrat uyg'otadi.

O'qituvchi butun tarix kursining ta'lim – tarbiyaviy vazifalarining ayrim mavzularining ta'lim – tarbiyaviy vazifalar bilan bog'lab tushuntirmog'i lozim. Har bir darsning ta'lim – tarbiyaviy vazifalari o'zi – o'zidan emas, balki o'qituvchining ongli va rejali ishi asosidagina muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Masalan, VIII sinflarda O'zbekiston xalqlari tarix o'qitishning tarbiyaviy vazifalari uning mazmuni bilan belgilanadi. O'qituvchilarning ona yurt tarixiy taraqqiyotidagi dastlabki uch formtasiya ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm jamiyatlari tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishi, ularni tarixiy taraqqiyotning umumiyliigi va ahamiyati, jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi mehnatning qanday o'rin tutishini anglab tushunib olishlariga yordam beradi. Jamiyat hayotining va uning rivojlanishini ta'minlagan mehnatning o'zgaruvchanlik rolini o'quvchilarga ochib berish, ularni mehnatga va mehnatkashlarga, ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarga mehr – muhabbat va hurmat bilan qarashga o'rgatadi. O'quvchilar ajdodlarimiz buyuk madaniy va ma'naviy merosni barcha qirralari madaniyati taraqqiyotiga katta va o'lmas hissa qo'shgan Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, Navoiy tomonidan olg'a surilgan umumbashariy g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etishi tufayli zo'r qiziqish va ehtiromlar bilan o'rganilayotganligini bilib oladilar. O'zbekiston xalqlarining yangi davrdagi tarixining dastlabki bosqichlari mustamlakachilik asorati ostida o'tdi. O'zbekiston Xalqlari mustamlakachilik zulmi sharoitida ham ajdodlarimiz mehnat an'analarini davom ettirib, o'lkaning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdilar. O'quvchilarga O'zbekiston xalqlari tarixiy taraqqiyotiga ana shu uzviy bog'lanish, davomiylikni ochib berish katta ahamiyatga ega. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish jarayonida o'quvchilarga respublika xalqlari tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida o'zaro munosabatlar madaniyatining yuksak darajasi va insonparvarligi doimo ular turmush darajasi hamda ma'naviy sofligining eng muhim ko'rsatkichi bo'lib kelganligini chuqur anglab olishlarida yordam beradi va ularni an'anaga sodiq bo'lish va avlodlar ishini davom ettirish ruhida tarbiyalaydi. Shuningdek, O'zbekiston xalqlari tarixi bo'yicha hikoyalar o'quvchilarni vatanimiz xalqlarining o'tmish tarixi va hozirgi hayotiga doir eng muhim voqealar bilan tanishtiradi. Shuning uchun ham kurs o'quvchilarga g'oyaviy, siyosiy tarbiya berish, ularda

mehnatga muhabbat, yuksak va axloqiy sifatlarni tarbiyalashda dastlabki muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

VI– VII sinflarda tarix o'qitish natijasida ham ko'pgina bilimlarga erishiladi. Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi zamonamizdan qanchalik yiroq bo'lmasin, bu kurslarni o'qitish tarixiy dalillarga, xalqlar ommasining faoliyatiga, ijtimoiy sinflarning namoyondalariga, ijtimoiy g'oyaga va shu kabilarga nisbatan o'quvchilarga shaxsan emotsionalligi, o'quvchilarni dalillarga nisbatan shaxsan munosabatlarini bildirishga o'rgatish, ularni tarixdagi sevimli qahramonlar taqdiriga hamdard qilish – o'qitishning eng muhim tarbiyaviy vazifalarini: ya'ni mehnatga muhabbat va hurmat bilan qarash, mardlik, vatanparvarlik, sinfiy jamiyat adolatsizligini anglash va boshqa ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash vazifalarini bajara borishning zarur shartlaridan biridir. Tarix o'qitish davomida o'quvchilar qadimgi dunyo, o'rta asrdar, yangi tarix asarlarining, sa'nat asarlarining tushunib yetish yo'lida ancha malakalar hosil qila boradilar, bir necha yuz va ming yillar ilgari yaratilgan ajoyib sa'nat yodgorliklaridagi go'zallik nimada ekanligini ko'rib, o'rganib boradilar. Xullas, barkamol shaxs tarbiyasida tarix fanining tutgan o'rni beqiyos va g'oyat muhimdir.

Maktabda tarixga doir o'quv – tarbiya ishlarini olib borishning asosiy shakli darsdur. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish hamda ularni bilish qobiliyatlarini, ko'nikma va malakalarini o'stirishga qaratilgan turli xil ish olib boradi. Har bir dars mavzu va kurs yuzasidan o'tiladigan darslar yagona tizimi – zanjirlarning bir halqasi bo'lib, tarixga doir boshqa darslar bilan, butun o'qitish tizimi bilan chambarchas bog'langan bo'lib uning ahamiyati kattadir.

Bugungi kunda tarix o'qitishiing ayniqsa "O'zbekiston tarixi" ning o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki O'rta Osiyo eng qadimgi madaniyat markazlaridan deb hisoblayadi. O'zbeklar va shu o'lkaning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, ko'hna va boy tarixga egadir. Ularning O'rta Osiyodagina emas, balki jahondagi davlatlar ijtimoiy, iqtisodiy – siyosiy va madaniy hayotida tutgan o'rni salmoqlidir. O'zbekiston hududi qadimdan umuminsoniy maqsadlarga xizmat qilib kelgan. Movarounnahr Osiyo bilan Yevropani birlashtirib turgan ko'priq vazifasini o'tagan. Ikki daryo oralig'i orqali olib borilgan Osiyo, Yevropa iqtisodiy va madaniy aloqalari O'rta Osiyo, umuman jahon xalqlari taraqqiyotida katta o'rin egallagan. Bugungi kunda umuminsoniy maqsadlarga xizmat qilgan Buyuk Ipak yo'li aloqalar tarixini o'rganishga qiziqish ortib borayotganligining boisi ham shundadir.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi jumhuriyatimizni bugungi kunigina emas, balki istiqbolini ham belgilab beruvchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasining istiqbol yo'li avlod – ajdodlarimizning tarixiy an'analari va ma'naviy boyliklarini qayta to'plovchi, yangi mazmun bilan boyituvchi yo'lidir. Bu esa tarix o'qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning mehnatsevarlik, hamkorlik, insonparvarlik, ozodlik va mustaqillik, ma'rifatparvarlik kabi an'analari, iymon, insof, kichikka muruvvat, mehmondo'stlik, vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi oliyjanob fazilatlarini chuqur o'rganishni, ularni asrab – avaylab yoshlar qalbiga, qon – qoniga singdirishni shu asosda ularning siyosiy ongini o'stirishni, o'zini anglashga ko'maklashishni, respublikamiz iqtiboli uchun astoydil xizmat qiladigan faollarni yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. O'zbekiston xaqllari tarixini o'rganish o'quvchilarning bu tarixiy an'alar va oliyjanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan avlodga o'tib mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va faravonligi, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilib kelganligini, ularni bundan keyin ham asrab – avaylab davom ettirish, avlodlarimizniig insoniy fazilatlariga sodiq bo'lish o'zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi.

O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish asosida o'quvchilar bu o'lka hududida qadimda bir necha o'nlab millat va elatlar yonma – yon yashab kelganligini, ular mahalliy va ajnabiy bosqinchilar zulimiga qarshi birgalikda kurash olib borganligini, o'zbeklar hamisha boshqa millat va xalqlarga alohida hurmat bildirganligi, xalqlar qardoshligi va do'stligini muqaddas deb ardoqlashganligini, o'zbek xalqining bu tabarruk an'anasi umuminsoniy qadriyatlariga bebaho hissa bo'lib qo'shilganligi, millatlararo munosabatlar keskinlashib

turgan hozirgi paytda bu an'ananing hayotiyliigi va yana bir bor sinovdan o'tayotganligini anglab oladilar. Shuningdek, mustabid hukmdorlar va bosqinchilar hokimiyati yillarida xalqimizning moddiy – ma'naviy boyliklari va go'zal an'analari oyoq osti bo'lib toptalgani, shaxsga sig'inish va turg'unlik yillaridagi tanglik, paxta yakkaxokimligi, kimyoviy moddalarning haddan ko'p qo'llanilishi O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy rivojlanishiga to'sqinlik qilganini, ekologik muhitdagi nomutanosibliklarga, Orol bo'yi fojeasiga, atrof – muhit, yer – suv va havoni ifloslanishiga olib kelganligini odamlarning sog'ligini emas, balki irsiyatiga ham ta'sir ko'rsatganligini o'quvchilar tushunib olishi, ularning hozirgi ekologik muammolarni hal qilishda respublikamizning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlaydi hamda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish, o'quvchilarni ajdodlarimizning ko'p ming yillik moddiy va ma'naviy – madaniy meros, ularning jahon ilmiy tafakkuri va madainiyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissassi bilan tilga olish, ular bilan faxrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

Asosiy tushunchalar.

Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarniig rivojlanishi va kamol topshida nafakat O'zbekiston xaqdari tarixining, balki “Jahon tarixi”ning ahamiyati g'oyat yuksakdir. Mana shu o'tmish ajdodlar tarixini o'rganish asosidagina porloq kelajak, mustahkam davlatga asos solish mumkin. Moziyni o'rganish bilangina har bir shaxs o'z kelajagini ko'ra oladi va uni mukammal qilib yaratishga intiladi. Mana shu tarix bizni sof jamiyat qurishga, yurtimizni obodonligiga, tinchligiga mustahkam bir zamin tayyorlovchi buyuklik, adolatparvarlik, hurlik, tenglik sari yetaklovchi nurli bir yo'l hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Tarix o'qitishda o'quvchilarda hosil qilinadiga malakalar qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Bilimlar bilan malakalr o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiring.
3. O'quvchilar nutqini o'stirishning ahamiyatini tushuntiring.
4. VI sinfda o'quvchilarga tarix o'qitish orqali qanday tarixiy bilimlar shakllantiriladi?
5. VII sinfda o'quvchilarga tarix o'qitish orqali qanday tarixiy bilimlar shakllantiriladi?
6. VIII sinfda o'quvchilarga tarix o'qitish orqali qanday tarixiy bilimlar shakllantiriladi?
7. IX sinfda o'quvchilarga tarix o'qitish orqali qanday tarixiy bilimlar shakllantiriladi?

Mavzu: Tarix darslarida Prezident I.A. Karimov asarlaridan foydalanish metodlari.

Reja:

1. O'zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari tarix fanlarini o'qitishda va ta'lim – tarbiya samaradprligini oshirishning muhim omili.
2. Vatanparvarlik va milliy qadriyatlar tarbiyasining mazmun mohiyati. Akademik litsey, kasb – hunar kollejlari va o'rta umumta'lim maktablarida “o'zbekiston tarixi” va “jahon tarixi” darslarini o'qitishda o'quvchilarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.
3. O'quvchilarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda Prezident I.A.Karimov asarlaridan foydalanishning yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llash.
4. Tarix darslari jarayonida I.A. Karimov asarlaridan foydalanishning ahamiyati va uning o'quvchi yoshlar ta'lim – tarbiyasida tutgan o'rni.

*O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi -
qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi,
ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan
yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir*

I.A.Karimov.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy va ilmiy hayotimizda ko'plab yangiliklar, umumbashariy jarayonlar bilan bogliq ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Fan va texnika olamida turli – tuman ajoyib kashfiyotlar yuz bermoqda. Ijtimoiy hayot sohalarida sodir bo'layotgan voqea – hodisalarni to'g'ri talqin qilishda, murakkab pedagogik jarayonlarning yechimini topishda ko'pincha ilmiy atamalarni to'g'ri anglab yetish muhim ahamiyat kasb etadi. **“Eng muhimi inson va fuqaroning fikrlash va dunyoqarashi o'zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to'xtovsiz o'sib bormoqda”**³, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Mana shunday jarayonlarni, yangiliklarni tahlil qilishda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni, tarixiy merosimizni avaylab, bilim va ko'nikmalarni yosh avlodga taqdim etishda, yangicha mantiqiy fikrlash malakasini shakllantirishda “O'zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” fanlarining ahamiyati va o'zni salmoqlidir. Insoniyat tarixida ro'y bergan ijtimoiy voqea – hodisalarni, hayotda sodir bo'layotgan yangiliklarni tushunib olish va uni himoya qilish uchun zamonaviy fan bilan bog'lanish zarur hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy tarix fani esa o'quvchilarni avvalo jamiyatdagi yangiliklar, bo'lib o'tayotgan voqea – hodisalarning sabab va oqibatlarini, o'tmishda ro'y bergan tarixiy jarayonlarning asoslarini o'rganish va o'rgatishdan hamda yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga, insoniy fazilatlariga, mehnatsevarlikka, xalq merosiga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalashda asosiy o'rin tutadi. Bunday masalalarni tarix darslari jarayonida o'quvchilar ongiga singdirishda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bir qancha asarlari, nutqlari, yo'riqnomalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlari va nutqlarida yoshlarga katta ishonch bildirib, O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida ekanligini ta'kidlar ekan, avvalo yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlar qilib yetishtirish o'qituvchi va tarbiyachilarning fidokorona mehnati bilan bog'liqligini nazarda tutadi. Jamiyatimiz talab etayotgandek har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalab yetishtirishda o'qituvchilarning o'zni beqiyosdir. Prezidentimiz ta'lim sohasiga, xususan tarix darslarini o'qitishga katta e'tibor berib, o'zining qator asarlarida shu masalaga alohida to'xtalib o'tadi. Yurtboshimizning “O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li” (1992), “O'zbekiston buyuk kelajak sari” (1998), “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat” (1992), “Ma'naviy yuksalish yo'lida” (1998), “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” (1998) va boshqa ko'plab asarlarida o'rta umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb – hunar kollejlari o'qitiladigan tarix fanlarining ta'lim – tarbiyaviy ahamiyati va o'quvchilarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar hamda milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Malakatimiz rahbari o'zining “O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li”, (1992), “O'zbekistob XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari vataraqqiyot kafolatlari” (1997), “Millatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat qilsin” (1998), “tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” (1998), “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining

³ Barkamol avlod orzusi. T. Risqiyev tahriri ostida. T. “Sharq”, 1997, 43 – bet.

poydevori” (1998), “ma’naviy yuksalish yo’lida” (1998), “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”(1999) kabi nutq va asarlarida ta’lim – tarbiya sohasidagi islohotlarimizning erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilishi lozimligini ta’kidlab o’tadi. I. Karimov: “bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’limi va tarbiyasini ko’rgan shaxslar kerak”⁴, - deb takidlaydi.

O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning 5 – moddasida “...tegishli ma’lumot, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqiga ega”⁵ ekanligi aytiladi.

Kelajagi buyuk bo’lgan mustaqil, demokratik, huquqiy davlatni barpo etish ma’naviy jihatdan yetuk, axloqan pok qilib tarbiyalangan yoshlar qo’lida bo’ladi. Shunday ekan yoshlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma’naviy sohada quyidagilarga e’tibor qaratilishi yurtboshimiz tomonidan ham ta’kidlanadi;

- Insonparvarlik;
- Milliy istiqloq g’oyasiga sodiqlik;
- Vatandarparvarlik va milliy qadriyatlarga sodiqlik;
- Ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;
- Qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san’atni bilish hamda ko’paytirish;
- Hur fiqrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish;
- Ijtimoiy adolat qoidalarini ro’yobga chiqarish;
- Xalqimizning milliy, tarixiy, va madaniy an’analarni, ma’naviy tajribasini ta’lim – tarbiya tizimimizga uzviy ravishda liritish

Ta’lim tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog’liqligiga yurtboshimiz alohida e’tibor berib, ta’lim – tarbiya islohoti zarurligini asoslab beradi va: **“Ma’naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or – nomus, mehr – oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o’z - o’zidan kelmaydi, hammasining zaminida tarbiya yotadi”**⁶, deydi.

Mamlakatimiz rahbari **“Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” asarida tarix fanining imkoniyatlaridan foydalanib, “Aql – zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo’ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”**,⁷ - deb ta’kidlaydi.

Tabiiyki, vatandarparvarlik va milliy qadriyat tushunchasi fuqarolarimiz ongida, ayniqsa, o’quvchi yoshlar tushunchalarida yo’l – yo’lakay, o’zicha shakllanib, kamol topib insonni bu sohada harakatga keltiruvchi kuch darajasiga ko’tarmaydi.

Bu borada har bir insonni tug’ilib o’sgan maskani – Vatani , uning tabiati va tarixiga qiziqishlarini uyg’ota bilish, kamol toptirish asosiy omil hisoblanadi. Ana shunday omil o’z navbatida maktabda o’rganiladigan fan asoslarining maqsadi, mazmuni va vazifalari majmuidan kelib chiqmog’i lozim.

Maktabda o’rganiladigan barcha fanlarda, ularning dasturlari va dars rejalarini tuzish, ta’lim – tarbiyaviy va ayniqsa rivojlantirib boruvchi ta’lim maqsadlarini ilmiy – uslubiy va didaktik jihatdan aniqlab olishda o’quvchi yoshlarning o’z xalqi milliy qadriyatlari va vatandarparvarlik his – tuyg’ularini shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Lekin shunga qaramasdan akademik litsey, kasb – hunar kollejlari va o’rta umumta’lim maktablarida o’rganiladigan “O’zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi”ning o’rni, ilmiy – uslubiy imkoniyatlari ko’lami bir muncha katta. Demak, unga e’tibor ham shunga yarasha bo’lmoqda.

Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan 1996 yilda O’zbekiston xalqlari yangi tarixini tarixiy va ilmiy haqiqat ostida yaratish to’g’risida maxsus qaror qabul qilindi, maxsus ilmiy – tadqiqot instituti ta’sis etildi. Vatanimiz tarixi, uni o’qib o’rganish hukumatimiz diqqat

⁴ I.Karimov. “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T. “Sharq”, 1997. 9 – bet.

⁵ O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. “Sharq”, 1997. 21 – bet.

⁶ Barkamol avlod orzusi. T. “Sharq”, 1992. 53 – bet.

⁷ I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T. “Sharq”. 1998. 7 – bet.

markazida ekan, bu fanni yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz ruhida va ona – vatanimizning fidoiy vatanparvarlari etib tarbiyalashdagi vazifalar qanday amalga oshirilmoqda?

To'g'ri, bu sohada yutuqlarimiz bir muncha, lekin hal etilishini kutib yotgan ko'pgina ilmiy – uslubiy, pedagogic va didaktik muammolar ham mavjuddir. Bular quyidagilardan iborat:

a). O'quvchi yoshlarni O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish davomida tarbiyaning barcha jihatlarini qamrab olgan, amaliyotda sinab ko'rilgan O'zbekiston Xalq Ta'limi Vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari, darsliklar va metodik qo'llanmalar, dars samaradorligini oshirishni ta'min etishga yo'naltirilgan didaktik materiallar ishlab chiqishni ta'min etuvchi tarix o'qitish bobida yuqori malakali o'qituvchilar faoliyat ko'rsatadigan tajriba maktabining yo'qligi;

b). davr talabi darajasida yaratilgandarslik va uslubiy qo'llanmalarning yo'qligi;

v). pedagogik oliy o'quv yurtlari va universitetlarda tarixchi pedagoglarni yetishtirishda mazkur muammoga yetarli e'tibot berilmayotganligi;

g). Prezident I.A.Karimovning yoshlarimizda milliy va ma'naviy qadriyatlar, vatanparvarlik his – tuyg'ularini tarbiyalashning ilmiy – nazariy yo'riqnomalari bilan yo'g'rilgan asarlari va nutqlaridan maqsadga muvofiq foydalanish, o'quvchi yoshlarimizni tarbiyalashga yondashishni samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan ilmiy – uslubiy dasturlar va qollanmalarni yaratish va amaliyotda foydalanishning sustlik bilan amalga oshirilayotganligidadir.

O'rta umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb – hunar kollejlari tarix fanlarining o'qitilishi jarayonida o'quvchi yoshlarni **milliy qadriyatlar** ruhida tarbiyalashda avvalo Prezidentimiz I.A.Karimovning qator asarlari, nutqlari va ma'ruzalari hamda shu bilan birga Sharq ba Markaziy Osiyo donishmandlari – Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Motrudiy, Koshifiy, Marvaziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviylarning fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarix darslari jarayonida bu qoidalarga amal qilish tarbiyaning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, Prezident I.A.Karimov asarlarida davlatimizning kelajak istiqboli ko'rsatib berilishi bilan chegaralanmasdan, balki unga erishish yo'llari ham asosli qilib ko'rsatib berilgan. Masalan, Prezidentimiz o'zining “O'zbekiston o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li” asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy – axloqiy negizlari xususida fikr yuritarkan, bu negizlar:

- **Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;**
- **Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;**
- **Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;**
- **Vatanparvarlik ekanligini alohida ko'rsatib o'tadi.**

O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati va ma'naviyati bilan tanishtirish juda muhimdir. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ta'lim – tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishga oid ko'rsatmalar beriladi. Shuning uchun tarix darslari jarayonida xalqimizning madaniy merosini o'rganish, milliy o'ziga xosligi, ma'naviy xususiyatlarini hisobga olib, milliy ta'lim – tarbiyamiz an'analariga suyanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda **QADRIYAT** tushunchasiga kengroq ta'rif beradigan bo'lsak, **“Qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi”**⁸. Qadriyat degan tushuncha qadr – qimmat, degan ma'noni ham bildiradi.

Bundan tashqari o'quvchi yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda tarix darslari jarayonida ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inson axloqida Vatanni sevish alohida o'rin tutadi. Hadisi shariflarda ham “Vatanni sevmok iymondandir”, “Vatan ostonadan boshlanadi” deb bejiz aytilmagan.

⁸ Tulenov J. G'ofurov Z. Falsafa. T. “O'qituvchi”, 1997. 285 – bet.

Vatan o'zi nima? **Vatan** (arabchada “vatan” – ona yurt) deganda – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati tushuniladi.

Vatanparvarlik – kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr – muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy, axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy – axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Vatanga muhabbat tuyg'usi bolaga ona suti bilan, allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg'u bir umr unitilmaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi hamma zamonlarda ulug'langan.

Vatanparvarli shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Akademik litsey, kasb – hunar kollejlari va o'rta umumta'lim maktablarida o'qitiladigan “O'zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi” darslarida vatanparvarlikni shakllantirish quyidagi mezonlar asosida tashkil etiladi:

- **Vatanga muhabbat hissi;**
- **Milliy g'urur;**
- **Davlatimizning milliy istiqlol mafkurasi va uni ilmiy idrok etish;**
- **Davlatimiz ramzlariga sadoqat;**
- **Millatlararo madaniy muomala.**

Vatanparvarlik hissini har bir fandan dars o'tish jarayonida, xususan “O'zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” darslarida shakllantirish ijobiy natija beradi. Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XV sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida to'xtalib o'tib, “Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz – insondir”, deb takidlagan edi. Demakki, asosiy tayanch inson hisoblanar ekan, insonni avvalo o'z vataniga muhabbat ruhida tarbiyalash bugungi ta'lim sohasi oldida turgan asosiy vazifalardandir.

O'zbekiston xalqlari tarixi insoniyatning orzu – umidlari, ezgu niyatlarini o'zida mujassamlashtirgan ana shunday vatanparvarlik his – tuyg'ulari bilan to'lib – toshgan desak mubolag'a bo'lmas. To'maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir temur, Z.M.Bobur, Dukchi Eshon, Sobir Rahimov... yana qancha – qancha dovyurak qalblar.

O'quvchi yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz va milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'lida olib boradigan ilmiy pedagogik faoliyatni I.A.Karimov asarlari va nutqlaridan kelib chiqadigan yo'riqnomalar asosida tashkil etishda bu boradagi ishlarning samarali borishini ta'minlashda hal qiluvchi natijaga erishish mumkin. Buning uchun har bir asar ustida ishlanar ekan, unda qamrab olingan tarbiyaga doir har bir muammoning klassifikatsiyasini belgilab chiqmoq lozim. Natijada O'zbekiston xalqlari tarixi dasturidagi qaysi mavzuni o'rganishga, qaysi masalani ilmiy – nazariy jihatdan me'yoriga yetkazib tahlil etish, tarixiy ashyoni Respublikamizning bugungi hayoti bilan qanday bog'lab o'rganish o'z istiqloliga erishgan O'zbekiston Respublikasining oldida qanday muammolar turibdi va ularni bartaraf etishda har bir fuqaroning faol ishtirok etmog'i, jumladan bizni bevosita qiziqtiradigan muammo o'quvchi yoshlarimizni milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni, shuningdek, vatanparvarlik his – tuyg'ularini kamol toptirishga katta e'tibor berilishi lozim.

Quyida “O'zbekiston tarixi” fanidan o'tiladigan darsda yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan Pinbord usulidan foydalanish va ushbu dars jarayonida Prezidentimizning “Tarixiy xotirasiz kelajak” asaridan foydalanish haqidagi fikrlarimizni keltirib o'tamiz. Eng avvalo o'tiladigan mavzuga qarabnoan'anaviy usullar tanlanadi va o'quvchilarga oldindan dars mavzusi e'lon qilinadi. O'quvchilar darsga zarur bo'ladigan barcha ko'rgazmalarni o'zlari tayyorlashlari lozim. Bu darsda o'zbek xalqining etnik shakllanishini o'rganamiz.

1). I.A.Karimovning “**Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q**” asarida o'zbek xalqining etnik tarixi, uning xalq sifatida shakllanishi masalalari.

2). O'lkamiz hududlaridagi qadimgi mahalliy aholi va o'zbek xalqining shakllanish bosqichlari.

3). O'rta asrlardagi etnik – madaniy jarayonlar, “O'zbek” atamasi.

Bu jarayon, ya'ni darsda birinchi navbatda o'quvchi ko'z oldida xarita yordamida o'lkamizning eng qadimgi davri gavdalaniriladi. Shundan so'ng sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi. Har bir kichik gurug mavzudagi rejalarga tayyorlanadi. Bu vaqt davomida o'qituvchi mavzuni boshlab qichqacha ayrim epizodlarga to'xtaladi.

Birinchi "kichik guruh"dan bir vakil chiqib Birinchi kichik guruhdan bir vakil chiqib I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarining mazmuni, unda ko'rsatilayotgan tarixni o'rganish bo'yicha muammolar, o'zbek xalqining etnik tarixi, uning xalq sifatida shakllanishi, etnoslarning bir – biridan farqlanishi va hokazolarni gapirib tayanch iboralarni izohlab beradi.

Ikkinchi "kichik guruh"dan bir o'quvchi chiqib, O'rta Osiyo ijtimoiy – siyosiy hayotida turkey etnik guruhlar juda katta ahamiyatga ega bo'lganligi va etnik ildizlari juda qadimiy ekanligi, mil. av. II ming yillikning o'rtalaridan boshlab Markaziy osiyo hududlarida shimoliy – sharqiy tomondan yangi etnik guruhlar kirib kela boshlashi, O'rta Osiyo hududida juda boy arxeologik qazishmalar olib borilayotganligi, o'zbek xalqining shakllanishidagi davrlar va boshqalar to'g'risida gapirib beradi.

Uchinchi "kichik guruh"dan o'quvchi chiqib o'rta asrlarda xalqlarda etnik shakllanishning davom etishi, "o'zbek etnonimi"ning kelib chiqishi, o'zbek xalqining etnik qatlamlari to'g'risida fikr yuritadi.

Har uchala o'qituvchi mavzu yuzasidan gapirganda o'zi tayyorlagan ko'rgazmali qurol, xarita va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishi mumkin. O'qituvchi kichik guruhlardan ekspertlarni ajratib oladi va o'zi tayyorlagan convert – paketlarni ularga beradi. Bu paketlarda o'zbek xalqining shakllanishi haqidagi ma'lumotlar mavjud. "Ekspertlar" guruhi hujjatlar bilan tanishgunga qadar, o'qituvchi "kichik guruh"larda qolgan boshqa o'quvchilar bilan **"tanqidiy fikrlash usuli"** ni o'tkazadi, ya'ni o'quvchilarda o'z oldilarida turgan muammoli vazoyatni yechish, boshqalarni tinglay olish, muloqot olib boorish, turlicha fikrlarni taqqoslash, boshqa kishi taqdiriga befarq qaramaslik kabi xislatlar shakllana boradi. O'qituvchi muammoli vaziyatni o'rta tashlab o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalashi uchun imkon beradi, shundan so'ng o'quvchi fikri oydinlashtiriladi, ularning fikri asoslanganligi tekshiriladi, o'z fikrini tahlil eta olish imkoni beriladi.

Tanlangan "ekspert" guruhi hujjatlar bilan tanishgach, o'z "kichik guruh"lariga qaytib, hozirgina berilgan muammoli savollarning asosli ekanligini va hujjatlarda ham o'sha savollarga to'g'ri javob borligini izohlashadi, o'rganilgan hujjatlar bilan o'rtoqlashadilar. Shundan so'ng **"aqliy hujum"** metodi boshlanib, o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga oid savollar beradi va o'quvchilar bilan birga bu savollarga javob topishga harakat qiladi. O'rganilayotgan har bir muammo o'z yechimini topishi uchun o'qituvchi fikrlarini Prezident asarlaridan olingan iboralar bilan to'ldirib izohlab borsa, uning har bir aytgan fikri asosli chiqishiga erishadi.

Bundan tashqari tarix darslarida Prezident asarlaridan foydalanib, o'quvchilarni xalqaro terrorizm g'oyalariga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalash bugungi kunning ta'lim sohasi oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Yurtboshimiz o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida" asarlarida va ko'pgina nutqlarida terrorizmga qarshi kurash borasidagi o'z fikrlarini birma – bir izohlab bergan. "...Inson va kam sonli millatlar huquqlari, ularning xavfsizligi kafolatini, ijtimoiy qadriyatlardan teng bahramand bo'lishi kafolatlarini ta'minlash, terrorizm va narkobiznesga qarshi kurash sohalarida hamkorlikka doir ma'lumotlarni markazlashtiruvchi yagona axborot tizimini yaratish zarurati ham yetildi".⁹ **(Terrorizmga oid slaydlar ko'rsatiladi va talabalar bilan birga izoh beriladi).**

Prezident asarlari orqali o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ekologik muammolarning ham o'z o'rnini borligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Chunki bugungi kunda biz yashab turgan tabiatni, uning zahiralarini asrab – avaylash ham milliy

⁹ i.A.Karimov. Mintaqada xavfsizlik va hamkorlik uchun. // Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T., 1996. – 36 – bet.

qadriyatlarimizdan hisoblanadi. **(Ekologiyaga oid slaydlar ko'rsatiladi va talabalar bilan birga Prezident asarlari orqali izohlanadi.)**

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, Prezident I.A.Karimov asarlarida davlatimizning kelajak istiqboli ko'rsatib berilishi bilan chegaralanmasdan, balki unga erishish yo'llari ham asosli qilib ko'rsatib berilgan.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XV sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida to'xtalib, "Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz – insondir. Yuksak malakaliva yuksak ma'naviyatli insondir. Kelajagi buyuk eng birinchi bo'lajak fuqarolarning madaniyati va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur. Bugun hayot qanchalik og'ir bo'lmasin ma'naviyatimiz va madaniyatimizni unutmaylik" – deb ta'kidladi.

Milliy qadriyat, ma'naviyat, madaniyat umumbashariy qadriyat, ma'naviyat va madaniyatning sarchashmasidir. Ana shu sarchashma ma'lum makonda, ya'ni Vatanda vujudga keladi. Shunday ekan, milliy qadriyat va madaniyat bevosita vatanparvarlik bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Demak, tarix darslari jarayonida bu ikki tushunchani o'quvchilar ongiga birga singdirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi maktablarida, akademik litsey va kasb – hunar kollejlari o'qitilayotgan "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi", shu bilan birga davlat va huquq asoslari, inson va jamiyat, o'zbek adabiyoti va chet mamlakatlar adabiyotini o'rganish jarayonida ayniqsa, Prezidentimiz I. Karimov asarlaridan foydalanish yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizni chuqur ehtiros bilan o'rganish va kelajagi buyuk bo'lgan davlatimizning bunyodkorligi yo'lida jangovar vatanparvarlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim o'rin egallaydi. Buning uchun yurtboshimizning quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir. **"O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi – bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlagan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir"**.¹⁰ Holbuki, O'zbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'alarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat qurish uchun juda ko'p qurbonlar berib, jangu – jadallar olib borgan edi. U markazlashgan qudratli davlat qurish xususida fikr yuritib, "davlat – lashkarlari – yu fuqarolarining sadoqati va fidoyiligi – la qudratlidir" – deb alohida qayd etgani bejiz emas.

Prezidentimiz I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XV sessiyasida so'zlagan nutqidagi quyidagi ko'rsatmalari biz pedagoglarga o'quvchi yoshlarni xalqimizning milliy, ma'naviy, madaniy qadriyatlari va vatanga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalashimizdagi faoliyatimizning dasturi bo'lmog'i kerak. "O'zbekistonimizni, yigit – qizlarimizni shu g'oyaga qattiq ishonadigan buyuk davlat fuqarolari, buyuk davlatga munosib farzandlar etib tarbiyalamog'imiz lozim".

Prezidentimiz milliy qadriyatlarimizga alohida to'xtalib, "Bizda azaldan ota – onaga hurmat, ehtirom ko'rsatish qaror topgan. Har bir farzand o'z ota – oansi bilan faxrlanishi lozim. Ota – ona ham farzandlar iftixor qilishga loyiq kishilar bo'lishi taqozo etiladi... Biz qadriyatlarimizga rioya qilishga katta e'tibor bermoqdamiz. Biz musulmon xalqmiz, sharm – hayo, or – nomus ha rbirimizda mustahkam", - deb aytganida har tomonlama va har bir kishi uchun haq fikrni aytdi.

Yurtboshimizning, mutafakkirlarimizning ta'lim – tarbiya, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz, vatanni sevish xususida aytgan har bir fikr – mulohazalari yoshlarimizni vatanparvar, o'z millatiga va o'zga millatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda bugungi kun uchun asosiy manbalardan hisoblanadi.

¹⁰ I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T."Ozbekiston" 1998. 64 – bet.

I.A.Karimov asarlarida o'zbek xalqining yuksak milliy qadr – qimmat, or – nomusi va shon – sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslanganligi, o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltirish xususidagi vazifalar haqida batafsil fikrlar yuritilgan.

Tarix darslari jarayonida o'quvchilarga o'zbek xalqining kelajakka ishonch bilan qarayotganligini, u eng avvalo o'z kuchlariga ishonishini yurtboshimiz asarlaridan foydalanib, asoslab berilsa, o'quvchi yoshlarimizda milliy qadriyatlarga muhabbat va vatanparvarlik hissi yanada oshadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Tarix ta'limida milliy qadriyat va vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati nimadan iborat?
2. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Prezident I.A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarining tutgan o'rni.
3. Tarix darslarida Prezident I.A.Karimov asarlaridan foydalanilganda qanday metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
4. Milliy qadriyat tushunchasini kengroq hamda misollar bilan izohlab berishga harakat qiling. Uning "Tarix o'qitish metodikasi" fanida tutgan o'rni haqidagi fikringiz.
5. Fikringizcha, "O'zbekiston tarixi" darslarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda an'anaviy yoki noan'anaviy usullardan foydalanishning qaysi ko'proq maqsadga muvofiq hisoblanadi? (Misollar bilan javob bering)
6. Tarix darslari jarayonida I.A.Karimov asarlaridan foydalanishning ahamiyati nimadan iborat?
7. Fikringizcha, ko'proq qanday turdagi mavzularda vatanparvarlik va milliy qadriyat tushunchasi o'quvchilar ongiga ko'proq singdiriladi?
8. "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" darslarida qanday tarixiy asarlardan foydalanib o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy qadriyatlar tuyg'usini singdirish mumkin? (Misollar keltiring.).
9. Prezident I.A.Karimovning ta'lim – tarbiyaga oid asarlarini birma – bir sanab, ularni izohlab bering.

Uyqa topshiriq: "Tarix darslarida tarixiy manbalar va badiiy adabiyotlardan foydalanish" mavzusi bo'yicha tayyorlanish.

Mavzu: Tarix darslarida tarixiy manbalardan, badiiy va boshqa adabiyotlardan foydalanish.

Reja:

1. Dars jarayonida tarixiy manbalardan foydalanish.
2. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish
3. Adabiyotlar tasnifi

Tayanch iboralar

Tarixiy manbalarining turlari, ularning tarix fani uchun ahamiyati, tarix darslari jarayonida foydalanish lozim bo'lgan badiiy adabiyotlarning turlari, badiiy adabiyotlarning tasnifiy ta'rifi.

Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy jarayonlarni o'zlashtirishda muhim omil. Tarixiy-badiiy adabiyotlardan tarix darslarida foydalanishda o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish. Badiiy adabiyotlar va ularning turlari. Adabiy manbalar ulardan tarix darslarida foydalanish metodlari: Mavzuga oid adabiy manbalarni tavsiya etish, manbalardagi mavzuga oid shaxs va tarixiy voqealar xususida suxbatlashish, manbalardan

foydalanish metodlari. Badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyati.

Badiiy adabiyotning qimmati o'quvchi voqelikni adibning iste'dodi darajasida idrok etishga, uni ko'zi bilan ko'rishga, uning shaxsi orqali, ma'naviy dunyosi orqali tasavvur etishga, u olg'a surgan o'z amaliy faoliyatida ongli ravishda amal qilishga erishishi bilan belgilanadi.

O'quvchi asarda tasvirlangan timsollar galereyasi va badiiy vositalarni faqat ko'zatuvchisiga aylanmasligi, balki adib olg'a surgan ta'lim-tarbiyaviy g'oyani qanday natijaga erishganligi nuqtai nazaridan baholashga o'rgangan taqdirdagina uning mohiyatini to'liq, chuqur anglab yetishi muqarrar.

Badiiy asarni to'g'ri tanlay bilish ham asar g'oyasini ta'lim-tarbiyaviy tomondan chuqur o'zlashtirishning muhim omillaridan biri bo'lib, uni tanlashda ma'lum mezonlarga asoslaniladi, ya'ni badiiy asarning yuksak g'oyaviy-badiiy qimmati, adib ijodida asarning xarakterli o'rni (asosan yuqori sinflarda): asarning yaratilgan va o'rganilayotgan davr uchun ahamiyati (bu ham asosan yuqori sinflarda hisobga olinadi); badiiy asarning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyati; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; o'quvchida qiziqish uyg'otishi; o'quvchining ma'naviy qiziqishi; talabi, ehtiyojlariga javob bera olish darajasidan iboratdir.

Proza yo'lida yozilgan asarlar hayotning keng va ob'ektiv manzarasini tasvirlashi, ma'naviy qadriyatlar mohiyatini atroflicha ochib berishi, poeziyada bunday tasvirga keng imkoniyat yo'qligi, dramatik asarlarda esa voqelik yozuvchi nutqi orqali emas, balki obrazlarning hatti-harakati, so'zlari orqali ifodalanishi bilan farq qiladi. Adabiy turlar o'rtasidagi bunday farqlanish ularning tarbiyaviy imkoniyatlari jihatidan ham farqlanishiga olib keladi. Mazkur janrlardagi asarlar o'quvchiga birinchidan, o'tmishning madaniy merosi. Bu merosning rang-barangligi, o'zbek xalqining takrorlanmas iste'dod egalari bo'lgan ajdodlari haqida aniq va qiziqarli ma'lumot beradi. Ikkinchidan o'quvchining o'zligini anglashi uchun boy ma'naviy oziq beradi. Uchinchidan, o'zbek millati, sharq xalqlari tarixi, dini madaniyati, urf-odatlar, an'analari; udumlari haqida badiiy ifoda vositalari asosida ilmiy, haqqoniy, tarixiy ma'lumotlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. To'rtinchidan, sharq xalqlari, o'zbek xalqi ruhiy holati, axloq-odob mezonlaridan qahramonlik, jasurlik, mehnatsevarlik insonparvarlik, mehmonavozlik, imon-e'tiqod, sevgida sadoqat kabi qadriyatlar haqida atroflicha ma'lumot olishga muyassar bo'ladi. Masalan, qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlik, jasurlik ("Shiroq", "To'maris"), xalqparvarlik, sevgida sadoqat ("Alpomish", "Tohir va Zuhra", "Yusuf va Zulayho", "Farxod va Shirin"), jangnoma xarakteridagi dostonlarda o'tmish qahramonlar, tarixiy va hayotiy haqiqatning kuylanishi ("Shohnoma", "Jangnomai Jamshid"...), pandnoma xarakteridagi dostonlarda kishining kundalik hayotida amal qilishi lozim bo'lgan xulq-avor mezonlari diniy va dunyoviy ahloq qonun-qoidalari ("Qutadg'u bilig", "Saddi Iskandariy"...), qissalarda ("Badoe'-ul vaqoe", "Qissai Yusuf va Zulayho", "Qissasul anbiyo", "Qissai Rabg'o'ziy" va h.k.) sharq xalqlarining turmush tarzi, tarixiga xos voqealar tasviri ko'proq o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham bu janrlarda yaratilgan adabiyot namunalari o'quvchiga ma'naviy madaniyatimizning tarixiy boy qirralari haqida sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqining o'tmishi, qadriyatlari, axloq-odob mezonlari haqida atroflicha ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Yuqori sinf o'quvchilarining badiiy adabiyot vositasida ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogika talablaridan biri, uning tarbiyaviy ta'sir kuchidan foydalanishda unga davr nuqtai nazaridan yondashishdir.

Klassik adabiyot namunalari mazmunida chuqur falsafiylik, farosatlilik o'quvchini o'zoq o'tmishga sayohat qildiradi. Mualliflar o'z davrlarining turmush tarzlarini, hayotiy muammolarini, falsafiy ildizlarini badiiy ifodalashga, shu usuldan foydalangan holda xalqning moddiy va ma'naviy hayotini bir oz bo'lsa-da, tashvishli masalalardan, bezovta kechinmalardan yiroqlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Klassik adabiyot namunalari katta qismi poetik tarzda bunyod etilgan bo'lib, ular asosan g'azal, ruboiy, fard, tuyuq, to'rtlik, qissa, hikoyat, doston, qasida, muxammaslardan iborat, shuning uchun o'quvchidan nozik did, qunt, teran fikr asosida ularni o'rganish talab etiladi. Ahli zamon o'rtasidagi insonparvarlik, shirinsuxanlik,

qadr-qimmat, do'stlik va birodarlik, Vatan ishq, xalq farovonligi va komil inson masalasi klassik adiblar ijodidagi bosh mavzu hisoblanadi.

Mavzu: Tarix darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish.

REJA:

- 1. Tarix ta'limining texnika vositalari.**
- 2. Tarix o'qitishida o'quv filmlaridan foydalanish.**
- 3. O'quv eshittirishlari.**

Tayanch iboralar.

Texnika vositalaridan foydalanish usullari, texnika vositalari joylashgan sinf xonasini jihozlash, o'quv teledasturlarini tashkil etish.

Ta'limning vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga xizmat qiladi. Tarix darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Ta'limning texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga, o'quvchilarning o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Tarix o'qitish tajribasiga ko'ra maktabda ta'limning quyidagi texnika vositalaridan foydalanilmoqda :

1.Oddiy texnika qurilmalari: Karta va o'quv kartinalari ilinadigan, yog'ochdan yoki boshqa materialdan yasalgan siljiydigan oddiy qurilmalar: ko'chma sinf yozuv taxtasi, sinf devoriga ilinadigan ikki yoqlama ochiladigan yozuv taxta.

2. Ovoqli apparatlar: plastinkalar qo'yib ovoqli chiqaradigan asbob, magnitofon, radiopriyomniklar, bundan tashqari hozirgi paytda kompyuter texnologiyalardan, diskarga tushirilgan tasvirlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Maktab tajribasida plastinkalar va magnit lentalar, zamonaviy disklar yordamida, shuningdek, radiopriyomniklar vositasida o'quvchilarni mumtoz va o'zbek, chet el bastakorlarining asarlari bilan tanishtirish, tarix fanlarini o'rgatish keng quloch yoymoqda. Chunki musiqiy ijodiy asarlarga doir maktab kursining madaniy – tarixiy materialini plastinka va tasma yozuvlarisiz ko'rsatib bo'lmaydi. Masalan, madaniyatga doir mavzularni o'tgan paytda musiqa asarlarini eshittirish darsni maroqli bo'lishiga yordam beradi. Badiiy asarlar yozilgan plastinka va magnit tasmlari ham bor. Darsda G'.G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri yozilgan plastinkadan foydalanish mumkin.

Jamoat arboblarning, masalan Prezidentimiz I.A.Karimovning nutqlarini magnit tasmlariga yozib olib eshittirish mumkin yoki televizorlar yordamida dars jarayonida o'quvchilarga qo'yib eshittirish ham mumkin.

Bu manbalardan foydalanishda quyidagi usullar qo'llaniladi :

1.Yozuv materiallari yuzasidan o'quvchilarga savollar berish bilan bu yozuvlar dars materialini tarkibiga kiritiladi.

2.Avvalo gramplastinka yoki tasma, disk yozuvi eshitiladi va ko'rsatiladi. So'ngra bu yozuv suhbat yordamida tahlil qilinadi.

3.Yozuvlar asosida o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil qilinadi.

Ovoqli texnika vositalariga radio eshittirishlari ham kiradi. O'qituvchi o'quvchilar uchun radio orqali maxsus dastur yoki umumiy dastur bo'yicha tarixdan beriladigan eshittirishlarni eshittirishni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda bunday eshittirishlar ko'pincha magnit tasmasiga yozib olingan bo'ladi.

Tarix darslarida magnitofon yozuvlaridan keng foydalaniladi. Radio va televideniye orqali beriladigan o'quv va sinfdan tashqari ishlarga bag'ishlangan eshittirishlar tarixiy voqealarning ishtirokchilari, mehnat qahramonlari, yozuvchilar va ijtimoiy arboblarning bilan o'tkazilgan uchrashuv materiallari ana shu magnitofon yozuvlarining asosini tashkil etadi. Bu

uchrashuv va suhbatlar aynan takrorlanmaydi, yozib olingan magnitofon tasmasidan uzoq yillar davomida va istagan vaqtda darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Bu o'rinda ham texnika vositasi o'quvchiga qo'l keladi.

Har xil ko'rsatuv asboblari va qo'llanmalari ta'lim texnika vositalarining uchinchi guruhini tashkil etadi. Ular epidiaskop, diapozitiv, diafilmlar va o'quv kinofilmlaridan iborat.

Tarix darslarida bunday texnik sharoiti mavjud bo'lgan kino xonasi yoki texnika vositalaridan foydalanishga moslangan maxsus tarix xonasi bo'lishi kerak. Texnika vositalari bilan ta'minlangan xona asosan quyidagi talablarga javob berishi lozim :

a) xonani tezda qorong'ulatish va tezda yorug'latish mumkin bo'lsin.

b) qorong'u paytda o'quvchilarning yozuv – chizuv ishlarini olib borshi, tasvirlarni daftarga tushirishi, darslik matni bilan ishlashi uchun o'tirgan o'rinlari maxsus lampochkalar bilan yoritiladigan bo'lsin.

c) xonada juda katta yozuv taxtasi bo'lishi kerakki, uning bir qismi tasvir bilan band bo'lsa, bir qismi tasvirlarni ko'rsatish yoki boshqa maqsadlar uchun bo'shu bo'lsin.

d) xarita va rasmlar ilinadigan maxsus moslama bo'lsin.

e) zarur texnika vositalari va ularni ko'rsatadigan apparatlar xonada mavjud bo'lishi bilan birga ular tuzuk, ishga yaroqli holda saqlansin.

Bunday maxsus tarix xonasi bo'lmagan taqdirda sinfni uni texnika vositalaridan foydalanadigan qilib jihozlasa bo'ladi. Bu holda tegishli vosita va jihozlar maxsus javonda saqlanadi.

Shisha yoki plyonkadan ishlangan rangli diapozitlar epidiaskop yordamida ko'rsatiladi. Keyingi yillarda, shishaga tushirilgan diapozitlar o'rniga diafilmlar yordamida namoyish qilinadi. Diafilmlardan har bir o'qituvchi hattoki, o'quvchilar ham foydalana oladilar.

O'qituvchi darsda diapozitif yoki diafilmdan to'liq yoki qisman foydalanishi, ba'zan butun darsni o'sha materillar asosida o'tkazishi mumkin.

Diapozitiflardan yangi mavzuni bayon qilishda ham takrorlash darslarda ham foydalaniladi. Har qanday holatda ham diapozitif va diafilmlar o'qituvchi bayonining aniq va jonli bo'lishiga yordam beradi.

O'quv kinofilmlari ham ta'limning ko'rsatmali vositalari jumlasidandir, tarix o'qitishda o'quv kinofilmlari vositadir. Kinofilm o'quvchilar ko'z o'ngida tarixiy voqeaning jonli obrazini ko'rsatmali qilib to'liq harakatda gavdalan tiradi.

O'quvchilar boshqa ko'rgazmali qurollardan ko'ra kinofilmlar vositasida tarixiy o'tmishni jonliroq idrok etadi. Tarixiy mavzularga bag'ishlangan badiiy filmlar (masalan "Muz jangi") "Jahon tarixi" fanini o'qitishda o'zining mazmuni va tarixiy voqealarni jonli qilib ko'rsatish jihatidan tarixiy badiiy asarlarga o'xshab ketadi.

Kinofilmlar, ayniqsa badiiy filmlar o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatish, estetik va axloqiy tarbiya berish vositasi hamdir. Kinofilmlar bilim olish vaqtini iqtisod qilishga yordam beradi. O'quvchilar oddiy sharoitda o'quvchining bayonidan muzey va har xil tarixiy joylarga ekskursiyalarda bo'lib soatlar sarf qilib oladigan bilimlarni 10 – 15 daqiqali filmni ko'rib ham olishlari mumkin. O'quv filmlarining emotsional, estetik ta'siri ham boshqa ko'rsatmali qurollarga nisbatan shubhasiz kuchlidir.

Hozirgi davrda barcha jabxeni uz ichiga oli borayotgan kompyuter tizimi dan ham tarix darslarida foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Masalan, o'quvchilarning olgan bilimlarini aniq baxolashda kompyuterdan foydalanish mumkin. Bunda utilgan bob buyicha test savollari to'zib javoblarini kompyuterdan olish mumkin.

Kinofilmni o'quvchilarga ko'rsatishdan oldin, o'qituvchining o'zi uni sinchiklab ko'rib chiqishi va o'rganishi lozim. Bu bilan o'qituvchi filmning umumiy mazmuni bilan, asosiy diqatni jalb qiladigan eng muhim kadrlar va suxandon matni bilan tanishtiradi. Shundan keyingi film o'quvchilarga ko'rsatiladi, so'ngra film yuzasidan suhbat o'tkaziladi, eng muhim kadrlar yuzasidan savollar beriladi, film mazmuniga bog'lab uyg a vazifa topshiriladi.

Tarix o'qitish tajribasida o'quv filmlaridan foydalanishning quyidagi asosiy usullari mavjud:

a) o'qituvchi o'z bayonini o'quv filmining eng muhim va yorqin kadrlarni ko'rsatish bilan bog'lab olib boradi. Tanlab olingan o'sha kadrlarni izohlaydi va tegishli xulosa chiqaradi.

b) 10-15 daqiqali qisqa o'quv filmlariga bag'ishlab dars o'tkaziladi.

c) maxsus kino darsi tashkil etiladi.

d) darsdan tashqari vaqtda film tomosha qilinadi.

Ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlar davom etayotgan bir paytda tarix o'qitishda teleeshittirishdan ikki xilida foydalanilmoqda.

1) sinfda qabul qilish uchun beriladigan o'quv ko'rsatuvlarini kompyuterlar orqali o'quvchilarga yetkazish.

2) o'qishdan tashqari vaqtlardagi teleko'rsatuvlar. O'quvchilar bu eshittirishlarni uyda tomosha qiladilar. O'quv teleko'rsatuvlarini qabul qilish uchun maktabda oynalari parda bilan berkitilgan, ikki televizorli maxsus yoritish apparatlari muhayyo bo'lgan sinf xonasi bo'lishi zarur.

Darsda o'quv teleko'rsatuvlarining ikki xil turi qabul qilinadi .

a) 15 daqiqali teleko'rsatuv.

b) 30 – 40 daqiqa davom etadigan yangi mavzuni bayon qilishga bag'ishlangan mavzuga mos teledars yoki takrorlash darsi.

Teleko'rsatuvga yirik olimlarni, yozuvchilar, tajribali o'qituvchilar, yuristlarni hamda tarixiy voqealarning ishtirokchilarini jalb etish o'quv materialini o'rganishning dolzarbligi va mazmundorligini oshiradi.

O'qituvchi teleeshittirishni qabul qilishga puxta tayyorgarlik ko'radi. O'quvchilarning teleko'rsatuvlar mazmunini puxta o'zlashtirib olishlari uchun o'qituvchi ularga eshittirish mazmuni yuzasidan savollar beradi yoki boshqa vazifalar topshiradi. Natijada o'quvchilar ko'rsatuvni faol fikrlab o'zlashtiradilar. O'qituvchi teledarsni suhbat bilan yakunlaydi. Shunday qilib, teleekran tarix o'qitishda ko'rsatmalilikning samaradorligini yanada oshirib yuboradi. Tarix o'qitish tajribasi teledars g'oyaviy – tarbiyaviy va didaktik jihatdan ko'rsatmali vositalarga ko'ra hiyla afzal ekanligini isbotlaydi.

Mavzu: Tarix darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Reja:

- 1. Pedagogik texnologiya mohiyati va muammolar**
- 2. Pedagogik texnologiya loyixalari**
- 3. Tarix o'qituvchisi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi**
- 4. Didaktik jarayon loyixasining interfaol metodlari**
- 5. Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyasi: o'zaro bog'liqligi va farqi.**

Tayanch tushunchalar.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'qitish texnologiyalari.

Dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishlash texnologiyasi va boshqa). O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri “shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi”dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jabhalarida ro'y beradigan “portlash effekti” natijalari ro'y-rost ko'rsatib berildi, ya'ni:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi.;

- insonning hayotidan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi;
- jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;
- fuqarolik jamiyati qurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi.

“Portlash effekti” sari shijoat bilan qadam tashlash, yo'llarida uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil hal etish masalalari nafaqat pedagog nazariyachi va amaliyotchilarni junbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiyashunoslik asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik “qurol” va vositalar bilan ta'minlash davr taqozosidir.

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfifirlik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qaysi darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq?

Dastlab “texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - “texnos” (techne) - san'at, hunar va “logos” (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib “hunar fani” ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga ko'chirish mumkin, ya'ni: PT - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu

faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, PT tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik nashrlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi", "ma'lumot texnologiyasi" va hokazo.

o'qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir jinslidir.

PT esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi - pedagogik jarayon – o'quvchi (talaba)" funktsional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Hozirgi kunda o'qituvchilar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo'ladi. Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko'zlangan maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko'chirishdir. Misol uchun, gaz qonunlarini tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiya saqlanish qonunini fizika kursining elektr bo'limida qo'llash metodikasi va hokazolar.

PT o'qitish jarayoning o'zaro bog'liq qisimlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Yoxud PT o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir. Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida PT o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70 - yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan "o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi" ekanligi e'tirof etiladi (32, 126).

Ob'ektiv borliqni o'rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F. Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiradi. Shuningdek, olimi zamonaviy o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini uqtiradi: "o'qitish texnologiyasi - bu o'quv jarayonini nima real tavsiflasa o'sha, o'qituvchiga o'rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo'lsa o'sha. Bu alohida fan. (26,93).

PTni fan sifatida e'tirof etish K.K.Selevko tomonidan ham ma'qullandi: "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham (ta'kid bizniki - N.S.), ta'limda qo'llaniladigan usullar, printsiplar va regulativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir" (24,15). Olimning ta'kidlashicha "pedagogik texnologiya" tushunchasi ta'lim amaliyotida uch ierarxik darajada ishlatiladi:

Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ma'lum mintaqada, o'quv yurtida, ma'lum o'qitish bosqichida yaxlit ta'lim jarayonini tavsiflaydi.

Xususiy metodik (predmetli) daraja: xusuiy predmetli PT "xususiy metodika" ma'nosida qo'llaniladi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig'indisi sifatida bir predmet. sinf, o'qituvchi doirasida qo'llaniladi (fanlarni o'qitish metodikasi, o'qituvchi, tarbiyachining ishlash metodikasi).

Lokal (modulli) daraja: lokal texnologiya o'zida o'quv - tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarini, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar yechimini o'zida mujassamlashtiradi

(alohida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, alohida shaxs sifatlarini tarbiyalas

I.Ya.Lernerning fikricha, PT - “o’quvchilar harakatlarida aks etgan o’qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi” (13).

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan ko’rinib turibdiki, PT belgilangan boshlang’ich maqsad va mazmun asosida o’quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilayapti. Bu bir jihatdan to’g’ri, lekin teranroq fikr yuritilsa uning bir yoqlamaligi ko’zga yaqqol tashlanadi yoki bunday yondashuvlarda o’quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bo’lib akademik V.P.Bespalko payqadi va o’zining yirik asarida “PT - bu o’qituvchi mahoratiga bog’liq bo’lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o’quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir” deb ta’rifladi (5). Bu ta’rif mazmunidan muhim ilmiy printsiplarni alohida ajratib ko’rsatish mumkin:

- PT o’quvchi(talaba)larda ma’lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;

- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o’qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;

- yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

PT tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta’riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada yechilganligini ko’rsatsa, ikkinchi tomondan, PTni amaliyotga joriy etishga bo’lgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

Qator yillar davomida PT nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog’liq bo’lmagan holda o’rganilib kelindi. Natijada o’qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o’quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg’or metodikalar texnologiyalar darajasiga ko’tarila olmay asta-sekinlik bilan o’z mavqeini yo’qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqdalar. Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo’lgan “Dasturli ta’lim” (Programmirovannoe obucheniye) yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi “Shatalovchilik harakat”ini eslash kifoya.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli. Nazariya va amaliyot birligining ta’minlanishi PTning asl mohiyatini aniqlashga yo’l ochadi. Fikrimizcha, yangi PT pedagogika fanining alohida tarmog’i sifatida yoki faqat ta’lim amaliyotini maqbullashtirishga yo’naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. PT bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Darvoqe, PTga “yangi” so’zini qo’shib ishlatilishi nazariyachi olimlar va o’qituvchilarni bir qadar o’ylantirib qo’ydi, endilikda ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini anglashga harakat qilmoqdalar. Shunday ekan, “yangi PT” nimani anglatadi? Bu savolning yechimini izohlashga harakat qilamiz.

Birinchiidan, PT ta’lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma’lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o’quv yurti) mavjud bo’ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o’z ta’sirini o’tkazadi va ta’lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. “Maqsad” esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o’z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayrlashning milliy dasturi ta’lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo’nalishga burdi, ya’ni: “o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitdan to’la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash” deb belgilanadi. Demak, ta’lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchiidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o’qitish imkoniyatlari katta bo’lgan yangi texnologiyalar (sanoat, qishloq xo’jaligi, elektron, axborot va boshqa) kirib kelmoqda. Ro’y berayotgan sifatiy o’zgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda “o’rganish”ning birlamchi jarayonlari an’anaviy

metodika va o'qitish vositalari romiga sig'may, o'qituvchining individual qobiliyatariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi PTni real voqelikka aylantirdi.

PT mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish ko'radi. Biroq PT inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, hatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari - tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

PT boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Afsuski, bu jarayon hozirgi ta'lim tizimida juda qiyin kechyapti, haqiqiy kompyuterli PT o'zining ilmiy ishlanmasini kutyapti: "kompyuterlarning shu kundagi qo'llanishi - ekstensivlik xolos: an'anaviy o'quv kurslari shunchaki ekran monitoriga joylashtirilyapti"(7). Shu yerda PT va axborot texnologiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatni oydinlashtirish lozim bo'ladi. Keyingi vaqtlarda ba'zi bir olimlar (ayniqsa informatika fani vakillari) PTni axborotlashtirishga qo'shish yoki tenglashtirish (ba'zan ustun qo'yish)ni yoqlamoqdalar. Bu urinishlar agar xato bo'lmasa, shubhasiz "podadan oldin chang chiqarishdir". o'quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy (ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab) voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy "burilish", uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda ta'limda axborot texnologiyasi - bu "o'quvchi - kompyuter" o'rtasidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya PTning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallashtirish zamonaviy turi sifatida ta'lim jarayonida qo'llanila boshlandi. Kelajakda iqtisodiy bo'hronlar ortda qolib o'quv yurtlari dasturli "mashina" bilan yetarli darajada ta'minlanadi. Shundagina axborotli texnologiya asosida o'quvchi (talaba)larning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funktsiyalarini to'liq bajarishi mumkin.

Ta'limni texnologiyalashtirish ob'ektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyot yo'nalishi bilan belgilanishini e'tirof etgan holda PTning o'ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog'liq vazifalarni belgilashga harakat qilamiz:

1) ko'p bosqichli ta'lim tizimida PTning o'rnini a'loqlash va zaruriy tavsianomalar ishlab chiqish;

2) zamonaviy sanoat, tibbiyot, iqtisodiyot, ekologiya, ergonomiya kabi soha texnologiyalari bilan PTlarni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ularni qo'llash mezonlarini aniqlash;

3) istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg'or PTlarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va samarasini aniqlash;

4) tegishli boshqaruv organlari (Ta'lim markazlari) tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida yangi PTlarni tadbiq etilishi darajasini nazorat qilish va baholash;

5) respublikamizdagi oliy (o'rta maxsus, kasb-hunar, maktab) ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ilg'or pedagog va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish;

6) oliy o'quv yurtlari talabalari, ayniqsa, mutaxassis-pedagog (iqtisodchi-pedagog, huquqshunos-pedagog, muxandis-pedagog va boshqa)lar uchun 40 soat hajmida PT nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maxsus kurs joriy etish;

7) respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilar ish uslublarini muntazam o'rganib borish va ular tomonidan yaratilgan metodikalarni yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish;

8) o'qituvchi faoliyatini pedagogik texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish muammolari va boshqalar.

Xo'sh, belgilangan vazifalarni amalga oshirish va nazorat qilishni kim o'z zimmasiga olishi mumkin? Xalq ta'limi vazirligimi yoki Oliy ta'lim vazirligi? Ehtimol, Ta'lim markazlarining vazifasidir? Yoki har qaysi ta'lim muassasalari o'z holicha yechaveradimi? Biz bu savollar bilan ta'lim sohasidagi u yoki bu boshqaruv organlariga vazifa yuklash fikridan yiroqmiz. Ayni shu kunlarda vakolatli davlat organlarining kun tartibida ham PT muammolari turganligiga shubha yo'q.

Fikrimizcha, ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash va hayotga tadbqiq etish muammosi mamlakatimizda ham rivojlangan davlatlar qatori yangi korxona - "Pedagogik texnologiya Davlat Markaz"ini tuzishni taqozo etadi. Agar shunday Markaz tashkil etilsa, birinchi navbatda "portlash effekti" sari yo'lni qisqartirishga hissa qo'shgan bo'lardi. Uchinchi ming yillikda ta'lim taraqqiyotining haqqoniy dvigateli sifatida o'qituvchi faoliyatini yangilashga, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba yoshlarda hurfkrilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatar edi.

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy sohalarida tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiyashunoslik tajribalarini o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

Sho'rolar tuzumi davrida barcha ijtimoiy fanlar kabi pedagogika ham mafkura qobig'i bilan o'ralgan, uning rivojlanish me'yori cheklangan, ilg'or chet mamlakat g'oyalari esa burjua g'oyalari, deb tanqid qilinar va rad etilar edi. holbuki har qanday g'oya ham o'zida ma'lum ijobiy jihatlarni mujassamlashtirishi mumkin, ularni amaliyotga joriy etish foydadan xoli emas edi. Jumladan, pedagogik texnologiya (PT) ham burjua didaktikasiga tegishli yo'nalish sifatida qarab kelindi va bu muammoni tadqiqot ob'ektiga aylantirish iloj yo'q edi.

Bugun mamlakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotimizga tadbqiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda "kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi".

Bu faslda biz pedagogik texnologiya nazariyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixiga nazar tashlaymiz.

30-yillarda "pedagogik texnika" tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrda PT deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50 yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQShda "Pedagogik texnologiya" (Educational Technology), 1964 yildan Angliyada "Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim" (Technoogy and pragrammed Learning), Yaponiyada esa 1965 yildan "Pedagogik texnologiya" (Educational Technology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

PT muammosining o'ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967 yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National council for Educational Technology) tashkil etildi va 1970 yildan boshlab "Pedagogik texnologiya jurnali" (Jornal of Educational Technology) chiqa boshladi. AQShning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham PT muammolariga jiddiy e'tibor berildi. 1971 yilda maxsus "Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiatsiya"si (Association for Educational Communications and Technology) faoliyat ko'rsata boshladi.

hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada PT muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud. har uch oyda yapon tilida chiqadigan "Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar" (Educational Technology Research) jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. Yaqinda Umumyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Technology Centers) tuzilib, bu sohada xalqaro aloqalar o'rnatish ishlari bilan mashhur.

Didaktikaning bu yo'nalishiga e'tibor nihoyatda oshib borishini 70-yillarda o'tkazilgan qator xalqaro konferentsiyalar tasdiqlaydi. Shunday xalqaro konferentsiyalar 1966 yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o'tkazilib kelinadi va anjuman materiallari "Pedagogik texnologiya jihatlar" (Aspects of Educational Technology) nomida nashr qilinadi.

Shu kabi ma'lumotlarni keltirishni g'arb davlatlari misolida yana ham davom ettirish mumkin, biroq 1-rasm bunga ehtiyoj qoldirmaydi. Yuqoridagilarning o'ziyoq PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo'nalish sifatida shakllanganligini ta'kidlab turibdi. Tahlillarning ko'rsatishicha, bu davrda PT ikki yo'nalishda muhokama qilindi va rivojlantirildi: birinchisi - o'quv jarayoniga texnik vositalarini qo'llash bilan bog'liq bo'lsa (shu jumladan dasturli ta'limning texnik vositalari), ikkinchisi - o'qitish texnologiyasi masalalarini, ya'ni o'quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta'lim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo'lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi. Shu yerda birinchi konferensiya materiallari (1966 yil) to'plamning kirish maqolasida yozilgan juda muhim dalilni keltirish o'rinlidir: "ikki tushuncha - "pedagogika" va "texnologiya"larni qo'shish mantiqi tortishuvlarga sabab bo'layapti. Chunki "texnologiya" so'zi sinf xonasiga texnikani kiritish va "degumanizatsiya" (insonparvarlikdan voz kechish) g'oyasi bilan tavsiflanishi pedagogik kasb vakillarini cho'chitishi mumkin". Albatta, bu fikr ma'lum darajada to'g'ri bo'lishi mumkin. Biroq texnokratik fikrlash (texnikaning inson va uning qadriyatlari ustidan ustunligi) fanda qoralanadi yoki inson hech qachon "temir mashina"ga tobe bo'lmaydi, balki uni o'z aql-zakovati bilan yaratadi va boshqaradi. Bu muammoning psixologik jihatlar bo'lib kam o'rganilgan soha.

70-yillarning boshiga kelib o'quv jihozlarining turli xillarini va o'qitishning predmetli vositalarini loyihalash va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zaruriy shartlardan biriga aylandi, ularsiz ilg'or metodika va o'qitish shakllari samarasiz bo'lishi, ta'lim sifatiga erishib bo'lmazligi anglab yetildi. Shu boisdan sotsialistik lagerdagi davlatlarda ham bu sohada ma'lum hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1965 yilda sobiq SSSR Pedagogika Fanlari Akademiyasida "o'quv jihozlari va o'qitishning texnik vositalari" ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi va hozir ham Rossiya ta'lim akademiyasi instituti sifatida faoliyat ko'rsatayapti. 1973 yilda Vengriyada "o'qish texnologiyasi Davlat Markazi" bevosita YuNESKO tashabbusi va dasturi asosida tashkil etildi va uning asosiy vazifasi o'qitish texnologiyasining yangi qirralarini kashf etish, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi masalalardan iborat bo'ldi.

YUNESKO insonparvar va taraqqiyparvar tashkilot sifatida xalqaro muammolarni o'rganish bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. 1971 yilda YuNESKO sobiq bosh direktori Rene Mais Frantsiya Bosh vaziri (ayni vaqtda Ta'lim vaziri) Edgardo Foraga murojaat qilib maxsus guruhga rahbarlik qilishni, tezkor o'zgarishlar ro'y berayotgan bir sharoitda jahon ta'limi oldiga qo'yilgan maqsadni va uni amalga oshirish uchun aqliy va moddiy vositalar miqdorini belgilab berishni iltimos qildi.

Shunday qilib, 1972 yilning kech kuzida Buyuk Britaniya va Frantsiya kitob do'konlarida "Yashash uchun o'qish. Dunyo tarbiyasi bugun va ertaga" (Learning to be The world of education today and tomorrow) kitobi paydo bo'ldi. Bu voqeaga roppa-rosa 27 yil vaqt o'tgan bo'lsa-da, ma'ruzaning asosiy g'oyalarini eslash foydadan xoli bo'lmaydi. Boz ustiga bu kitob

boshqalari kabi mamlakatimiz keng auditoriyasiga kirib kelmadi, kutubxonalarimiz boyligiga aylanmagan.

Komissiya tomonidan jahon ta'limining joriy holati tahlil qilinib asosiy yo'nalishlari belgilandi. Komissiya milliy Kontsepsiya, shuningdek maorif va tarbiyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun o'z tavsiyalarini ifoda etdi. Bu kontsepsiyaning bosh g'oyasi: inson butun hayoti davomida tiklanish holatida bo'ladi, demak u o'z potentsialini faqat uzluksiz ta'lim jarayonidagina amalga oshiradi - doimo yangiliklarni bilishga va mavjud tajribalarini faollashtirishga intiladi. Shu boisdan ma'lumotlilik faqat ma'lum hajmdagi bilimlarni uzatish bilan bog'liq holda emas, inson o'z hayoti davomida tiklanish jarayonining mantiqini aniqlaydigan omil sifatida tushunish kerak. Eng asosiysi, Edgaro Fora tomonidan "zamonaviy texnologiya ta'limni modernizatsiyalashda harakatlanuvchi kuch" ekanligi qayd etildi.

Bu davrda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar turli mamlakatlarda turlicha kechdi: ba'zi birlari amaliyotdagi mavjud ta'limni takomillashtirishni avzal ko'rsalar, boshqalari o'z oldilariga hozirgi ta'lim tizimini yangisiga almashtirishni maqsad qilib qo'ydi. Nihoyat, uchinchlari esa jamiyatni o'zgartirmasdan turib ta'lim tizimini isloh qilish mumkin emasligini, vaqtni boy bermasdan yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning yangi tizimini yaratishga kirishish kerakligini e'tirof etadilar.

Bugun o'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik fenomenning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz.

1977 yilda Budapeshtda o'tkazilgan o'qitish texnologiyasi bo'yicha Xalqaro semenarda ta'limni texnologiyalashtirish jarayoni bilan bog'liq omillar rus olimi S.G.Shapovalenko tomonidan quyidagicha belgilandi:

- texnikani bilish va mukammal egallash;
- audiovizual fondi bilan tanish bo'lish;
- texnik vositalardan foydalanish metodikasini egallash.

Biroq bu fikrning bir yoqlamaligi yakqol ko'zga tashlanadi. Undan farqli o'laroq g'oyalar shu seminar ishtirokchilari tomonidan aytiladi. Misol uchun, venger olimi L.Salai o'qitish texnologiyasi doirasini bir muncha kengaytirishga urinadi: rejalashtirish, maqsad tahlili, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, maqsad va mazmunga mos keladigan metodlar, vositalar va materiallarni tanlash bevosita PTni loyihalashdagi o'qituvchi faolitiyaga xosligini ta'kidlaydi. Shunga yaqin fikrlar, ya'ni o'qitish texnologiyasi o'zida yordamchi vosita va yangi tizimni qamrab olgan holda o'quv jarayonini rivojlantirishga, uning tashkiliy shakllarini, metodlarini, mazmunini o'zgartirgan holda o'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik tafakkurlashiga ta'sir ko'rsatishi J.Tseller tomonidan ta'kidlandi. Bu ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, 70-yillar oxiriga kelib chet ellarda texnika rivoji va ta'limni kompyuterlash darajasiga bog'liq holda PTning ikkita jihatlari alohida ajratilib ko'rsatilgan va tadqiq qilingan: 1) o'quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etish; 2) amaliy masalalar yechimini topishda bilimlar tizimidan foydalanish. Misol uchun, Yaponiyada bu davrda olib borilgan tadqiqotlar o'quv jarayonini texnologiyalashtirishning birinchi yo'nalishi, ya'ni ta'limning yangi texnik vositalarini yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan bevosita bog'liq bo'lgan (Noshinisono Narou, Edicational Technology in Japan, Audio shal Instruction, November, 1979).

Bunday holat boshqa qator davlatlar uchun ham xarakterli bo'lib, PTning ikkinchi yo'nalishi - nazariy-didaktik jihatlari 80-yillarning boshida AQSh va Angliyada tadqiqot ob'ektiga aylandi. Chunki "texnologiya" so'zi keng ma'noda nazariy bilimlarni amaliyot maqsadiga ko'chirish, bu ko'chirishning aniq yo'llarini ishlab chiqish zarurati e'tirof etildi.

Shunday qilib, 80-yillarda PTning mohiyatini oydinlashtirishga bo'lgan urinishlar yanada davom ettirildi. Bu soha Rossiyalik pedagog olimlarning diqqatini ham jalb eta boshladi. PTning rivojlanish tarixi T.A.Ilinaning ilmiy maqolalarida burjua didaktikasining yo'nalishi sifatida

talqin etilsada, u birinchilar qatorida o'z hamkasblarini bu muammo bilan shug'ullanishga da'vat etadi va chet el maktablari va pedagogikasida bu sohadagi yangi va qiziqarli nashrlarning barchasini kuzatish foydali ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shu boisdan 80-yillarning oxiri, 90-yillarda PTning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish Rossiyada keng yo'lga qo'yildi. Akademik V.P.Bespalkoning 1989 yilda nashr etilgan "Slagaemo'ye pedagogicheskoy texnologii" (5) kitobi bu sohadagi yirik tadqiqotlarning natijasi hisoblanadi. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, 80-yillardayoq Vladimir Pavlovich tomonidan PTning ilmiy maktabi yaratilgan edi va kitob muallifi ham shu dargohda tahsil olganligini alohida faxr bilan tilga oladi: Ustoz g'oyasi: "PT - amaliyotga joriy etiladigan ma'lum pedagogik tizim loyihasidir". Bugungi kunda ana shu kontsepsiya pedagogik hamjamiyat tomonidan tan olindi va olimlar tomonidan ta'limli texnologiyalarni loyihalash va rivojlantirishda foydalanib kelinmoqda. Fikrimizning dalili sifatida "Pedagogika" jurnalida chop etilayotgan qator maqolalarni keltirish mumkin (15; 16; 29).

Xo'sh, PT mamlakatimiz ta'lim tizimida, qolaversa, pedagogik nashrlarda ilmiy tushuncha tarzda qachon paydo bo'ldi? Shubhasiz, yangi soha 1997 yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida dolzarb tadqiqot ob'ekti darajasiga ko'tarildi va ijtimoiy buyurtma sifatida yuzaga qalqib chiqdi. Shu bilan birgalikda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bu muammoga qo'l urildi, aniqrog'i 1993 yilda "Xalq ta'limi" jurnalida chop etilgan maqolada birinchi marta PT tushunchasi mohiyati, uning ta'rifi va ma'lum pedagogik tizim doirasidagi talqini yoritildi (20).

Bugun esa PT mavzusi bo'yicha mamlakatimizda nazariy va amaliy konferentsiyalarni uyushtirish, vaqtli matbuotlarda maqolalarning tez-tez ko'zga tashlanib turishi ijtimoiy voqelikka aylanib boryotganligi quvonchlidir. 1997 yil may oyida Samarqand Davlat Universitetida o'tkazilgan "Oliy ta'limning hozirgi dolzarb muammolari" Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-metodik konferentsiyaning yalpi yig'ilishida "Pedagogik texnologiya: kontseptual tahlil" mavzusida ma'ruza qilindi (20). Ma'ruzada ta'limni texnologiyalashtirish jarayoni ijtimoiy buyurtma sifatida mavjudligi e'tirof etildi, PT ta'rifi, mohiyati va tarixi hamda zamonaviy loyihasi metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi.

PT muammolariga oid olimlarning fikrlari vaqtli nashrlarda, "Ma'rifat", "Uchitel Uzbekistana" kabi ro'znomalarda muntazam ravishda yoritilib turibdi. Demak, bu mavzu nazariyasi va amaliyoti ko'p ming sonli auditoriyaga kirib borayapti, o'qituvchilar kunlik faoliyatlarida ulardan foydalanayotganligi ma'lum.

Yaqinda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar va yechimlar" mavzuida Respublika ilmiy - amaliy konferentsiyani zamon talabiga hamohang harakat, deb baholash mumkin. Konferentsiyada qatnashish istagini bildirganlar va o'z materiallarini tashkiliy qo'mitaga takdim etganlar soni 300 tadan oshib ketdi. Afsuski, ulardan 90 ga yaqini tanlab olish va kitob holida chop etish imkoniga ega bo'ldik (27). Konferentsiya materiallarining tahlili shundan dalolat beradiki, bu muammo o'ziga nafaqat nazariyachilarni, balki ko'proq Xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar va tarbiyachilarni ham jalb etmoqda. Shu bilan birgalikda ayrim ma'ruzalar talab darajasida emasligi yoxud eski qolipdagi metodikalardan farq qilmasligi shu'balar faoliyatida sezilib qoldi.

qo'limizda Oliy va o'rta maxsus maktab muammolari instituti tomonidan chop etilgan "Progressivno'ye pedagogicheskie texnologii". - T., 1999 risolasi (muallifi - iste'fodagi polkovnik, muhandis-olim Farberman B.L.). Uning kirish qismiga nazaringiz tushishi bilan hayratdan yoqa ushlaysiz! : "Chto je predstavlyaet soboy pedagogicheskaya texnologiya i chem ona otlichaetsya ot traditsionno'x metodov obucheniya? " (3-b). Nahotki muallif PTni o'qitish metodi deb tushunadi? Yoki u shunchalik pedagogika fanidan yiroqmi? Ana shu savollar og'ushida o'qishni davom ettiramiz: "Besporno, klyuchivo'mi slovami v etom opredelenie yavlyayutsya "sistemno'y metod", vse ostalno'ye slova xarakterizuyut komponento' pedagogicheskoy texnologii kak sistema". Ana, xolos! Yuqoridagi shubhalar nahotki o'rinli bo'lsa?! Olim "pedagogik texnologiya - tizimli metod" deya jar soladi va bu ta'rifni YUNESKO "ta'rifi", deb ishontirishga harakat qiladi. Bu haqiqat bo'lishi mumkin, afsuski, ishda uni qaysi

manbadan olinganligi noma'lum bo'lib qolgan. Boz ustiga pedagogika fanida "tizimli metod" mavjud emas va metodik adabiyotlarda ham bu tushuncha mutlaqo uchramaydi. Risolaning 15 - betini ochamiz: "Pedagogi Uzbekistana nedostatochno znakomo` s pedagogicheskoy texnologiey" (Ta'kid bizniki - N.S.). Ochevidno, chto ispravleniyu etogo polojeniya neobxodimo udelit seryoznoe vnimanie". Gapning ochig'i, men bu fikrga qo'shila olmayman va olimning yana bir "kamtarligi" deb baholayman. Shu boisdan bu fenomen nafaqat o'zbek pedagoglariga, balki sobiq ittifoq pedagoglariga ham tushunarsiz edi. Misol uchun, Rossiya pedagoglari ham PT muammolari bilan, asosan, 90-yillardan boshlab keng doirada shug'ullana boshladilar. Ana shu davrdan boshlab o'zbekistonlik pedagog olimlar ham PTni o'z tadqiqot ob'ektiga aylantirganidan domlaning xabarlarini yo'q, shekilli. Xullas, risola PT talablariga to'liq javob bermasligini, unda "testologiya"ga oid materiallar chet el tajribasidan, PTga oid fikrlar esa ushbu kitobning adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan 10-manbadan olinganligini ta'kidlagan holda munozaraga nuqta qo'yamiz.

XXI asrga qadam qo'yish arafasida G.K.Selevko tomonidan PTga oid yirik metodologik asar - o'quv qo'llanma yaratildi va unda pedagogik texnologiyalar tasnifi keltiriladi (24). Olim PTLarni o'n ikki turga ajratadi:

1. qo'llanish darajasi bo'yicha (umumpedagogik; xususiy predmetli; lokalli, modulli, tor pedagogik).
2. Falsafiy asos bo'yicha (materializm, idealizm, dialektik, metafizik, insonparvar, noinsonparvar, antroposofiya, teosofiya, pragmatizm, ekzistentsializm, stsionizm).
3. Ruxiy rivojlantirishning yetakchi omillari bo'yicha (biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik).
4. o'zlashtirish kontseptsiyasi bo'yicha (assotsativ - reflektorli, rivojlantiruvchi, bexavioristik, geshtalttexnologiya, suggestiv, neyrolingvistik).
5. Shaxs tuzulmasiga yo'naltirilganlik bo'yicha (informatsion, operatsion, hayajonli - badiiy , hayajonli - axloqiy, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, evrestik va amaliy).
6. Mazmuni va tuzulish xarakteri bo'yicha (ta'limiy va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta'lim va kasbga yo'naltirilgan, gumanitar va texnokratik, turlicha sohaviy texnologiyalar, xususiy predmetli hamda monotexnologiyalar, politexnologiyalar).
7. Tashkiliy shakllar bo'yicha (sinf - dars, muqobil, akademik, yakka tartibli, guruhli, jamoa bo'lib o'qish usullari, tabaqalashtirilgan ta'lim).
8. Bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turi bo'yicha (ma'ruzali klassik o'qitish; audiovizual texnik vositalar yordamida o'qitish ; "maslahatchi tizim"; kitob yordamida o'qitish; "kichik guruh" tizimi ; kompyuterli o'qitish; "repetitor" tizimi; "dasturli ta'lim" - V.P.Bespalko).
9. Bolaga yondashish bo'yicha (avtoritar, didaktotsentrik, shaxsga yo'nalgan texnologiyalar, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiyalash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar).
10. Ustuvor metodlar bo'yicha (reproduktiv, tushuntirish - ko'rsatish, rivojlantiruvchi ta'lim, muammoli ta'lim, ijodiy; dasturli ta'lim, dialogli , o'yinli ta'lim, o'z-o'zini o'qitish ta'limi, informatsion ta'lim).
11. Mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yo'nalishlari bo'yicha (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida; bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosida; tashkillashtirish va boshqarish samaradorligi asosida; o'quv materiallarni metodik va didaktik rekonstruktsiyalash asosida; tabiatan monandlik, muqobillik texnologiyalari; mualliflik maktabining yagona texnologiyasi).
12. Tahsil oluvchilar toifasi bo'yicha (ommaviy texnologiya, olg'a odimlovchi ta'lim, to'ldiruvchi; o'zlashtirmovchilar bilan ishlash texnologiyalari, iqtidorlilar bilan ishlash texnologiyalari).

Bu ta'snifni keltirishdan asosiy maqsad pedagoglarni o'tmishda qullanilgan, hozirgi kunda joriy etilayotgan va kelajak faoliyatda qullash mumkin bo'lgan texnologiyalar bilan to'liq tanishtirishdir. Ularning ko'pchiligi sizga mutlaqo notanish ekanligiga ham ishonamiz, biroq bundan tashvishga tushishga hojat yo'q. Bu haqda G.K. Selevkoning kitobidan (24) to'liq ma'lumotlarni olishingiz mumkin. Tasnifdan ko'rinib turibdiki, olimning o'zi ham har doim

ilmiy jihatdan asoslangan va hammaga ham tushunarli bo'lgan texnologiyalarni keltirish lozimligi oldida hisob beravermaydi.

Shunday qilib, PT kontseptsiasining rivojlanish tarixini kuzatish natijalari asosida bu sohada sermashaqqat izlanishlarni olib borayotgan tadqiqotchilarni faoliyat darajalariga bog'liq holda shartli uch guruxga ajratish mumkin:

1. Ba'zi "jonkuyar" olimlarning PTni pedagogikadagi zamonaviy yo'nalishi deb an'anaviy yondoshishlari va o'z imkoniyatlari doirasida muammoga ilk bor qo'l urishlari. Ular "tasodifiy" gurux vakillaridir.

2. Ta'limning bugungi ahvoliga qayg'uradiganlar va uni inqirozdan qutqaruvchi kuch texnologiyalashtirish deb qaraydigan "qisman ijodkor" guruhiga mansub tadqiqotchilardir.

Bu guruh a'zolari texnologiyalashtirishni ob'ektiv jarayon, deb hisoblaydilar va yangi sifatiy muammolarni yechish uchun ta'limni evolyutsion jarayonga ko'tarish shartlaridan biri ekanligini e'tirof etgan holda ijod qilmoqdalar. Ular "ilmiy" guruhni tashkil etadilar.

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida jamiyatning potentsial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, kuchli intellektual va ma'naviy salohiyatni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Fuqarolik jamiyatini barpo etish kontseptsiyasi bevosita ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni loyihalash va pedagogik amaliyotga tadbiiq etish bilan uzviy bog'liqdir.

Respublikamiz Prezidenti Oliy Majlisning XIV sessiyasida "yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni nazorat ostiga olish zarur"ligini alohida ta'kidladilar. Bugun olimlar va o'qituvchilar ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga astoydil kirishishlari shart va ular bu ishga mas'uldirlar. Bu sohaga yaqin xorijiy davlatlarda ham e'tibor kuchaytirilmoqda. quyida rossiyalik olimlar tomonidan taklif etilgan yangi pedagogik texnologiya loyihalari bilan tanishasiz.

- texnologik xaritani loyihalash kasbiy ko'nikmasi. Bu jarayon pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, sababi o'qituvchi bo'lajak o'quv jarayonini oldindan ko'ra biladi, o'z g'oyalarini texnologik xaritada qoidali tarzda tasvirlaydi. Ta'kidlash joizki, bu kasbiy ko'nikma yetarlicha murakkab, ko'p bosqichli, o'z mohiyatiga ko'ra integrativ bo'lib o'qituvchidan yaxshi rivojlangan refleks qobiliyatni talab etadi;

- tarix darsining axborotli xaritasini konstruksiyalash kasbiy ko'nikmasi yoki bu xaritalar yig'indisi har bir o'quv mavzusi uchun bo'lajak o'quv jarayonining aniqlashtirilgan loyihasi hisoblanadi;

- ikki pedagogik ob'ektni taqqoslash kasbiy ko'nikmasi: texnologik xaritalar ko'rinishidagi o'quv jarayoni loyihasi va ma'lum sinfda real o'quv jarayoni natijalari bilan birgalikda darsning axborotli xaritalar tizimi. Taqqoslashni aniq ko'rsatkichlar va texnologik muolajalar bo'yicha o'tkazish kerak. qiyoslash muolajalari asosida tashxislash natijasiga ko'ra mazkur sinfda o'quv-tarbiyaviy faoliyat rivojini qayd etuvchi maxsus monitoring yotadi.

O'quv jarayoni loyihasini me'yorlash aksiomasining (A8) mohiyati quyidagilardan iborat: o'quv jarayoni loyihasi texnologik xarita tarzda tayyor bo'lgach, bevosita zaruriy hisoblar amalga oshirilishi kerak: o'quv vaqti, didaktik axborotlar hajmi, uni o'zlashtirish tezligi, shu o'quv mavzusi chegarasida o'quvchilarni rivojlantirishning metodik dasturiga ajratiladigan vaqt va boshqa.

Muammoli- modulli o'qitish texnologiyasi (Choshanov M.A.) - Modulli ta'lim dastlab AQSh, Olmoniya, Angliya kabi rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish tizimida qo'llanila boshlandi va katta shov -shuvlarga sabab bo'ldi.

Biroq modulli ta'lim o'zining yetarlicha "puxta"ligiga qaramasdan mazmun jihatdan ham, "yosh" jihatdan ham (u 60-yillarda vujudga kelgan) hanuzgacha tortishuvlarga, fikrlar qarama-qarshiligiga uchrab kelyapti. qator xorijiy mualliflar (V.Goldshmidt, M.Goldshmidt va boshqa) modul deganda aniq o'rnatilgan maqsadga erishishga yordamlashadigan yaxlit o'quv faoliyatini shakllantirishni tushunishadi. Modul mohiyati o'quv materialining avtonom bo'laklarini qurish to'g'risidagi birmuncha farqliroq fikr D.J.Rassel tomonidan aytiladi. P.A.Yutsyavichenening ko'rsatishicha, "modulli o'qitish mohiyati shundan iboratki, o'rganuvchi qisman yoki to'liq

mustaqil ravishda unga taklif etilayotgan o'zida harakatlarning maqsadli dasturini, axborotlar bankini va qo'yilgan didaktik maqsadga erishish bo'yicha metodik ko'rsatmani qamrab olgan individual o'quv dasturi bilan ishlashi mumkin. Bunda pedagog vazifasi axborotli nazorat qilishdan tortib maslahatchi - koordinatsiyalovchilikka qadar turlanishdan iborat bo'ladi" (30, 10).

Professor M.A.Choshanov ham keyingi fikrga qo'shilgan holda fan rivojining hozirgi bosqichida modullilik tushunchasi metodologik mazmunga ega bo'layotganligini alohida ta'kidlaydi.

Muammoli o'qitishning didaktik tizimida birmuncha to'liq tadqiq qilingan tashkil etuvchisi muammoli ta'lim hisoblanadi. U o'rganuvchilarning fikrlash faoliyatini birmuncha faallashtirishga, ularda muammoning yechimiga yondashishni shakllantirishga, va nihoyat ijodiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlarini - muammoli vaziyatlar va ularning yechimlarini tuzish bilan ta'minlanadi. Muammoli vaziyat o'qitish jarayonida muhim motiv va hayajonli vosita sanaladi. Uning samarasi to'g'risida A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov, I.Ya.Lerner kabi yirik olimlar o'z nazariyalarini yaratdilar.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o'zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi: gnoseologik, metodik va o'quv. Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyutsiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo'l qo'yiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish o'quvchi (talaba)larda borliqni tanqidiy mushohidalash, tahlil qilish va o'z xatolarini to'g'rilash ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o'quv predmeti va fanga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi: o'rganilayotgan fan mazmuni o'rganuvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig'indisi sifatida emas, balki g'oyalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzda, ijtimoiy maktab va yo'nalishlar kurashi tarzda, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Metodik xatolar o'quv xatolari bilan o'zaro bog'liq: o'rganish xatolari ko'p hollarda - o'qitish xatolari natijasidir. o'quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhlanadi va keyinchalik kuchli ta'sir etuvchi vositalar sifatida foydalaniladi. Agar an'anaviy o'qitishda bilmaslikdan bilishga o'tish standartli vaziyatlarni qo'llash bilan chegaralansa, muammoli-modulli o'qitishda o'quvchining yaqindan rivojlanishi doirasi yangi bilimlarni yuzaki o'zlashtirish va noto'g'ri qo'llashga olib keladigan tanqidiy vaziyatlar - xatolar sohasigacha kengaytiriladi. Bunday sharoitda bilmaslikdan bilishga o'tish sohasi o'rganuvchi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo'lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanish mintaqasiga aylanadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining yetakchi sifat belgisi - bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlar bilan ta'minlanadi: muammoli-modul tuzilmasining safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog'onali, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqa.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va modulli printsip asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

M.A.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli modullarini guruhlash yo'li bilan kursni to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarini ishlab chiqishni ta'minlaydigan dialektik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;

- bilim darajasiga bog'liq holda talabalarning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo'ylab individual siljish sur'atini ta'minlanishi;

- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun stsenariylar sifatida foydalanish;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi ishida maslahatchi-koordinatsiyalovchi vazifaga urg'uni ko'chirish;

- o'quv materialini bayon qilish tezligi va o'zlashtirish darajasiga putr yetkazmagan holda o'qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish;

Shu bilan birgalikda opponentlar tomonidan muammoli-modulli o'qitishning qator kamchiliklari ko'rsatildi, ular: ta'lim jarayonining bo'laklarga bo'linganligi, ya'ni o'quvchilarning mustaqil ishlari salmog'i birmuncha katta; o'quv predmetining yaxlitligi va mantiqini inkor etish; o'quvchilarni tayyorlash torligi: o'qitish kursining bog'liq bo'lmagan muammolar yoki masalalar seriyasiga qadar qisqarishi; umumlashmaga ziyon yetkazadigan xususiy, aniq ko'nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlikning ko'p mehnat talab qilishi.

Sanab o'tilgan kamchiliklarning ko'pligi modulli o'qitish texnologiyasini o'rnatish bosqichida birmuncha aniq sezilsa-da, asta-sekinlik bilan dazmollanib boradi. Shuni eslatish joizki, u yoki bu texnologiyani "toza" holda joriy etish mumkin emas. Xohlaymizmi yoki yo'qmi, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy yondashuviga va mavjud didaktik jarayonga tayanishga to'g'ri keladi.

Ta'lim mazmunini muammoli-modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo'ladi:

- bilish faoliyatining fundamental metodlari doirasida kursni joy-joyiga qo'yib tuzish. Misol uchun, matematika kursida bunday metodlarga matematik modellashtirish, aksiomatik, koordinat, vektorli, mantiqiy metodlar kiradi;

- tayanch muammoli modullarning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilish faoliyati metodlarining printsipli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- fundamental, uzviylik, uzluksizlik va ta'limni insonparvarlashtirish;

- yechimi bilish faoliyati metodlarining mosini qo'llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o'ziga xosligini hisobga olib ajratish;

- ixtisosli va darajali tabaqalashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zgaruvchan modullarning mazmunini tanlash va hajmini aniqlash, shuningdek, muammoli-modulli dasturlarning turli - to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlari bo'yicha o'quvchilarning yakka tartibda olg'a siljishi uchun sharoitlar yaratish.

Muammoli modullarni qo'llash ko'lamini quyidagi tartibotlarni qamrab oladi: tizimli, avtonom va integratsiyalashgan. Tizimli tartibot muammoli modullaridan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi. Avtonom - ma'lumot moduli sifatida boshqa fanlar doirasida, integratsiyalangan - integrativ kurs doirasida qo'llanishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi (Bespalko V.P.) - Bu texnologiyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun akademik Bespalko V.P. tomonidan yaratilgan "didaktik jarayonni boshqarish tizimining rivojlanish spirali"ni tahlil qilish kerak bo'ladi (2 - rasm).

XVI asrga kelib nashr ishlaridagi inqilobiy o'zgarishlar ta'lim tizimida "darsliklar"ni (4) qo'llash imkoniyatini tug'dirdi. Kommunikatsiya sohasidagi texnikaviy taraqqiyot esa sinf va xonadonlarni axborotli uzatish vositalari bilan jihozladi. Kompyuterlarning vujudga kelishi didaktik jarayonni yopiq boshqarish imkoniyatlarini tug'dirsa-da, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olmadi (dasturli ta'lim - 6). Shaxsiy kompyuterlar texnikasining

rivojlanishi psixologik-pedagogik bilimlar o'sishi bilan hamkorlikda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammosini keltirib chiqarmoqda.

Akademik V.P. Bespalko tizim 8 - yakka tartibli bilish faoliyatini dasturli boshqarishga alohida urg'u berib "xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlarida rivojlanishning yangi bosqichini ifodalaydi va o'quvchilarning sog'ligiga zarar yetkazmagan holda zaruriy musbat siljishlarga olib keladi" deb ta'kidlaydi (7, 15). O'zida aniq o'rnatilgan didaktik masalalar va pedagogik texnologiyalarni mujassamlashtirgan pedagogik tizim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, deb ta'riflanadi. Bu tizimdagi didaktik masalalarga qisqacha izoh beriladi. hozirda mavjud yakkalashgan pedagogik tizimlar - umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim - shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va takomillashtirishning yagona tizimiga aylanishi kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim barcha turdagi ta'limlarni yo'nalishlar bo'yicha integratsiyalashni taqoza etadi. Ta'limning birinchi bosqichidayoq (maktabgacha ta'lim) bolaning ehtimolli shaxsiy yo'nalishlari psixologik-pedagogik kuzatishlar yordamida aniqlanadi, ma'lum faoliyat turiga qobiliyatlari, yangi iste'dod nishonalari belgilab olinadi. Bu tabaqalashtirish psixologik pedagogika sohasi bo'lib, afsuski, kam tadqiq qilingan va kam ishlangan. Shu bilan birgalikda hammaga yaxshi ma'lumki, shaxsning maxsus iste'dod nishonalarini erta aniqlash va uni muntazam rivojlantirib borish vaqti soati bilan o'z mevasini beradi - yangi g'oya va faoliyat metodlarini haqiqiy yaratuvchisi tarbiyalanadi.

Shaxsning rivojlanish dasturi aslida har bir insonga tug'ma holda beriladi, biroq uni amalga oshirish, afsuski, hozirgi ta'lim tizimida qaralmagan. Mana, nima uchun dunyoda qiynalganlar va jinoyatchilar mavjud (7, 16). Shu boisdan bolaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga kirishishi uni ixtisosli kasbga tayyorlashning boshlanishi bo'lishi kerak va barcha o'quv dasturlari mazmuni ma'lum faoliyat turining ijodkorini tarbiyalash masalasiga bo'ysunishi kerak. Yuqorida ta'kidlanganlar eskirgan, biroq mustahkam tezis - texnik taraqqiyot davomida inson mehnatining o'zgarib turishi, shu boisdan keng umumiy va politexnik ta'limni bunday o'zgarishlar asosi sifatida joriy etish zaruratiga qarama-qarshidir. Bugun hayotning o'zi guvohlik beryapti: texnik taraqqiyot mumkin qadar yuqori kasbiy mahorat darajasini taqoza etadi. Unga erishish uchun bir mehnat turi doirasida faoliyatni maqsadli yo'naltirish va chuqur mutaxassislashtirishni talab etyapti, aksincha, doimiy uni almashtirishni emas.

Tashxislanuvchan tarzda o'rnatilgan maqsadli pedagogik tizim ochiq bo'lishi kerak, ya'ni o'rganishning har qanday bosqichida o'quvchi undan chiqib ketishi yoki qayta kirib kelishi mumkin. Bu esa aniqlangan maqsadga mos holda ta'lim mazmunini ilmiy asosda saralashga imkon beradi. Ta'lim mazmunini jamlashda o'quvchilarni asossiz yuklab tashlash va o'qituvchi o'qitishda inqirozga xos hodisalarni yuzaga chiqaruvchi oldingi amorf va ixtiyoriylik uni aniq loyihalash, o'qish yillari bo'yicha taqsimlash va dozalashga joy bo'shatib beradi. o'quv fanlari tizimi ortiqcha bo'lmasdan qat'iy uzviylikka va belgilangan mahorat bosqichida o'zlashtirishga olib keladi.

Pedagog bulganim uchunmi, ular qalay o'quvchilik yillarim, o'qituvchilarim, sinfdoshlarim tez-tez ko'z oldimda namoyon bo'ladi. Oradan roppa-rosa o'ttiz yil o'tibdi ... Maktab qo'ng'irog'i chalinishi bilan har kuni sinflar minglab o'qituvchilarni o'ziga chorlaydi. Mana ular maktab yo'laki bo'ylab dadil yurib kelishayapti, sinf eshigi sim-sim ochiladi-yu va ulkan sirli hayot boshlanadi. Uning nomi pedagogik faoliyat, pedagogik ijod.

Bugun Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ijodiy pedagogika, ijodkor o'qituvchiga ehtiyoj nihoyatda ortib bormoqda. Ajoyib maktab qurilishi mumkin, o'quv xonalari zamonaviy jihozlar bilan bezatilishi mumkin, yangi o'quv darsliklari nashr qilinishi mumkin - lekin bularnig hammasi hali yetarli emas. Maktabga haqiqiy pedagog, o'qituvchi - shaxs kirib kelgandagina ular jonlanadi, ijodiy pedagogikaning mash'alasi uchqunlanadi, pedagogik nazariya va tizimlar, ko'rgazmali qo'llanmalar harakatga keladi. Bugun ta'lim muassasalariga ijodkor o'qituvchilar kerak. Prezidentimiz "zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiylarning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak" deganda fidokor pedagoglarni nazarda tutgan edi.

Ijodiy pedagogik faoliyat - bu inson shaxsini, uning dunyoqarashini, ishonchini, ongini, xulqini shakllantirishga bo'ysindirilgan cheksiz masalalarni yechish jarayonidir. Psixologik - pedagogik adabiyotlarda pedagogik faoliyat turlari (ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, safarbarlik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, kommunikativ va boshqa) qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda pedagogik faoliyat muntazam o'zgaruvchan, yangilanuvchan, rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi, unga ijtimoiy buyurtma uzluksiz ta'sir ko'rsatadi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi ham bevosita o'qituvchidan ijodkor faoliyatni, qolaversa, ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soha bilimlarini talab etadi. Modamiki, texnologiya mavjud ekan, uni ta'lim-tarbiyaga singdirish shart ekan, bu jarayon qaerda kechishi mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Javob aniq: u, shaksiz, pedagogik korxonada - pedagogik ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradi. Taniqli pedagoglardan biri ta'kidlaganidek, "bizning pedagogik ishlab chiqarish hech qachon texnologik mantiq bo'yicha qo'rilmagan, aksincha har doim ahloqiy va'z (nasihat) mantiqi bo'yicha qurilgan. Shu sababdan ta'limda ishlab chiqarishning barcha muhim bo'limlari shunchalik ishtiroksiz qolyapti". Ushbu faslning vujudga kelish sabablaridan biri ham ana shu holat.

Endilikda pedagogik atamalar tarkibiga "texnologiya", "operatsiya"(amal), "ishlash qobiliyati", "texnik nazorat", "dopusk" (o'lcham farqi) kabi qator tushunchalarni kiritish, ularning pedagogik talqinini yaratish va bevosita o'qitish jarayonida qo'llash kundalik zaruratga aylanmog'i darkor. Zamonaviy o'qituvchi faoliyati bilimlarni uzatuvchi oddiy metodist sifatida emas, balki "o'qituvchi - texnolog" nuqtai nazaridan baholanishi kerak.

Texnologiya - bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir. "Texnologiya" tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
- o'qitish daomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish;
- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy xarakatlarni algoritmash;
- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqa.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida bu bosqichlarning har biri o'ziga hos amallardan iborat bo'ladi.

Amal - o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi. Agar o'quv predmetining har bir mavzusi alohida bosqich hisoblansa, shu mavzu bo'yicha o'quv elementlarining har biri alohida amal sifatida qaralishi mumkin. Amal texnologiya asosini tashkil etib ta'lim maqsadini rejalashtirishda va amalga oshirishda e'tiborga olinadigan asosiy element hisoblanadi. Amallar bir qator usullardan iborat bo'lib, ularning har biri harakatlarga bo'linadi. Boshqacha qilib aytganda, biror bir o'quv elementini tushuntirish uchun o'qituvchi samarali ta'lim vositalari, metodlaridan foydalanish davomida u yoki bu algoritmik harakatni maqsadiga mos holda aniq bajaradi.

Texnik nazorat - o'qituvchi (laborant) faoliyatiga tegishli funktsiya bo'lib texnologiyada ishtirok etayotgan vositalarning texnik holatini aniqlash va baholashdir. Binobarin, qo'llanish zarur bo'lgan o'qitishning texnik (yoki ko'rgazmali qurollar, trenajerlar va boshqa) vositalarni mashg'ulot oldidan tayyorlash yoki ishlatish jarayonida o'zgaradigan xususiyatlarini belgilab olish ta'lim jarayonining bir tekisda, uzluksiz davom etishni, vaqtdan samarali foydalanishni kafolatlaydi. Vaqt o'tishi bilan u yoki bu texnik vosita ko'rsatkichlari o'zgarishi, pasportida ko'rsatilgan miqdordan farqlanishi mumkin. Shu boisdan "dopusk" tushunchasi texnologiyada qo'llaniladi. Dopusk - eng katta va eng kichik chekli o'lchamlar orasidagi farq, o'lchamdir. Didaktik jarayonda foydalanilayotgan har bir texnik vosita uchun dopusk maydoni - ishlatish chegarasi bo'ladi. Agar shu chegara buzilsa pedagogik texnologiya bosqichlri sifatiga putr yetadi

yoki ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Demak, o'qitishning texnik vositasini yaroqli holga keltirish choralari ko'riladi.

Dopusk tushunchasiga, shuningdek, reyting tizimida ham duch kelishimiz mumkin. O'quvchi (talaba) bilimini baholashda chekli ballar miqdori keltiriladi: "o'rta" - 55-64,9; "yuqori" - 65-85,9 ; "juda yuqori" - 86-100. Demak, o'quvchi bilimini "o'rta" baholashda dopusk qiymati - 64,9-55 q 9,9 va hakoza.

O'qituvchi faoliyati tavsifnomasida "texnologiyalanuvchanlik" o'ziga xos yangi tushuncha sifatida o'z o'rnini topishi kerak. U ta'lim jarayonining samaradorligini, maqbulligini, ilmiyligini yangi sifat darajasiga ko'tarilganligini belgilab beradi. Yoxud texnologiyalanuvchanlik - bu pedagogik jarayonnig texnikaviy qurollanganligini yoki instrumentallik darajasini belgilovchi tik ko'rsatkichdir.

Texnologiyada oldindan belgilangan maqsadga to'liq mos keladigan natijalarni ta'minlovchi predmetli sohaning ob'ektiv qonunlari o'z ifodasini topadi. Biroq pedagogik faoliyatning texnologik jihatlari (texnikaviy yoki boshqa materialli faoliyatdan farqlanuvchi) shaxs sifat ko'rsatkichlaridan, uning mag'zi esa hayajonli-axloqiy tajriba elementlaridan ayri holda bo'lishi mumkin emas.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati - tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'pqirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularni kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga oliniyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa o'qituvchining texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq. O'qituvchining belgilangan ta'lim (tarbiya) vazifalarini me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida yo'l qo'yiladigan chegaraviy ko'rsatkichlar doirasida bajarish holati ishlash qobiliyati deb atalishi mumkin. Binobarin, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

Pedagogik nashrlarda o'qituvchi faoliyatini baholash uchun qator ko'rsatkichlar tavsiya etiladi, shu jumladan:

1) pedagogik natijaviylik - o'qituvchi o'qitgan guruhida fan bo'yicha o'zlashtirishininig o'rtacha qiymati;

2) o'qitishning ilmiylik darajasi - o'qituvchining o'quv elementlarini fan abstraktsiyasi pog'onalari bo'yicha tushuntirishi;

3) ta'lim mazmunini metodik tayyorlash - umumiyliigi, izchilligi, harakatdaligi, ortiqcha emasligi kabi talablarni e'tiborga olinishi;

4) ta'limda u yoki bu natijani qo'lga kiritish yo'llaridan samarali foydalanish - ekstensiv yoki intensiv sharoitda va hakoza.

Aslida ijodkor o'qituvchi uchun asosiy kasbiy-me'yoriy ko'rsatgich - bu birinchi navbatda o'z holatini pedagogik jarayonda bunyodkor sifatida his etishi va anglab yetishdir. o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatiga xususiy kasbiy yaroqligini, pedagogik voqelikdagi o'z o'rnini baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni talab qilib bo'lmaydi. Pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir inson o'zining unga moslanuvchanligini, qolaversa "inson-inson" ko'rinishdagi kasblar tizimiga - pedagogik mehnat ana shunday tizim - layoqati, qiziqishi borligini to'liq tasavvur etishi kerak. Bu sifatni aniqlash yo'llari hilma-hil. Misol tariqasida quyidagi tayyor testni tavsiya etish mumkin (Klimov Ye.A.):

1. Boshqalar sizni muloqatda xafa qilib qo'yadigan, ozor beradigan shaxs deb hisoblaydimi?

2. Sizning dilingizda muloqat natijasida turli ehtirolardan hosil bo'lgan xafgarchilik yoki xursandchiliklar uzoq saqlanib turadimi?

3. Kayfiyatingizda ko'tarilish va tushish hollari tez-tez bo'lib turadimi?

4. O'z nomingizga qilingan tanqiddan og'ir va uzoq aziyat chekasizmi?
5. Sizni shovqin, quvnoq kompaniya charchatadimi?
6. Yangi odamlar bilan tanishganingizda o'zingizda sezilarli darajada qiynalish, uyalish holatlari kechadimi?
7. U yoki bu haqda o'zga odamlardan so'ragandan ko'ra kitoblar yordamida bilib olishingiz yengil va yoqimli?
8. O'zingizda yolg'iz dam olish, jimjitlikda bo'lish istagi tez-tez sezilib turadimi?
9. Siz gaplashish to'g'ri kelganda kerakli so'zlarni uzoq qidirasizmi?
10. Siz keng davrada yangi tanishuvdan ko'ra doimiy tanish bo'lgan kichik guruhni xohlaysizmi?

Agar javoblar ko'pchilik savollarga "ha" tarzda bo'lsa, ochig'i pedagogik faoliyat oson kechmaydi. o'qituvchi o'z-o'zini kasbiy-shaxsiy tarbiya ishlari sohasida ko'p mehnat qilishi kerak bo'ladi. Eng muhimi, xususiy pedagogik faoliyat mohiyatini, ahamiyatini va maqsadini tushunib yetish, doimiy ravishda joriy o'qitish vazifalarini istiqbolilari bilan birga olib borishni uddalashi kerak. Agar shu qobiliyat o'qituvchida yo'q bo'lsa, u yaxshigina "bajaruvchi" bo'lishi mumkin, lekin hech qachon ijodkorlik pog'onasiga ko'tarila olmaydi.

Pedagogik texnologiya esa har doim ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Xo'sh, o'qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasi qanday mezonlar bilan o'lchanadi? Fikrimizcha, bunday mezonlar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad - o'quvchi(talaba) tomonidan didaktik jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar, faoliyat turlari;
- ta'lim mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraktsiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi;
- o'quv materiallarni o'zlashtirish bosqichlarining yetarlicha mantiqiy qat'ianligi - didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi;
- o'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi;
- o'qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatilishi;
- o'quvchi(talaba) va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy va kasbiy mohiyat va boshqalar);
- o'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

O'ylaymizki, bu ko'rsatgichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa o'qituvchini yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, o'quvchi (talaba)ning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi. Shu bilan birgalikda taklif etilganlar "haqiqatning oxirigi bekati" degan fikrdan uzoqmiz, chunki pedagogik texnologiyani loyihalash shunchalik murakkab jarayonki, u har bir ta'lim turi, qolaversa, har bir fan uchun o'ziga hos ijodkorlikni talab etadi.

Agar o'z pedagogik faoliyatiningizning ushbu mezonlarga mos kelishini ta'minlayotgan bo'lsangiz, shubhasiz, Siz loyiha muallifisiz. Endi metodist-o'qituvchilikdan "pedagog-texnolog" darajasiga ko'tarildingiz. Shunday yangi kasbiy faoliyat har biringizga nasib etsin.

Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchi (talaba)larning bilish faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. o'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchi (talaba)ning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash asosida jamiyat tomonidan maktab (kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurtlari) oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador kontseptsiyadir. "o'qitish metodi dastlab pedagog ongida

faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi umumiy holda o'qitish metodi o'zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi" (14, 35).

Pedagogik nashrlarda o'qitish metodlarini faol va sust guruhlariga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchi (talaba)lar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan bu faslda hali pedagogik amaliyot uchun notanish bo'lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi.

Amerikaning "Street law" (ko'cha qonuni) dasturi bugungi kunda yer yuzining ko'plab davlatlari tomonidan "asr"ga olingan va ta'lim makoniga o'rnashib qolayapti. Bunga sabab dasturdan o'rin olgan yuzlab o'qitish metodlarining faolliigi, jozibaligi va ta'sirchanligidir. Ular yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, jamoada ishlash, o'z mavqeini mustahkamlash, fikrlarini himoya qilish, haq-xuquqlarini anglab yetish kabi imkoniyatlarga tezda ega bo'ladilar. o'qituvchi esa didaktik jarayonni qurishda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i, ularni mavzu bo'yicha o'quv elementlarining murakkabligi va vaqt tig'izligiga qarab chalg'ishtirmog'i lozim. quyida "Street law" dasturidagi ba'zi metodlar bilan tanishasiz, ularning siru-sinoati va sehdidan voqif bo'lasiz. "Aqliy hujum" - "Aqliy hujum" metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. "Aqliy hujum"ni uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechimini topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo yechimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalariga hujum" qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. Demak, "aqliy hujum" yo'li bilan qisqa minutlarda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslini olganda g'oyalar sonini qo'lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo'ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta'sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo'lishi kerak. Bildirilgan g'oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo yechimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, "aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- "hujum"ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

Munozara – Bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz "shturm" qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganadilar

Munozarani o'tkazish metodikasi.

1. Munozara olib boruvchi - boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.
2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- “hujum”dan maqsad - muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko’proq taklif etish;
 - o’z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g’oyalar umumiy fikrga zid bo’lsada, hech biri rad etilmaydi;
 - boshqa ishtirokchilar g’oyalarini ham rivojlantiring;
 - taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug’ullanasiz.
3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha g’oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so’zga chiquvchilar tartibi o’rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o’z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar berildi. Agar biror bir kishi tomonidan “aqliy hujum”ni o’tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g’oyalar paydo bo’lguncha davom etaveradi.
4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri “charxlanishi” uchun qisqacha tanaffus e’lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. “Aqliy hujum” ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g’oyalarini mustahkamlaydilar. g’oyalar guruh bo’yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishdilar va natijada o’rtaga qo’yilgan muammoning yechimiga tegishli bo’lgan fikrlargina ajratib olinadi.
- Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

“O’z o’rningni top”

Agar sinfda u yoki bu mavzu bo’yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan ko’pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o’tilayotgan mavzuni o’rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o’quvchilarga o’z fikrini bayon qilishga, muloqot ko’nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo’ladi. Uchinchidan, dars so’ngida o’qituvchi tomonidan mavzuni o’zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1. Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osildi. Ularning biriga “roziman”, boshqasiga “rozi emasman” degan so’zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba’zi bir mavzuga oid savollar bo’yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: “anjir gullaydi va meva tugadi”, yoki “anjir gullamasdan meva tugadi”.

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. qaralayotgan muammo yuzasidan o’z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o’quvchilarga taklif etildi.

4. Bo’lingan o’quvchilardan o’z qarshilarini asoslash so’raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o’tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinf o’quvchilarining hammasi jalb etildi.

5. Muammo bo’yicha fikrlar bildirilgach, o’quvchilar ichida munozara davomida o’z nuqtai nazarini o’zgartirganlar va boshqa guruhga o’tuvchilar bo’lishi mumkin. Bunday hollarda ular o’z o’rnini o’zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo’ladi.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o’quvchilarni aniqlash so’raladi. “Kichik guruhlarda ishlash” - Kichik guruhlarda ishlash o’quvchilarning darsda faolligini ta’minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o’rganishga imkoni tug’ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o’rgatadi.

“Menyu” - Yakka tartidda yoki kichik guruxlar bilan ish olib borishni hohlagan ijodkor o’qituvchiga “Menyu” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (o’quvchi) ga aniq topshiriq beriladi. Misol, “o’zbekiston fuqarolarining huquqlari” tasnifi xilma-xil. o’qituvchi har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi. I. Konstitutsiyaviy huquqlar

I. Ma’muriy huquq asoslari

II. Fuqarolik huquqlari asoslari

IV. Mehnat huquqlari asoslari

V. Ekologik huquqlari asoslari

har bir guruh topshiriq oladi va 3 minut davomida muhokama qilishadi, so’ngra har guruhlardan bittadan vakil o’qituvchi stoliga kelishadi va tayyor “Menyu”ni olib qaytishadi. Bu uzun qirg’ilgan qog’ozlar - “Tillar” bo’lib, ularda xilma-xil huquq normalari bayon qilingan bo’ladi.

Guruh vakili tillardan tanlab oladi va o'z guruhiga olib keladi, keyin boshqa o'quvchi shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig'ilguncha bu holat davom etadi. 10 minut davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu jadval qo'lda tayyorlanishi ham mumkin yoki javoblar og'zaki og'zaki ham bo'lishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o'qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab beradi.

“Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash”- Kichik guruhlarda ishlashning yana bir samarali metodi - bu nashr qilingan materiallar bilan ishlash hisoblanadi. o'quvchilarning zaruriy axborotlarni izlab topishlari uchun, nazariy bilimlarni mustahkamlash yoki tasniflashlari uchun, nazariy materiallarni chuqur anglab olishlari uchun bu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinf 4-5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi. Guruh bir xil yoki turlicha mazmundagi topshiriqlar, gazetalar, jurnallar, fotoalbomlar, byulletenlar olishadi.

Zaruriy materiallar: A - I Formatli oq qog'oz, qaychi, yelim.

Topshiriqlar:

A) Gazetalardan inson huquqlari to'g'risidagi axborotlarni toping va quyidagi tartibda ularni joylashtiring.

- 1) Fuqarolik huquqlari
- 2) Siyosiy huquqlar
- 3) Iqtisodiy huquqlar
- 4) Ijtimoiy huquqlar
- 5) Madaniy huquqlar

B) Inson huquqlarini joriy etish shakllarini namoyish eting. Joriy etishning 4 guruhi mavjud:

- rioya qilish;
- bajarish;
- foydalanish;
- qo'llash.

har bir guruh (ular 4 ta) topshiriq oladi, gazetadan kerakli materiallarni topadi, maqolalarni, suratlarni qirqib oladi va plakatga yelimlaydi, zaruriy matnni sharhlaydi. har bir guruh o'z sardorini aniqlaydi va ular ish yakuni to'g'risida hisobot beradilar. Boshqa guruh o'quvchilari savollar berishadi va ishni baholashadi.

Bu metodni qo'llash davomida o'quvchilardan barcha materiallar yig'ib olinadi, aksincha o'quvchilar gazetalardagi boshqa qiziqarli maqolalarni o'qishga kirishib ketadilar va sardorlar fikrlariga quloq solmaydilar. o'quvchilardan ehtiyot bo'lib ishlash talab etiladi, ortiqcha qog'oz qirqish, yelimlash, sinfni ifloslantirishga yo'l qo'yilmaydi.

“ Debatlar ” Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad muammoning yechimini topishda o'quvchi o'zgalarni o'z yondashuvining to'g'riligiga ishonitirishdir. O'z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko'nikmalarini shakllantirishda debatlar o'tkazish samarali metod hisoblanadi.

Ular o'quvchilarda ijtimoiy fikrni o'zgartirishga ta'sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg'ularini rivojlantiradi.

Metodik tavsiyalar: Debatlar mavzusini anglab yetishlari uchun o'quvchilarga sharoit tug'diriladi. Buning uchun esa mavzuni rezolyutsiya shaklida ifodalash kerak bo'ladi. Ma'lumki, rezolyutsiya har doim mavjud holatni o'zgartirishni talab etadi. Misol uchun, “qabul qilingan: AQSh Oliy sudi oliy jazoning nokonstitutsiyaviyliligini tan oldi”.

Mashg'ulotga mahalliy mutaxassislardan (olim, vrach, muhandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi.

Debatda qatnashish uchun iqtidorli o'quvchilar tanlanadi va ular ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydigan va ularga qarshi chiquvchi ishtirokchilar debatlarini o'tkazish qoidasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Guruh sardori reglamentga rioya qilishni kuzatuvchi - yordamchini tayinlaydi.

“Konstruktiv argumentlar” (3-5ta holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va daliliy materiallar bilan mustahkamlangan argumentlar tayyorlash uchun o'quvchilarga yetarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning ko'lamini anglash va bahsda o'z fikrini saqlab qolishlari uchun aniq,

mantiqiy argumentlar tayyorlashda o'qituvchi yordam berishi kerak. Shu bilan birgalikda o'quvchilar qarshi tomon bildirgan fikrlarni qanday bo'lishi mumkinligini taxmin qilishlari va oldindan bu fikrlarni inkor etishga ham tayyorgarlik ko'rishlari lozim.

Bahslashuv natijasida o'quvchilar nimalarni qo'lga kiritish mumkinligini tushunib yetsagina dars samarasi to'g'risida gapirish mumkin.

O'quvchilarni shunday dalil-isbot topish ko'nikmalarini egallashga o'rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o'rin qolmasin. Shundagina o'quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshining fikri oldida o'z ekanligini tan olishga o'rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko'nikmalari shakllana boradi.

Debatlarni o'tkazish tartibi:

1. O'qituvchi va debat ishtirokchilari sinfdan joy olishadi. qulay bo'lishi uchun rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlaydiganlar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashishgani ma'qul.

2. O'qituvchi qisqacha muhokama mavzusini va ikkala rezolyutsiya variantlarini bayon qiladi, so'zga chiquvchilar uchun vaqtni belgilaydi.

3. O'qituvchi dastlab rezolyutsiyani qo'llaydiganlarning birinchisiga so'z beradi va undan konstruktiv argumentlarni bayon qilish so'raladi. Iloji bo'lsa so'zga chiquvchilar tartibini har bir guruh a'zolari uchun oldindan belgilash kerak. O'qituvchining yordamchisi gapiruvchi uchun ajratilgan vaqtning tugaganligini eslatib turadi.

4. O'qituvchi rezolyutsiyani qo'llaydigan guruh o'quvchilarini birinchisiga so'z beradi va u o'z fikrini yetarlicha argumentlar yordamida asoslab beradi.

5. O'qituvchi birinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga so'z beradi, so'ngra ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisi o'z fikrlarini rezolyutsiya bo'yicha bayon qiladi. Shu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma-navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.

6. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchiga qarshi tomonning dalillarini inkor etib tashlashga va ular tanqidiga javob berishga imkoniyat tug'diriladi.

Masala talashish davomida yangi argumentlarni keltirish mumkin emas. Bahsni har doim rezolyutsiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.

O'quvchilar bu bosqichda rezolyutsiyaga nisbatan u yoki bu mavqeni egallash sabablarini bayon qilishadi. o'qituvchi bu sabablarni sinf doskasiga yozib borishi ham mumkin. o'quvchilar bu sabablarga tegishli savollarga javob berishlari ham mumkin, biroq o'z mavqeining to'g'riligini oqlashga kirishib ketmasliklari kerak.

Ishtirokchilar shunday argumentlarni ko'rsatish kerakki, birinchidan ularning qarashlari muammo yechimiga zid ham bo'lishi mumkin, ikkinchidan, barchani o'ylashga majbur etsin, uchinchidan, hayratda qolarli darajada ifodalanishi lozim.

Debat dars so'ngida o'quvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyutsiyaning joriy etilishi oqibatlarini baholashishi kerak. Shuningdek, har ikki tomondan o'rta tashlangan qarashlarni hayotga tatbiq etish jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligi ham muhokama qilinishi mumkin.

“Tanqidiy fikrlash” - VAZIFASI. Demokratik jamiyatda har bir fuqaro o'z oldida turgan muammolarni oqilona yechish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shu boisdan o'quvchilarni darslarda ko'proq bahsli tortishuvlarga sabab bo'ladigan muammolar yechimini topishga jalb etish lozim.

Bahsli savollarni yechish jarayonida o'quvchilarda tinglash, muloqat olib borish, turlicha fikrlarni taqqoslash, boshqa kishi taqdiriga befarq qaramaslik kabi xislatlar shakllana boradi, masalalarni yechish va tegishli hukm chiqarish, analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, ma'lum ketma-ketlikda tafakkur yurgizish, to'g'ri yechimlarni topish malakalari o'zlashtiriladi.

O'tkazish usuli. Munozarali savollarni analitik-sintetik tahlil qilish va ob'ektiv fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun talaygina metodika mavjud. Ro'y berayotgan voqelikni tanqidiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. o'quvchining o'z fikrini erkin ifodalashi.

o'quvchiga yechimini topish uchun taklif etilgan muammo bo'yicha o'z o'rnini aniqlab olishi uchun imkon beriladi. Misol uchun, Toshkentda 16 fevral voqealari nima uchun sodir bo'lganligi to'g'risida. Muammoga o'quvchidan javob olish uchun qator savollar bilan murojaat qilish mumkin: Sening fikring qanday? Bu haqda sen nimalarni o'ylaysan? va boshqa.

2.O'z fikrini oydinlashtirish.

o'quvchilarning bildirgan fikrlarini yanada aniqlashtirish maqsadida ularga qo'shimcha tarzda quyidagi savollar beriladi: Bu bilan nima demoqchisan? O'z fikringni tushuntira olasanmi? Bu nima degani?

3.o'quvchilarning fikrlarini asoslanganligini tekshirish.

Bu yerda quyidagicha savollarning berilishi o'rinlidir: Nima uchun sen aynan shunday deb o'ylaysan? Sening mavqeingni tasdiqlovchi qanday asoslar bor? Nima uchun senda shunday taassurot tug'ildi? qanday argumentlarni bildirgan fikring foydasiga keltirasan? Sening fikringni nima isbotlaydi? va hokazo.

4.Boshqalar fikrini o'rganish.

Inson o'z fikrining o'zligini har doim ham tan olavermaydi va suhbatdoshining fikriga hurmat va ehtirom bilan qaravermaydi. Ayniqsa bu holatni ko'proq o'smirlarda kuzatish mumkin. Shubhasiz, ko'p hollarda buning aksini ham ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda qator murakkab muammolarning yechimini topishda o'zgalar fikrini eshitish va tinglash ko'nikmasi juda asqotadi. Bu ko'nikmani o'quvchilarda shakllantirishni xohlasangiz, marhamat, quyidagi savollar bilan murojaat qiling: o'z fikringizga muqobil bo'lgan holatni bayon qila olasizmi? Bu haqda boshqalar nima deyini mumkin? Tanqidga uchrashingiz mumkinmi?

5.o'z holatini va o'zgalar fikrini tahlil etish.

Bu haqda nafaqat o'smirlar, balki kattalar ham ko'pincha o'ylashmaydilar. o'quvchi xususiy fikri bilan to'g'ri kelmaydigan fikrlarni ham o'zaro taqqoslash, ilmiy asoslangan holatni aniqlash uchun fikrlar qarama-qarshiligini tahlil etishi kerak. Shu maqsad uchun quyidagi savollar asqotishi mumkin: o'z fikring o'zligi nimada? qarshi tomonning dalil-isboti nima uchun kuchli yoki nima uchun kuchsiz? qanday fikrlar sizning mavqeingizni mustahkamlaydi yoki uni kuchsizlantiradi?

o'rganilayotgan muammo bo'yicha har ikkala fikrlarning mantiqiy oqibatlarini o'rganish uchun savollar: agar sizning g'oyangiz qabul qilinsa, nimalar ro'y berishi mumkin? Bu jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi? Uning natijasi kelajakka foyda beradimi?

6. Muammo bo'yicha yechim qabul qilish.

Bu "tanqidiy fikrlash" metodining so'ngi bosqichi hisoblanib, o'quvchilar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi. Buning uchun: qaysi natija eng qulay va ishonchli? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq bo'ldi? Siz bahsga qanday nuqta qo'ygan bo'ladingiz? va hokazo.

Bu metodlardan didaktik jarayonning qaysi bosqichida foydalanish kerak? Shubhasiz, mavjudlik algoritmidagi (MA) - o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda - mustaqil o'z-o'zini (sinfdoshin) o'qitishda, yakka tartibda, kichik

Asosiy tushunchalar

Pedagogikaning nazariy vazifasi - ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi — diagnostik sath - pedagogik hodisalar holatini aniqlash; bashorat qilish sathi - pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyiha sathi - pedagogik faoliyatning nazariy kontsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanmasi, pedagogik tavsifnomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik sathi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflektik va tuzatma (korrektirovka) sathi — ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baholash.

Muammoli o'qitish -o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat - o'quv vaziyati bo'lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muloqotning yetakchi turi - rivojlanishning ma'lum bir davrida atrofidagi kishilar bilan muomalada yetakchilik qiladigan muloqot turi bo'lib, uning natijasida shaxsning asosiy sifatlari shakllanadi.

Munozara — 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs; 2) muayyan muammo bo'yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim metodi.

Pedagogik texnologiya - 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan va texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir.

Takrorlash uchun savollar

1. “Texnologiya“ tushunchasining lug'aviy ma'nosini ayting
2. Texnologik jarayonga ta'rif bering
3. Pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatini tushuntiring
4. Pedagogikaning texnologik vazifasini aniqlang.
5. Pedagogik texnologiyaning tarix o'qitish metodikasidagi o'rnini aniqlang.
6. Pedagogik texnologiyaning turlari
7. Pedagogik texnologiya jarayonini tashkil etish mezonlari

Mavzu: Tarix darslarida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini hosil qilish hamda baholash

Reja:

1. **Ko'nikma va malakalarni hosil qilish usullari.**
2. **Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi darslarida ko'nikma va malakalarni hosil qilish.**
3. **Ko'nikma va malakalarni hosil qilishning ahamiyati.**

O'quvchilarning tafakkurini tizimli suratda o'stira borish, ularning malakalari va ko'nikmalarini shakllantira borish tarix o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri hamda tarixiy bilimlarni o'zlashtirib olishning zarur shart-sharoiti hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni egallay borish jarayonida o'quvchilarning tafakkuri, malaka va ko'nikmalarini o'stira borish masalalari ko'pgina psixologlar, metodistlar hamda amaliyotchi o'qituvchilar e'tiborini o'ziga tortib keladi.

Metodistlarning qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixiga doir umumlashtiruvchi muammoli – mavzuli qo'llanmalarida, shuningdek, har qaysi darsni qanday o'tish to'g'risidagi qo'llanmalarida, ilmiy – metodik tadqiqotlarda va boshqa mualliflarning asarlarida VI – VII sinflarda tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tafakkuri, nutqi, ijodiy qobiliyatlari, malakalari hamda ko'nikmalarini ma'lum bir maqsadga qaratgan holda, tizimli suratda o'stira borish masalalari ko'rib chiqilib, amaliy jihatdan hal etilganidir.

Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi darsliklarida o'quvchilarning tafakkuri, nutqi hamda malakalarini o'stira borish vazifalari hisobga olingan. Ulardagi materialning bayon qilinish va umumlashtirilish xususiyati, tanlangan rasmlar va hujjatlarning matnlari, savol va toshpirlar tizimi o'quvchilarning zihnini o'stira borish uchun yordam berishga xizmat qiladi.

Tarix o'qituvchilari o'z tajribalari, kuzatishlari asosida o'quvchilar uchun mo'ljallangan, ularda tarixiy bilimlar beruvchi turli manbalar bilan ishlash malakalarini hosil qila borishga va umuman o'quvchilar saviyasini o'stirishga qaratilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqdilar.

Sovet psixologiyasi – pedagogikasi adabiyotida o'qitish jarayonida malaka va ko'nikmalar deganda nimani tushunish kerakligi hamda ular o'rtasidagi nisbat nimadan iboratligi to'g'risida ikki xil asosiy nuqtai nazar borligi ma'lum bo'ldi.

Bir xil nuqtai nazar namoyandalari ko'nikmalarni mashq qilish usulini avtomatlashtirilgan darajada egallab olish deb, biror ishni bajara olish uchun mashq natijasida puxta bilib olingan malaka deb va ayni bir vaqtda o'quvchilarda bilganlarini tatbiq eta bilish malakalarining o'sa borishidagi eng yuqori bosqich deb hisoblaydilar. Malaka, o'z navbatida, to'liq nihoyasiga yetmagan ko'nikma, hosil qilishdagi muhim bir bosqich deb ta'riflanadi.

Ikkinchi xil nuqtai nazar namoyandalari malakani o'z bilganlarini tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni hal etish usullarini o'rganib olishdagi eng yuqori bosqich deb tushunadilar. Shu nuqtai nazarga ko'ra, malaka turli sharoitlarda tushunibanglab va aniq bajariladigan harakatlarga tayyorlik deb ta'riflanadi; malaka bilim asosida va mashq qilish natijasida hosil qilinadi. Masalan, o'quvchilarning taqqoslash malakasi, taqqoslash paytida solishtirib ko'riladigan muhim tomonlarni ular mustaqil suratda belgilay oladilar va bu ishni o'zlari o'rganayotgan tarixiy hodisalar hamda tarixiy jarayonlarga nisbatan tatbiq etgan holda bajara oladilar, degan ma'noni bildiradi. Bu nuqtai nazar namoyanda-lari ko'nikmani nihoyat darajada avtomatlashib ketgan eng oddiy malaka (masalan, sanalarni yozib borish ko'nikmasi, xaritadan tarixiy – geografik ob'ektlarni to'g'ri ko'rsatish ko'nikmasi) deb qaraydilar. Malakalar ko'nikmalarga qaraganda ko'proq onglik darajasi bilan farq qiladi. **«Faoliyat maqsadi bilan shu maqsadni bajarish sharoitlari hamda usullari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushunish — ularning (ya'ni malakalarning) psixologik asosidir»¹¹**. Psixologiya va pedagogika fanlarida tobora mustahkam qaror topayotgan ana shu nuqtai nazar tarix o'qitish davomida o'quvchilarda hosil qilina-digan malaka va ko'nikmalarga nisbatan bizning nazarimizda to'g'ri ko'rinadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda ham «malaka» va «ko'nikma» tushunchalarini shunday ma'noda qo'llashga harakat qildik.

Ko'pgina psixologlar hamda pedagoglarning fikriga ko'ra, biz ham shu fikrga qo'shilamiz, fikrlash faoliyatining usullarini o'rganib olish — ana shu usullarni o'quvchilarning intellektual fikrlashga asoslangan malakalariga aylantirish jarayonidan iboratdir.

Tarix o'qituvchisi o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi nuqtai nazardan har bir ijtimoiy hodisani uning vujudga kelishi va rivojlana borishida, boshqa hodisalar bilan bog'lanishi hamda munosabatlarida olib qarashga, hodisalarning sinfiy mohiyatiga kira bilishga, tarixiy jarayonning umumiy ob'ektiv qonuniyatlarini tushunishga o'rgatadi. Mustaqil O'zbekistonimiz umumiy o'rta maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni o'stirish ularni ilmiy asosda tarixni tushunishga o'rgatish bilan bog'langandir. Bu vazifalar VI – VII sinflarda “Jahon tarixi” kursini o'qitishda ham o'quvchilar uchun og'irlik qilmaydigan darajada qo'yiladi. O'quvchilarning bilimlari tobora chuqurlasha borishi va ko'paya borishi bilan, ularning tafakkurini o'stira borishga qaratilgan vazifalar ham murakkablasha boradi.

Tarix kursini o'qitishda o'quvchilarning fikrlashga asoslangan malaka va ko'nikmalarini hosil qila borish vazifalari — bu, tarixiy bilimlarni mustaqil suratda topib, tizimga solib, ularni amalda tatbiq eta bilishga o'rgatish, pirovardida esa, o'quvchilarni o'tmishdagi hamda hozirgi zamondagi ijtimoiy hodisalarga nisbatan ilmiy nuqtai nazardai yondoshishga o'rgatish demakdir.

Nutqni o'stira borish ham o'quvchilarning tafakkurini o'stira borish va ularda aqliy mehnat malakalari hamda ko'nikmalarini hosil qila borish bilan bog'langandir. Nutq — odamlarning bir – birlarini tushunish vositasigina bo'lib qolmay, balki fikrni yuzaga chiqarish va o'stirish vositasi hamdir. Tarix kursini o'qitishda nutq bilimlar orttirishning eng asosiy vositalaridan biri sifatida

maydonga chiqadi. O'quvchilar tarixiy dalillarni, ular o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni, ularning umumiy va bir – biridan farq qiluvchi xususiyatlarini, tarixiy hodisalar va tarixiy shaxslarning xususiyatlarini ko'rsatmali o'quv qurollari bilan birgalikda so'z orqali bilib oladilar. O'qituvchining nutqi, darslik matni, tarixiy hujjatlar, ilmiy – ommabop va badiiy – tarixiy adabiyot asarlari o'quvchilarga bilim beradigan, so'z bilan ifodalangan eng muhim manbalar bo'lish bilan birga, ularning nutqini o'stirish vositalari ham hisoblanadi.

Biz maktabda o'qitiladigan tarix fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarix kursini o'qitish davomida hosil qilina boradigan malakalar guruhlarini shartli ravishda ajratib ko'rsatamiz:

1. Tarixiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqealar hamda hodisalardagi eng asosiy va muhim narsani, ularning muhim belgilari va bog'lanishlarini ajratib chiqish, tarixiy tushunchalarga ta'riflar berish malakalari;
2. Tarixiy bilim beruvchi manba mazmunini mantiqiy jihatdan bir necha qismga ajratish; umumiy mantiqiy jadvalni bir turdagi tarixiy hodisalar hamda voqealarni tahlil qilishga. deduktiv suratda tatbiq etish (masalan, qo'zg'olonlar haqidagi materialni o'rganishga doir umumiy reja — mantiqiy jadvalni aniq dehqon qo'zg'olonlarini tahlil qilishga tatbiq etish) malakalari;
3. Tarixiy dalillar va jarayonlarni o'z doirasida qarab chiqish hamda vaqt jihatidan ular o'rtasidagi nisbatni aniqlash, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzish malakalari;
4. Tarixiy hodisalarning joyini aniqlash, tarixiy xaritani «tilga kirgizish», undagi izohlar va shartli belinlardan xatosiz foydalanish, kontur xaritani tarixiy mazmunda to'ldirish va shu kabi malakalar;
5. Tarixiy voqealar, hodisalarni taqqoslash, ularning umumiy va alohida xususiyatlarini topish malakalari;
6. Tarixiy dalillarni tahlil qilish va taqqoslash asosida, induktiv hamda deduktiv xulosalar chiqarish usulidan foydalangan holda yakunlar (shu jumladan, baho berishga doir yakunlar ham) yasash; yakunlarni, berilgan baholarni asoslab berish, tarixiy dalillar va umumiy xulosalarga tayangan holda to'g'ri isbotlay olish malakalari;
7. Tarixiy materialni og'zaki yoki yozma tarzda bayon eta bilish (izchil tartibda, obrazli qilib, eng asosiy va muhim narsani ajratib ko'rsatgan holda va hokazo). Bayon etishning hamma turlaridan (tasvirlash, hikoya qilish, tavsif berish, sharhlash va boshqa usullardan) foydalana olish, savollarga qisqa va atroflicha javob berish hamda o'z o'rtoqlariga savollar berish, ularning javoblariga tanqidiy nuqtai nazardan baho berish (og'zaki, yozma holda) malakalari;
8. Axborotlar, dokladlar, referatlar, siyosiy yangiliklar tayyorlash hamda ularni o'tkazish; kichikroq hajmdagi ilmiy – ommabop va badiiy – tarixiy adabiyot asarlarni retsenziya qilish malakalari;
9. Tarixiy matn mazmunining yoki o'qituvchi hikoyasining rejalarini, tarixiy voqea yoki hodisani tahlil qilish rejasini, taqqoslash rejasini, xulosalar chiqarish rejasini, o'z javobining, qiladigan dokladining va shu kabilarning rejasini tuzish; reja – ishlanma, dars ishlanmasi, tezislar tuzish, o'qituvch tushuntirib bergan asosiy qoidalarni qisqacha yozib borish, kitoblardan ayrim joylarni yozib olish, ma'lumot beruvchi tarixiy adabiyotdan foydalana bilish malakalari.

«Dunyoqarashning vujudga kela borishi bilan chambarchas bog'langan ana shu malakalarni takomillashtira borishning eng muhim natijalari o'laroq, o'tmish va hozirgi zamonning ijtimoiy hayotini muhokama qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondoshish asoslari, jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushunish, bilimlarni mustaqil O'zbekistonning rivoji tajribasida tatbiq eta bilish qobiliyati shakllana boradi».¹²

Maktabning VI – VII sinflarida shu ko'rsatib o'tilgan ko'pchilik malakalarning faqat dastlabki negizinigina hosil qila olish mumkin, bu malakalar tarixni bundan keyingi o'qitish jarayonida hamda amaliy faoliyat davomida takomillashib boraveradi. Ba'zi bir metodistlar tarix kursini o'qitish davomida amaliy malakalar deb atalgan malakalarni (masalan, oddiy reja tuzish,

materialni xatosiz bayon qilish, darslikning ma'lumot beruvchi qismidan foydalana bilish va boshqalarni) maxsus ajratib ko'rsatadilar.

Bizning nuktai nazarimizga ko'ra, bunday amaliy malakalar intellektual malakalarning ayrim bir ko'rinishidir. Masalan, tarixiy voqealarni xronologik tartibda yoki sinxronik tarzda jadval shaklida joylashtirishdan iborat amaliy malaka tarixiy voqealarning bir – biri bilan izchil suratda bog'lanishini va vaqt jihatidan ular o'rtasidagi nisbatni aniqlashdan iborat ancha umumiyroq malakaning ifodasi hisoblanadi. Shu sababdan biz amaliy malakalarni mustaqil guruh qilib ajratib ko'rsatmaymiz.

O'quvchilar tafakkuri va nutqining o'sa brishi, malaka va ko'nikmalarining hosil bo'la borshii bilimlarni egallash va ularni tatbiq etish, ular bilan ish olib borish jarayonida yuz beradi. Bu — bitta o'qitish jarayonining ikki tomonidir.

Bilimlar bilan malakalar o'rtasida o'zaro bog'lanish va bir – biriga bog'liqlik bor. Kishi aqliy faoliyatining ongliklik xususiyati unda hosil bo'lgan bilimlar tizimi bilan belgilanadi. Bilim hamma vaqt tegishli malaka va ko'nikmalar tizimiga tayanadi va o'z navbatida, yangi malaka hamda ko'nikmalar vujudga kelishi uchun zamin hisoblanadi. O'qitish jarayonining har qaysi bosqichidagi bilimlar, malaka va ko'nikmalar o'rtasidagi o'zaro nisbat o'quvchining aqliy jihatdan yetuklik darajasini ham belgilaydi. Vazifaning o'zini ham, shuningdek, o'rganilayotgan materialning mazmunini ham tushunmay turib, bilib olish vazifasini hal qilmoq uchun malakalardan foydalanish mumkin emas. Malakalarni tatbiq etish, ma'lum darajada, tarix va boshqa o'quv fanlarini o'qitish jarayonida avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan ish olib borishdan iboratdir. Malakalar, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil ravishda, avvalgi bilimlariga tayangan holda, turli manbalardan o'zlari uchun yangi bilimlarni topib olishlariga yordam beradi. O'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini hosil qila borishga qaratilgan ishning muvaffaqiyatli chiqishi ko'pgina shart – sharoitlarga bog'liq. Tarix o'qituvchisi, birinchi navbatda, u yoki bu sinfda bundan ilgari hosil qilingan bilim va malakalarning qanday doirasiga tayana olishi mumkinligini, ayrim o'quvchilarda qanday malakalar yaxshi hosil bo'lmaganligi yoki yo'qligini aniqlab olishi. lozim. Ana shu asosda o'quvchilarning turli guruhlariga hamda ayrim o'quvchilarga nisbatan bundan keyin differensial yo'sinda yondoshishga o'tiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning tafakkurini o'stiradigan mashqlarni rejalashtirar ekan, o'rganiladigan tarixiy materialning mazmuniga hamda uning eng yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradigan mantiqiy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga asoslanadi. Chunonchi, hodisalarning shu turdagi boshqa hodisalar bilan o'xshash va farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlash jarayonida o'quvchilar bu hodisalarni (masalan, turli mamlakatlarning tabiiy sharoitlari, jamiyatdagi turli guruhlarining ahvoli va boshqalarni) yaxshiroq tushunib oladilar.

O'qituvchi ish jarayonida o'quvchilarning bilim va malakalar hosil qilishda qanday darajaga erishganliklarini doim tekshirib va hisobga olib boradi. U bolalarga bu yo'lda nimalarga erishganliklarini va bundan keyin ular nimalar ustida ishlashlari kerakligini bildirib boradi, ish jarayonining har qaysi bosqichida ular oldiga aniq vazifalar qo'yib boradi.

Shuni esda tutish zarurki, bir xil yoshdagi va bir xil sinfdagi o'quvchilarda malakalarning o'sa borish darajasi turlicha bo'ladi. Bu narsa o'quvchilarning aqliy jihatdan umuman qanchalik o'sganligiga, shuningdek, ularning muayyan yo'nalishda oldindan qanday tayyorgarlik ko'rganligi va uni mashq qilib olganligiga bog'liq. Sakkiz yillik maktabda boshqa o'quv fanlarining o'qituvchilari tomonidan ayni bir vaqtda olib boriladigan ishni ham hisobga olnsh lozim.

Hosil qilingan malaka — o'quvchilarning o'zlariga tanish turdagi vazifani yangi sharoitlarda, yangi o'quv materialini asosida mustaqil suratda bajara olish, ya'ni o'quv vazifasini bajarishda tashabbus ko'rsatib, yangi sharoitlarda malakani tatbiq eta olish, vazifalarni hal etishning yangi usullarini topa bilish qobiliyati demakdir.

Aqliy faoliyatning muayyan usullarini egallab olish malakalar hosil qilishning asosini tashkil etadi.

O'quvchilarda birorta malakani, masalan, tarixiy hodisalarni taqqoslash, isbotlab berish malakasini hosil qilmoq uchun, o'qituvchi o'sha mantiqiy operatsiyaning maqsadi va mohiyatini

hamda uni bajarish usullarini tushuntirib, ularni aniq tarixiy materialga tatbiq etgan holda ko'rsatib beradi. Ko'rsatib berish paytida, mazmuni uncha murakkab bo'lmagan material: taqqoslash uchun — moddiy madaniyatga doir ikki narsa, xulosa chiqarish uchun — darslikning bir necha abzatsidan iborat matn va shu singarilar tanlangani ma'qul.

Shundan keyin o'quvchilar qanday ishlash usullari ko'rsatib berilgan materialga o'xshash tarixiy material bilan mantiqiy operatsiya olib borishni o'qituvchi rahbarligida endi o'zlari bajaradilar. O'quvchilar bu usullarni qadam-baqadam o'zlari bajaradigan bo'ladilar. Dastlab bu ishni yaxshi o'quvchiga topshirish yoki ana shu operatsiyani izchil suratda, pog'onama – pog'ona bajarishga butun sinfni jalb etib, uni evristik usulda o'tkazish mumkin.

Keyinchalik o'qituvchi o'quvchilarni bunday usullarni shunga o'xshash materialga tatbiq etgan holda, ularni mustaqil suratda bajaradigan bo'libgina qolmay, balki turli xildagi tarixiy mazmunga tatbiq etgan holda, ularni yangi sharoitlarda qo'llay olishga ham o'rgatadi.

Usullarni yangi sharoitlarda qo'llash o'quvchilar tomonidan avvaliga o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib ishlash jarayonida, masalan, evristik usuldagi suhbat davomida amalga oshiriladi. O'quvchilar usullarni egallay borgan sari, ular mantiqiy operatsiyani tobora mustaqil va aniq bajara boradilar. Ular o'qituvchining harakatlarini endi shunchaki takrorlamaydilar, balki mantiqiy operatsiyaning maqsadi va ularning oldiga qo'yilgan o'quv vazifasining shartlariga qarab, o'zlashtirilgan usullarga tayangan holda ish olib boradilar. Foydalaniladigan usullar soni asta – sekin ko'paya boradi, o'quvchilarning malakalari tatbiq etiladigan ob'ektlar murakkablasha boradi, shu bilan birga, tobora ko'proq to'planib borgan bilimlardan foydalaniladi.

Malakani egallab olish darajasi aqliy faoliyat usullarini boshqa sharoitlarga tatbiq etishda qanchalik mustaqil ish tutilishi hamda shu usullar tatbiq etiladigan hodisalar doirasining qanchalik kengligi bilan belgilanadi.

Tarix kursini o'qitish jarayonida VI – VII sinf o'quvchilari u yoki bu malakani qay darajada egallay olishi metodikada hali yetarlicha tekshirib chiqilmagan.

MAVZU: Tarix o'qitishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish.

REJA:

- 1. Tarix darslarida tarixiy o'lkashunoslikning o'rni.**
- 2. Tarix o'qitishda o'lka materiallarining tutgan o'rni va undan foydalanish metodlari.**
- 3. Tarixiy o'lkashunoslikning ahamiyati.**
- 4. O'zbekiston hududidagi tarixiy durdonalar.**

TAYANCH TUSHUNCHALAR

O'lkashunoslik turlari: ilmiy yoki davlat o'lkashunosligi, jamoat o'lkashunosligi, muzey eksponatlari, o'lkashunoslikning asosiy manbalari va metodologiyasi.

O'rta Osiyo eng qadimgi madaniyat markazlaridan hisoblanadi. O'zbeklar shu o'lkaning qadimgi xalqlaridan biri bo'li, ko'hna va boy tarixga egadir. Ularning O'rta Osiyodagina emas, balki jahondagi davlatlar ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida tutgan o'rni ham salmoqlidir. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi respublikamizning bugungi kunigina emas, balki istiqbolini ham belgilab beruvchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasining istiqbol yo'li avlod – ajdodlarimizning tarixiy an'analari va ma'naviy boyliklariga suyangan holda tanlab olindi. Zotan, mustaqillik yo'li O'zbekiston xalqlarining tarixiy an'analari va ma'naviy boyliklarini qayta tiklovchi, Yangi mazmun bilan

boyituvchi yo'ldir. Bu esa tarix o'qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning mehnatsevarlik, hamkorlik, do'stlik, insonparvarlik, ozodlik va mustaqillik, ma'rifatparvarlik kabi an'analari, imon, insof, mehr – oqibat, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, Vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi olijanob fazilatlarini chuqur o'rganishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, respublikamiz maktablarida O'zbekiston tarixining mukammal o'rganilishi va o'qitilishi o'quvchilarning mamlakatimiz xalqi tarixi rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini bilib olishlari uchun ham qulay sharoit yaratadi, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Tarix fani dasturida o'lkani o'rganish, tarixiy o'lkashunoslik ishlari natijasida to'plangan materiallardan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanishga ham o'rin berilgan. Ilg'or o'qituvchilar tajribasi va bu tajribalardan kelib chiqadigan xulosalar O'zbekiston tarixini o'rganishda o'lka tarixi va mahalliy materiallaridan foydalanish o'quvchilar bilimini kengaytirishi va chuqurlashtirishni tasdiqlaydi.

Tarix o'qitishda tarixiy o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish muhim talablardan birini, ya'ni o'qitishni xayot bilan, mustaqillikning rivojlanishi bilan bog'lab olib borish haqidagi tamoyilni anglab oshirishga yordam beradi.

O'lka materiali tarix kursidagi tarixiy dalillarni voqea va hodisalarni oydinlashtirish, ular haqida o'quvchilarda aniq tarixiy tasavvur paydo qilishga yordam beradi, o'qitishning samaradorligini oshiradi, darsda tarixiy o'tmishni «jonli tarzda idrok etish» uchun o'ziga xos psixologik holatni yuzaga keltiradi, o'quvchilar uchun yaqin, tanish va tushunarli dalillarni tahlil qilish imkonini beradi.

O'lkashunoslik to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, o'lkashunoslik 3 ga bo'linadi.

1. Ilmiy, ya'ni davlat o'lkashunosligi;
2. Jamoat o'lkashunosligi;
3. Maktab o'lkashunosligi;

Har uchala turi bir – biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir – birini to'ldiradi.

Davlat o'lkashunosligi bilan Respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarni muxofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo'mitasi, muzeylar, Respublika Fanlar Akademiyasi qoshidagi tarix, arxeologiya ilmiy – tadqiqot instituti shug'ullanadi.

Jamoat o'lkashunosligi qishloq, ovul, qo'rg'on, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarini saqlash, asrash ishlariga boshchilik qiladi. Odamlarning etnogenezi va urf – odatlarini o'rganadi.

Maktab o'lkashunosligi esa maktabda bevosita tarix o'qituvchilari rahbarligida tuziladi. Maktab o'lkashunosligi tarix fanlaridan olgan bilimlarni oydinlashtiradi, kengaytiradi hamda har xil fanlarning o'zaro aloqalarini ta'minlaydi.

Maktab o'lkashunosligi tarixiy obidalarni saqlash va himoya qilish, qadimiy manzilgohlarni topishda ham katta yordam beradi. U o'qituvchilarga sinchikovlik, tirishqoqlik, tevarak – atrofga havas bilan boqish, tadqiqotga qiziqish, Vatanni sevis va uni ardoqlash hislari shakllantirib boradi. Darhaqiqat, maktab o'lkashunosligi o'quvchilarda o'z Vataniga mehr uyg'otish bilan birga ularni estetik ruhda tarbiyalashga ham munosib hissa qo'shadi.

II. Tarix darslari va darslardan tashqari mashg'ulotlarda o'lka materialining tutgan o'rni tarix dasturi talablari bilan va mahalliy materialning mohiyatiga qarab belgilanadigan o'lka materiallari asosan 2 turga bo'linadi.

1. Tarix dasturi va darsliklarga kiritilgan, Vatan tarixini o'rganish uchun eng muhim voqealarga doir materiallar. O'lkashunoslik materialining bu turidan foydalanish o'quvchilarga umumiy tarixiy mavzularni mahalliy o'lka tarixi bilan bo'lab o'rganish imkoniyatini beradi. Masalan, 9 – sinfda «Birinchi jahon urushi» to'g'risidagi mavzuni «Jahon tarixi» fanidan o'tayotganda, o'sha davrda O'zbekistonda, xususan mahalliy o'lkada ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvol, urushga munosabat to'g'risidagi dalillarni keltirish joiz.

2. Tarix dasturi va darsliklarga kiritilmagan, ammo tarixni o'rganishda ta'lim – tarbiyaviy jihatdan juda muhim o'quvchilarni mustaqil va ijodiy ishlashga o'rganishning muhim vositasi

bo'lib xizmat qiladigan binobarin, qo'shimcha ravishda kiritilishi zarur bo'lgan o'lka materiallari. O'lka materiallarining bu turidan:

A) Vatan mikyosidagi voqealarda o'lkaning tutgan o'rnini ko'rsatish maqsadida foydalaniladi. Masalan, «Vatan urushining tugashi» mavzusini o'qituvchi o'z shahri yoki kqshlog'iga urushdagi g'alabaning kirib kelishi, uning katta ahamiyat kasb etganligi bilan yakunlaydi.

B) Mahalliy material umumiy tarixiy hodisalarni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

V) O'lka materiallari o'quvchilarga umumiy tarixiy jarayonlar va qonuniyatlarni tushuntirishda asosiy dalil bo'lib xizmat qiladi.

G) O'lka materiali tarixni zamonga bog'lab tushuntirishda mustaqillikning afzalliklarini hayotiy misollarda, ishonarli tarzda ko'rsatib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, o'qituvchi respublikamizning sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davridagi salbiy tomonlarini gapirib, o'lkamizda mustaqillikning afzalliklarini isbotlab beradi.

Tarix o'qitishda o'lka materiallaridan quyidagi usullar yordamida foydalaniladi.

1. Mahalliy o'lka materiali asosida maxsus darslar o'tkazilib, o'quvchilarning umum tarixiy mavzular bo'yicha bilimlari kengaytiriladi va to'ldiriladi.

2. O'lka materiali umumtarixiy mavzuning uzviy qismini tashkil etishi, mavzu ichidagi masalalarning birortasini yoritish uchun asos qilib olinishi mumkin.

3. O'lka materiali o'qituvchi bayonini aniqlashtirish, uning ishonchli bo'lishini ta'minlash, tasdiqlash yoki to'ldirish uchun xizmat qiladi.

4. O'lka materiali asosida dars jarayonida va darsdan tashqari mashgulotlarda, ayniqsa o'lkashunoslik to'garaklarida o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi.

Shunday qilib, tarix o'qitishda o'lka materialidan foydalanish o'quvchilarga yaqin, tanish va tushunarli bo'lgan materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish hamda ular haqidagi mavjud tasavvurlarini ishga solishga yordam beradi, ularning darsdagi bilish faoliyatini yanada faollashtiradi, o'qitishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tarix o'qitishda o'lka materiallaridan foydalanish afzalligining sabablaridan biri shuki, dars asosan ko'rsatmali metodga, o'lka muzeylari, tarixiy joylar va tarixiy yodgorliklarga asoslanadi. Shuningdek, to'la yoki qisman o'lka materiali asosan o'tkaziladigan darslarda o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida o'lkani mustaqil o'rganish asosida tayyorlagan ma'ruzalari eshitiladi. O'qituvchi bosh bo'lib o'quvchilar to'plagan va tartibga solgan o'lka materiallaridan darsda foydalanish sinfdan tashqari o'lkashunoslik ishlarini bilan darslardagi o'lkashunoslik mazmunini bog'laydi.

Takrorlash uchun savollar.

- 1. O'lkashunoslikning tarix fani uchun ahamiyati.**
- 2. O'lkashunoslik necha qismga bo'lnadi?**
- 3. Davlat o'lkashunosligi haqida izoh bering.**
- 4. Jamoat o'lkashunosligi haqida izoh bering.**
- 5. Maktab o'lkashunosligi haqida izoh bering.**

11-mavzu. Tarix bo'yicha sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar

Reja:

- 1. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarning ahamiyati**
- 2. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, forma va metodlari.**
- 3. Tarix to'garaklari, konferentsiyalar, tarixiy kechalar.**

O'lkashunoslikning asosiy manbalari va metodologiyasi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'lkashunoslik materiallarini tanlash va ulardan foydalanish metodlari.

O'quvchilar o'quv materialining asosiy mazmunini sinfdan dars davomida o'zlashtirib oladilar, albatta. Biroq, o'quvchilarning tarix dasturi yuzasidan o'rganishi zarur bo'lgan bilim va malakalarning hammasini ham sinf-dars mashg'ulotlari doirasiga sig'dirib bo'lmaydi. Buning ustiga tarixiy bilimlar, ilmiy va siyosiy informatsiyalar hajmi tez kengayib, muttasil oshib borayotgan sharoitda o'quvchilar o'z bilimlarini tinmay to'ldira borishlari uchun sinfdan tashqari ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish g'oyat zarurdir.

Tarix sevib o'qiladigan fandır. Uni o'rganish jarayonida o'quvchilarda o'tmishni puxta bilib olish tilagi orta boradi, ulardagi bu istakni sinfdan tashqari ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish yo'li bilangina bajo keltirish mumkin.

Tarix predmeti yuzasidan sinfdan tashqari ishlarning mazmunn, forma va metodlari metodik adabiyotda turlicha klassifikatsiya qilinadi. Metodist V.N. Bernadskiy sinfdan tashqari ishlar klassifikatsiyasiga bilish manbalarini asos qilib olib, ularni quyidagi turlarga bo'ladi. Ma'lumki, o'quvchilar faqat darslikni o'qish bilangina chegaralanib qolsa, ularning bilim doirasi va o'tmish haqidagi tasavvurlari tor bo'lib qoladi. Shuni e'tiborga olib V.N. Bernadskiy sinfdan tashqari ishlarning asosiy formasi sifatida qo'shimcha o'qishni tavsiya etadi.

1. Qo'shimcha kitob o'qish. U tarixdagi o'qiladigan kitoblarni uch guruhga bo'ladi:

- a) ilmiy-ommabop kitoblar,
- b) tarixiy belletristika,
- v) tarixiy davrga oid badiiy adabiyot.

2. Qo'shimcha suratlar ko'rish.

3. Jamoa bo'lib teatr va kinolarga borish hamda ularni birgalikda muhokama qilish.

4. Tarixiy kechalar uyushtirish.

5. Tarixiy instsenirovka yoki pesalar qo'yish.

6. Maktab tarixiy ko'rgazmalarini tashkil etish.

7. O'lisdagi tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish.

8. V.N. Bernadskiy fikricha, o'quvchilar sinfdan tashqari qo'shimcha kitob o'qib, filmlar ko'rib va radio, lektsiyalar eshitib, olgan bilimlari va tasavvurlari amaliy faoliyat bilan qo'shib olib borib hosil qilingan taqdirdagina ko'zlangan maqsadga erishadi, mustaqillikni, tashabbus va ijodiy ishlash qobiliyatini o'stira oladi.

Keyingi 10—15 yil ichida maktabda sinfdan tashqari ishlar ko'lami kengaydi, mazmunan boyidi, ish formalari ko'paydi. Bu ishlarning nazariy tomonlari ham ishlab chiqildi.

Sinfdan tashqari ishlar tashkiliy jihatdan ommaviy va to'garak ishlariga bo'linadi.

O'zining ilmiy tadqiqiy asarlarida sinfdan tashqari ishlarning nazariy masalalarini ishlab chiqqan, maktab tajribasiga suyanib sinfdan tashqari ishlarning asosiy boshlang'ich formasi — ommaviy ishlar ekanligini isbot qilib bergan A.F. Rodin sinfdan tashqari ishlarning ommaviy formasiga: ovoz chiqarib o'qish, hikoya qilib berish, lektsiya o'qish, tarixiy voqealarning ishtirokchilari va ilg'or kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, kinofilmlar, pesalar ko'rish, ekskursiya va poxodlar uyushtirish, o'quv konferentsiyalari, kechalar va utrenniklar, konkurslar tashkil qilish, olimpiadalarda ishtirok etish, o'lka burchagi va maktab ko'rgazmalarini tashkil etish va boshqalarni kiritadi.

A.F. Rodinning tarix ta'limida sinfdan tashqari ishlar sohasidagi tadqiqotlarining yana bir qimmatli tomoni shundaki, ularda sinfdan tashqari ishlarni o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyati bilan (mahalliy yodgorliklarni muhofaza qilish, grajdanlar urushi, Ulug' Vatan urushi va do'stlik qabristonlarning parvarishiga qarashib turish, aholi orasida turli xil temalarda lektsiya

va suhbatlar uyushtirish, gazeta, jurnallar o'qib berish va h. k. bilan) bog'lab olib borish zarurligi ta'kidlanadi.

Metodist A.A.Vagin tarix ta'limida sinfdan tashqari qilinadigan ish metodlari sohasida keyingi yillarda orttirilgan ilg'or tajribalarni umumlashtirib, ularni uch guruhga bo'ladi.

1.Og'zaki metod. Sinfdan tashqari ishlarning bu guruhiga o'qituvchining hikoya qilib berishi, ovoz chiqarib o'qishi, yuqori sinflarda esa, o'qituvchining darsdan keyin bo'ladigan lektsiyasi kiradi. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning aktivligi va mustaqilligini oshirish maqsadida o'quvchilar ham og'zaki so'zlab berish metodidan foydalanadi. Uquvchilar to'garak yig'ilishlarida, tarixiy kechalarda, lektorlar gruppasida, quyi sinf o'quvchilari va aholi orasida qisqacha axborotlar, doklad va referatlar bilan qatnashadilar, munozaralarda, nazariy konferentsiyalarda, tarixiy materiallar (kitoblar, kinofilmlar va pesalar) muhokamasida ishtirok etadilar.

Yo'zma va bosma manbalar bilan ishlash metodi.

Sinfdan tashqari ishlarning bu turiga qo'shimcha kitob o'qish, tarixiy-adabiyot — to'plamlar, xrestomatiyalar, arxivlardagi hujjatlar va boshqalarni o'rganish, vaqtli matbuotni o'rganuvchilar to'garagi, qo'lyozma va arxiv hujjatlarini o'rganuvchi «yosh arxivchilar to'garagi» barpo qilish, «Kitob va uning tarixi» degan mavzuda kecha tashkil etish, o'lkaning o'tmishi va hozirgi hayotiga doir har xil kitob va maqolalar, qo'lyozmalarni o'rganish, xalq og'zaki ijodiga doir materiallarni to'plash, tarixiy voqealarning shohidlari va ishtirokchilarining hikoyalarini yozib olish, ular bilan xat yozishib turish, tarixiy hujjatlarni o'rganish kabi ishlar kiradi.

3. Ko'rsatmali materiallar bilan ishlash metodi. Illyustratsiya va diapozitivlarni ko'rsatish, filmlarni ko'rish, ekskursiya materiallarini o'rganish kabi darsda boshlangan ishlar sinfdan tashqari davom ettiriladi. Bundan tashqari ekskursiyalar, poxod va ekspeditsiyalar davomida to'plangan materiallar nusxasini ko'paytirish, rasmga olish, shu materiallar asosida modellar yasash va namoyish qilish ham shu guruhga doir ishlar qatoriga kiradi. Bu ishlar ham sinfdagi ishlar bilan bog'liq olib boriladi. Gap shundaki, o'quvchilar dars jarayonida egallagan ko'nikma va malakalarini sinfdan tashqari ishlarda yanada rivojlantirib, takomillashtirib boradilar.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, forma va metodlari. O'quvchilarning yoshi, bilim va malakalari, ularning individual moyilligiga va qiziqishlariga qarab, tarix ta'limida sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, forma va metodlari turlicha bo'ladi. Hozir maktabda sinfdan tashqari ishlarning quyidagi asosiy, tashkiliy formalari mavjud.

1. Tarix to'garagi (yoki tarixiy-o'lkashunoslik, tarixiy-siyosiy to'garak).

2. Tarix (yoki tarixiy-o'lkashunoslik) jamiyati.

3. Sinfdan tashqari tarixiy yoki tarixiy-o'lkashunoslik ekskursiyalari, kollektiv bo'lib teatr va kinoga borish .

4. Uzoq joylarga tarixiy-o'lkashunoslik ekskursiyalari.

5. Arxeologiya ekspeditsiyasida qatnashish.

6. Tarixiy yoki o'lkashunoslik burchaklari, muzeylari.

7. Tarixiy, tarixiy-o'lkashunoslik, tematik kechalar yoki (tarix jamiyati, to'garak ishi haqida, uzoq joylarga uyushtirilgan poxodlar va arxeologik ishlar haqida) hisobot kechalari.

8. Hisobot yoki tematik ko'rgazmalar.

9. Yuqori sinf o'quvchilari uchun maktab lektoriyasi, lektorlar byurosi, propagandistlar uchun seminarlar, suhbatlar.

10. Tarixiy (tarixiy-o'lkashunoslik) konferentsiyalar, munoza-ra va muhokamalar.

11. Maktab o'quvchilarining tarixiy voqealarning qatnashuv-chilari va shohidlari, yozuvchilar va ijtimoiy arboblari bilan uchrashuvlari.

13. Tarixiy yoki tarixiy-o'lkashunoslik o'yinlari.

14. Tarixiy byulleten, devoriy gazeta va qo'lyozma jurnallar.

15. Sinfdan tashqari o'qishlar.

Ko'rinib turibdiki, sinfdan tashqari ishlarning formalari turli-tuman, mazmuni boy, hatto maktab tarix kursining tematikasidan chetga chiqishi ham mumkin. Shuni aytish kerakki, sinfdan tashqari ishlarning mazmuni qanchalik boy va turli-tuman formalarda olib borilmasin, ular bir maqsadga: ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Maktabda tashkil etiladigan tarix to'garagi (yoki tarixchilar jamiyati) sinfdan tashqari qilinadigan barcha ommaviy ishlarni uyushtirish markazi va uning eng ixcham formasidir.

Sinfdan tashqari ishlardan kuzatilgan mas'uliyatli vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi o'qituvchining o'quvchilarni shu markazga jips jamlashga va uning ishlariga to'g'ri boshchilik qila bilishiga bog'liqdir.

Qo'shimcha o'qish sinfdan tashqari ishlarning sinfdan tashqari muhim formasidir. Bu ish o'quvchilarga kitob o'qishni targ'ib qilish, uning ahamiyatini tushuntirish, kitobga qiziqtirishdan boshlanadi. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, bilimi hamda malakalari e'tiborga olinishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni, avvalo darslikda ko'rsatilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtiradi va ulardan foydalanish yo'llarini gapirib beradi, yangi chiqqan kitoblar haqida ularni xabardor qilib turadi, kitob o'qishni uyushtiradi.

Maktab tajribasida 5-6-sinf o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish maqsadida ilg'or o'qituvchilar quyidagi usuldan foydalanadilar: o'qituvchi o'quvchilarga o'qish kerak bo'lgan kitoblarni aytish bilan birga shu kitoblarni o'quvchilarga ko'rsatadi va hatto eng muhim, maroqli joylarni o'qib beradi. Biroq, o'qishni cho'zib yuborish yaramaydi, 15—20 minutdan oshirib yubormaslik kerak.

Qo'shimcha o'qishni tashkil etishda o'quvchilarni kitobga qiziqtirish bilan birga, mustaqil o'qishni tashkil qila bilish ham zarur. O'quvchilarning qo'shimcha o'qishi zarur bo'lgan kitoblar o'z vaqtida tavsiya etiladi. Ba'zi metodik asarlarda ko'rsatilganidek, hamma sinflardagi o'quvchilarning chorak ichida yoki o'quv yilining yarmida o'qishi uchun kitoblarning katta ro'yxatini birdaniga tavsiya qilish to'g'ri bo'lmaydi, tajriba ham rad qildi. Bu masalada ham har bir sinf bolalarining yoshi, bilim darajasi va malakalarini nazarga olib ish ko'rish lozim bo'ladi. Masalan, 5-6-sinflarda o'quvchilar mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan kitobga doir mavzu darsda o'rganib bo'lingandan keyin qanday kitobni o'qish kerakligi tavsiya qilinadi; 7-8-sinfda mavzuga kirish darsida, agar o'qishga tavsiya qilinadigan kitob hajmi katta bo'lsa, temani o'rganishdan 2—3 hafta oldin, 9-sinflarda esa, yil boshida, hattoki eski yilning oxiridayoq tavsiya qilish ma'qul, negaki tavsiya qilingan kitoblardan ba'zilarini o'quvchilar yozgi ta'til vaqtida ham o'qishlari mumkin.

O'quvchilarning yozuvchilar bilan uchrashuvlari ularning kitobxonlik ishtiyoqini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy mavzularga bag'ishlangan kecha va konferentsiyalarni o'tkazish, o'qilgan kitoblarni muhokama qilish kabi tadbirlar ham muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini, shu jumladan tavsiya qilingan kitoblardan qanday foydalanganliklarini o'qituvchi doim nazorat qilib turadi.

Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarda qo'shimcha adabiyot o'qishga rag'batii kuchaytiradi, kitoblarni tushunib o'qishga o'rgatadi, qo'shimcha kitoblar o'qib olgan bilimlarini darsda, tarix to'garagida va ekskursiyalarda olgan bilimlari bilan bog'lay bilishga va ulardan foydalana bilishga o'rgatadi.

5-6-sinflardayoq o'quvchilar o'qigan narsalarni tushunish, ularga baho bera bilish va ulardan xulosa chiqarish malakasini bir qadar hosil qiladi. O'quvchilarda mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan kitoblarga ongli va to'g'ri munosabatni tarbiyalash uchun ularni o'qigan kitoblarni maxsus daftarga qayd qilib va har bir kitobga o'zlarining qisqacha taqrizlarini yozib borishga o'rgatish kerak.

Tabiiy, 5-6-sinflardagi o'quvchilarning o'qigan kitoblariga bergan baholari yuzaki bo'lsa-da, keyinchalik aytaylik, 7-8-sinf o'quvchilarning bahosi mazmunan boyib boradi. 9-sinfda esa, berilgan baholar mazmuni yanada chuqurlashadi.

Tarixiy temalarda o'tkaziladigan kechalar sinfdan tashqari ishlarning muhim tashkiliy formasi bo'lib, ularning asosiy vazifasi har xil san'at vositalari (badiiy o'qish, muzika, ashula,

instsenirovkalar) yordamida o'quvchilarga tarixiy faktlar, voqealar hamda hodisalarning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini uqtirishdan iboratdir. Hozirgi vaqtda tarixiy temalardagi kecha va ertaliklar maktab tajribasida keng qo'llanilmoqda.

Tarixiy mavzulardagi kecha va ertaliklar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Maktabda o'tkaziladigan kecha yoki ertaliklar o'quvchilarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yordam berishi lozim.

O'tkaziladigan har bir kecha va ertalik o'quvchilarning om-maviy bayramiga aylansin, unda ishtirok etgan har bir o'quvchi o'zining qobiliyat va talantini namoyish qilsin.

Kechaning ko'ngilli o'tishiga erishish lozim. Uning maroqli o'tishi uchun xarakteriga qarab, turli mavzularda dokladlar ting-lash, she'rxonlik qilish, tarixiy voqealarning qatnashuvchilari bilan uchrashuvlar tashkil qilish mumkin. Har bir kecha albatta badiiy qism (ashula, muzika, instsenirovka, viktorina o'yinlar, hazil-toifadagi konkurslar va shu kabilar) bilan yakunlanadi.

Bunday kechalar o'quvchilar faolligini oshiradi, ularni tashkiliy ishlaridagi ishtiroki ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatadi, jamoa oldidagi javobgarlik hissin oshiradi.

Tarixiy kechalar tematika jihatidan o'quv dasturiining mazmuni bilan zamonamizning dolzarb masalalari va yubiley sanalari bilan bog'lab o'tkaziladi. Maktab tajribasida o'quv dasturi bilan bog'liq quyidagi mavzularda o'tkazilgan kechalar diqqatga sazovordir. 6-sinfda «Qadimgi Misr», «Qadimgi Gretsiya madaniyati», «Spartak yetakchiligidagi qullar qo'zg'oloni», «Qadimgi Rim madaniyati»; 7-sinfda «Xalq qahramoni Janna D' Ark», «Ilm-fan kurashchilari»; 8-sinfda «Aleksandr Nevskiy», «Minin va Pojarskiy»; 9- sinfda «1812 yil urushi», «Dekabristlar», «Parij Kommunasi» va boshqalar.

Tarixiy kechalar davrimizning ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir mavzularga ham bag'ishlanadi. Masalan, «Jahonga tinchlik», «Chet ellik do'stlarimiz», «Mehnat va texnika tarixidan», «Zamonamiz qahramonlari» va boshqalar.

Yubiley sanalarga bag'ishlangan kechalar o'tkazish odat tusiga kirib qoldi. (1 sentyabr, 8 Mart, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, va h. k.)

Maktab tajribasida shaharlar yubileyiga bag'ishlangan kechalarni o'tkazish ham rasm bo'lib bormoqda.

Maktab tajribasi o'lka tarixini o'rganishda tarixiy kechalarning roli borgan sari ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Maktabda o'lkani o'rganish bilan bog'liq hamma ishlarni tarixiy kecha bilan yakunlash odat tusiga kirib qoldi, o'lkani o'rganishga bag'ishlangan kechalar o'quvchilar orasidagina emas, balki o'lka aholisi orasida ham tarixga qiziqish tug'dirmoqda. Hozir tarixni chuqurroq o'rganishga intilish kuchayib borayotgan sharoitda tarixiy kecha va konferentsiyalar tashkil etishning ahamiyati yanada ortib boradi.

Maktabda o'tkaziladigan tematik kechalarning muhim turlaridan biri kitobxonlar konferentsiyasidir. Konferentsiyada o'qituvchi rahbarligida o'qilgan kitoblar muhokama qilinadi. Imkoniyat bo'lganda muhokamaga qo'yilgan kitobning muallifi ishtirok qilsa yana yaxshi bo'ladi.

Shunday qilib, tarixiy kecha va konferentsiyalar sinfdan tashqari o'quv ishlarining muhim formasi bo'lib, o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini to'ldirish, ularning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini o'stirish, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarix yoki tarixiy-o'lkashunoslik to'garagi odatda bir xil yoshdagi sinf o'quvchi-laridan tashkil topadi.

To'garak ishining mazmuni a'zolarining yoshiga, bilim saviyalari va malakalariga qarab turlicha bo'ladi. 5-6-sinf o'quvchilari uchun tashkil etilgan tarix to'garagining asosiy vazifasi o'quvchilarda tarixni o'rganishga paydo bo'la boshlagan qiziqishni rivojlantirish, ularni tarixiy materiallar ustida mustaqil va ijodiy ishlay boshlashga o'rgatishdan iboratdir.

7-8-sinflarda, ayniqsa 9-sinflarda tashkil etilgan to'garak tematikasi, uning mazmuni o'quvchilarning o'sib borayotgan talablariga to'la javob beradigan bo'lishi kerak. Maktab

tajribasida 9-sinflardagi o'quvchilar uchun tashkil etilgan to'garaklarda mamlakat iqtisodiyotiga, xalq xo'jaligining yuksalishiga doir masalalarni o'rganishga katta e'tibor berilganini ko'ramiz.

Tarix yoki tarixiy-o'lkashunoslik to'garagida o'quvchilarning qiziqishlariga qarab har xil masalalar; harbiy-tarixiy, ulug' kishilar, tarixiy arboblarning va mashhur qahramonlarning biografiyasi, madaniyat va san'at tarixi, tarixiy-o'lkashunoslik materiallari, kundalik voqealar va boshqalar o'rganiladi. To'garak o'quvchilarni tarixiy tadqiqotning ba'zi tomonlari bilan ham ma'lum darajada tanishtiradi. Masalan, yosh arxsologlar, yosh arxivshunoslar to'garagida o'quvchilar arxeologiya ishlarini olib borish, arxivda ishlash malakalarini egallaydilar. To'garakda doklad qilishga, axborot berishga, ko'rsatmali qurollar tayyorlash va eskilarini ta'mirlashga, ta'limning texnika vositalari bilan ishlashga o'rganadilar. Tarixiy-o'lkashunoslik va kundalik siyosat to'garaklarining faoliyati ko'proq yuqori sinf o'quvchilarining kichik yoshdagi o'quvchilar va aholi orasida olib boradigan targ'ibot ishlari bilan bog'langan bo'ladi.

To'garakda tarixiy-biografik mavzularni o'rganish o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Agarda o'rta yoshdagi o'quvchilar uchun kishilarning jangdagi qahramonligi, jonbozligi qiziqarli va tushunarli bo'lsa, yuqori sinflardagi o'quvchilarni olim, tadqiqotchi va davlat arboblarning ichki dunyosi, yirik olim bo'lgunga qadar bosib o'tgan yo'li qiziqtiradi. Shu sababdan 7-8- sinflarda va o'rta maxsus ta'lim tizimida to'garaklar tematikasining asosiy mazmunini ko'pincha biografik xarakterdagi mavzular tashkil etadi.

To'garakda harbiy o'tmishni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, 5-6-sinf o'quvchilari to'garagida qadimgi dunyo, o'rta asrlardagi harbiy texnikani o'rganish mumkin. 7-9-sinflardagi o'quvchilarning to'garaklarida urush va harbiy san'at tarixining nazariy masalalari o'rganiladi.

Shunday qilib, sinfdan tashqari ishlarning muhim formasi bo'lgan tarix to'garagi ham o'quvchilari tarixni o'rganishga qiziqishini oshiradi, olgan bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirishga hamda mustaqil ijodiy ishlay bilish sohasida malakalarini hosil qilishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyoti yo'li. T. O'zbekiston, -1992.
2. I.A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqloli, iqtisod, siyosat, mafkura. T. O'zbekiston, 1993.
3. I.A. Karimov. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T. O'zbekiston, 1993
4. I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan, qolsin T. O'zbekiston, 1994.
5. I.A. Karimov Istiqloli va ma'naviyat. T. O'zbekiston, 1995
6. I.A. Karimov. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. T. O'zbekiston, 1995.
7. I.A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. O'zbekiston, 1995.
8. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
9. M.Karimov. I.Tursunov. Islom Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarini o'rganish «Sharq»-T. 1995.
10. Milliy istiqloli g'oyasi: asosiy tushuncha va tomoyillar. T. O'zbekiston, 2000
11. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi. 2004.
12. J.G'.Yo'ldoshev. Ta'lim yangilanish yo'lida.-T.: O'qituvchi. 2000.
13. 5-sinf «Jaxon tarixidan hikoyalar» I.Jo'rayev, M.Lafasov, K. Normatov. T. 2000.
14. 6-sinf O'zbekiston tarixi, A.S.Sa'dullayev, Ye.A.Kostetskiy, N.K.Norqulov. Sharq. 1999.
15. 7-sinf O'zbekiston tarixi. A.Muhammadjonov. Toshkent. O'qituvchi 2000
16. 7-sinf Jaxon tarixi. T.Salimov, S.Mahkamov «Sharq»-T.-1999y.
17. M.Lafasov 7-sinf Jaxon tarixi darsligi.-T.: Cho'lpon. 2005.
18. M.Lafasov. 9-sinf Jaxon tarixi o'quv qo'llanmasi.-T.: A.Qodiriy nomidagi merosi.-T.: 1999.
19. U.Jo'rayev. 7-sinf Jaxon tarixidan o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-T.: 2000.
20. N. Norqulov, U.Jo'rayev . 8-sinf O'zbekiston tarixi. Sharq. T. 2000.

21. J.Raximov. 9-sinf O`zbekiston tarixi. Toshkent. 2000.
22. D.Alimova, R.Karimov, K.Okilov va boshqalar. 10-sinf O`zbekiston tarixi. Sharq. T. 2000.
23. 10-sinf Jaxon tarixi. G.Hidoyatov. Sharq. T. 2000.
24. 11-sinf O`zbekiston tarixi N.Jo`rayev Toshkent. 1998.
25. O`zbekiston tarixini o`qitish va o`rganishning yagona konsepsiyasi.-T.: 1996.
26. O`zbekiston tarixi fanidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o`quv dasturi.-T.:2004.
27. Jahon tarixi fanidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o`quv dasturi.-T.:2004.
28. O`zbekiston tarixi umumta`lim va yangi turdagi maktablarning V-XI sinflari uchun dastur T. 1997.
29. O`zbekiston tarixi fani dasturi. Universitetlar va pedagogika oliy o`quv yurtlarining tarix fakultetlari uchun. T. 1996
30. Q.Usmonov. O`zbekiston tarixi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik.-T.: "O`qituvchi". 2005.
31. J.Rahimov O`zbekiston tarixini o`rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. T. O`qituvchi. 1995
32. T.Rahmatullayev. O`zbekiston xalqlari tarixini o`rganishda arxeologiya materiallaridan foydalanish T.O`qituvchi. 1994.
33. Saule Ziyamuxamedova, Buri Ziyamuxamedov. Novaya pedagogicheskaya texnologiya.-T.: Abu Ali Ibn Sino. 2002.

KURS ISHLARI MAVZULARI

1. **Jahon tarixini o`qitishning ta`limiy va tarbiyaviy maqsadi.**
2. **Jahon tarixini o`qitishning vazifalari.**
3. **Ijtimoiy – gumanitar fanlarga ixtisoslashgan akademik litseylarda “O`zbekiston qayta qurish yillarida. Milliy uyg`onishning yangi qudraqli bosqichi. Milliy istiqlol uchun kurash (1985 – 1991 yillar)” bobini o`rganish.**
4. **Ijtimoiy – gumanitar fanlarga ixtisoslashgan akademik litseylarda “Turkistonda Sho`rolar mustamlakachiligi istibdodining o`rnatilishi. O`lka xalqlarining milliy ozodlik, erk va mustaqillik uchun kurashlari” bobini o`rganish.**
5. **Ijtimoiy – gumanitar fanlarga ixtisoslashgan akademik litseylarda “Turkiston o`lkasida istiqloqlilik harakatining yanada kuchayishi va uning rivojlanish bosqichlari” bobini o`rganish.**
6. **Ijtimoiy – gumanitar fanlarga ixtisoslashgan akademik litseylarda “1918 – 1939 yillarda xalqaro munosabatlar” mavzusini o`rganish.**
7. **Ijtimoiy – gumanitar fanlarga ixtisoslashgan akademik litseylarda “ikkinchi jahon urushining boshlanishi” mavzusini o`rganish.**
8. **Ijtimoiy – gumanitar fanlarga ixtisoslashgan akademik litseylarda “Yevropa davlatlari” mavzusini o`rganish.**
9. **Kasb hunar kollejlari “sovet davlatining parchalanishi” mavzusini o`rganish.**
10. **Kasb – hunar kollejlari “O`zbekistonning mustaqillikka erishishi” mavzusini o`rganish.**

ANNOTATSIYA

Pedagogika oliy o'quv yurtlari bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun "Tarix o'qitish metodikasi" fanidan o'quv – uslubiy majmua.

Navoiy, 2011.

Uslubiy qo'llanmada "Tarix o'qitish metodikasi" fanining mazmun-mohiyatini talaba yoshlarga yetkazish, fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalar bilimni oshirish, fanning sir-asrorlarini talabalar ongiga singdirish bo'yicha o'qitishning texnologiyalashtirish qoidalari, usul, vositalaridan foydalanishning ta'lim texnologiyasi keltirilgan.

O'zbekiston bugun xalqaro hamjimiyaatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanayotgan bir davrda, uning iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sohalarni texnik va texnologik qayta jihozlash va jahon standartlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mutaxassis kadrlarni yangi talablar va uslublar asosida tayyorlash, ularga zamonaviy bilimlarni berish dolzarb masalalardan biridir. Shunday ekan, O'zbekiston yosh, rivojlanayotgan mamlakatlar ichida birinchilardan bo'lib ta'lim tizimini isloh qilishga kirishdi va Respublikamizda kadrlar tayyorlash "Milliy dastur"i va "Ta'lim to'g'risidagi" qonunlar qabul qilindi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Prezidentimizning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" kitobi, Oliy majlisning birinchi sessiyasida qilgan ma'ruzalaridan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi PF dan kelib chiqib, respublikamizda kasblar yo'nalishi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Bu sohada, ya'ni kadrlar tayyorlash va ta'lim samaradorligini oshirishda bir qator loyihalar, iqtisodiy ta'lim islohotlari amalga

oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning kishilarning umumta'lim va professional malaka darajasini oshirish, yangi talablar asosida kishilarning savodxonligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini joriy qilish borasidagi tashabbuslari negizida iqtisodiy sohalarda yetuk mutaxassislar va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash orqali tarmoqlardagi o'sish parametrlarining yaxshilanishiga erishilmoqda.

Ma'lumki, uzluksiz va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, eng avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy–texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv – tarbiya jarayoniga kirib kelishi oqibatida, shuningdek axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson uchun o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratildi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talaba (yoki o'quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishni kuchaytirish, kasbiy bilimlarini faolligini oshirishdan iboratdir. Iqtisodiy ta'limda pedagogika tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining talaba (yoki o'quvchi)larni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishda imkoniyati cheksiz ekanligi tasdiqlanmoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun–sayin oshib borayotgan axborot–ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. SHu sababli, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, aniq vazifalarni qo'ygan holda, dars mashg'ulotlarining usul va vositalarini to'g'ri tanlash orqali shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatdagi har bir fuqaroning bilim va malakasini oshirish, tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish mumkin.

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda Pedagogika oliy o'quv yurtlari bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun "Etnologiya" fanining maqsadi va vazifalari hamda ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondoshuvlarini keltiramiz:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'likligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Individdning jarayonli sifatlarini shakllantirish, ta'lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va tezlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida demokratik, tenglik, hamkorlik kabi o'zaro sub'ektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarni baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'lim oluvchilarning o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini aniqlash, dialektik tafakkurni va ularni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – bu yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashdir.

O'qitish uslublari va texnikalari. Ma'ruza (kirish, mavzuiy, ma'lumotli, ko'rgazmali (vizuallashtirgan), anjuman, aniq vaziyatlarni yechish), munozara, muammoli uslub, pinbord, aqliy hujum, tezkor-so'rov, savol-javob, amaliy ishlash usullari.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'qitishga asolangan frontal, jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (o'quv qo'llanma, ma'ruza matni, tarqatma materiallar) bilan bir qatorda – chizmalı organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: talabalar bilan tezkor qaytar aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Qaytar aloqalarning (ma'lumotning) usul va vositalari: tezkor-so'rov, o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida va butun kurs davomida mavzu yuzasidan nazorat savollarini berib borish orqali o'qitishning natijalari rejali tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida talabalarning bilimlari baholanadi.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua asosida “Tarix o'qitish metodikasi” yaratilgan bo'lib, unda ma'ruzalarni o'rganish bo'yicha bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, o'quv qo'llanma, ta'lim texnologiyasi, ko'rgazmalı taqdimot slaydlari, test savollari, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlar mavzulari ro'yxati jamlangan.

Mazkur o'quv-uslubiy majmuada hozirgi zamon “Tarix o'qitish metodikasi” masalalarini o'rganish ko'zda tutilgan. Bo'lajak bakalavrlarni o'rta umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida amaliy mashg'ulotlar olib borish ko'nikma va malakalarini shakillantirish, bo'lajak o'qituvchilarni Tarix o'qitish metodikasining mazmuni, ilmiy-tadqiqot metodlari bilan tanishtirish.

Dastur ma'ruzalar va seminar mashg'ulotlarini internetdan olingan yangi ma'lumotlar asosida ko'rilishini ko'zda tutadi.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga o'quv-uslubiy majmuadan o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar, magistrantlar, respublikamizda metodika sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi:

Katta o'qituvchi Hamroyeva S.I.